O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIShLOQ VA SUV XO’JALIGI VAZIRLIGI

SAMARQAND QIShLOQ XO’JALIK INSTITUTI

T.Qudratov

IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

Leksiyalar kursi iqtisodiyot ta’lim yo’nalishi talabalari uchun

Samaqand-2015

Iqtisodiy tahlil va audit fani bo'yicha leksiyalar kursi Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi dosenti T. Qudratov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2011 yil 17 sentyabrdagi 392-sonli buyrig'i bilan tasdiqlangan fanning o'quv dasturiga mos holda tayyorlangan.

Leksiyalar kursi SamQXI Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining yig'ilishida (2014 yil 30 oktyabrdagi 2-sonli sonli bayoni), iqtisodiyot va boshqaruv fakultetining uslubiy komissiyasining yig'ilishida (2014 yil 30 oktyabrdagi 3- sonli bayoni), fakultet ilmiy kengashining yig'ilishida(2014 yil 25- noyabrdagi.3 -sonli bayoni), institut markaziy uslubiy kengashining yig'ilishida (2014 yil ..26. dekayurdagi 4- sonli bayoni) va institut ilmiy kengashida (2014 yil 29 dekabrdagi 5- sonli 5-sonli bayoni) ko'rib chiqilib, chop etishga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

1. Aliqulov A.I. - Samarqand qishloq xo'jalik instituti Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi mudiri,iqtisod fanlari doktori,dosent
1. Ibragimov M.M -Samarqand bank kolleji direktori,iqtisod fanlari nomzodi, dosent..

Leksiyalar kursi "Iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan,lekin undan "Buxgalteriya hisobi va audit " va "Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish "ta'lim yo'nalishlarining talabalari ham,professor-o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Kirish

Mamlakat iqtisodiyotining har taraflama mustahkam bo'lishida va gullab yashnasida bilimli,malakali va yuqori manaviy-ma'rifiy saviyaga ega bolgan kadrlarni tayyorlash muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun ham zamon talabiga to'liq javob beradigan sifatli kadrlar tayyorlash masalasi mamlakatimiz oldida to'rgan eng dolzarb muommolardan bo'lib hisoblanadi.. Ushbu muommoni ijobiy hal qilish uchun tayyorlanadigan kadrlarni-talabalarni darslik, o'quv qo'llanma va boshqa o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan yetarli darajada taminlash zarur. Shular jumlasiga iqtisodiyotda bo'lgan yangilik va o'zgarishlarni hisobga olgan holda va yangi pedagogik texnalogiya metodini qo'llash asosida tayyorlangan leksiyalar kursi ham kiradi.

Leksiyalar kursi talabarni o'qitishda muhim ta'lim vositasi bo'lib hizmat qiladi. Leksiyalar kursi bilan talabalarni ta'minlash fanni o'zlashtirish darajasini oshirishda va bilimini mustahkamlashda muhim ro'l o'ynaydi. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqqan holda "Iqtisodiyot" ta'lum yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan talabar uchun Iqtisodiy tahlil va audit "" fani bo'yicha leksiyalar kursi tayyorlandi. Ma'lumki, iqtisodiy tahlil xo'jalik faoliyatida mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashda hamda ularni faoliyatga jalb yetishda,audit esa faoliyatda sodir bo'lgan hodisa ca jarayonlarning qonun talablariga mos kelishligini nazorat qilishda muhim boshqaruv vositasi bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun bo'lgusi mutaxassis-bakalavrlar ushbu fanlarning asoslarini yahshi va puxta o'zlashtirib-egallab olishi zarur. Shundagina ular iqtisodiy tahlil va audit nazoratini samarali tashqil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1-mavzu. Iqtisodiy talilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib,iqtisodiy tahlil fanining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini bayon qilish va ularning mazmun-mohiyatini talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Tahlil.Iqtisodiy tahlil.Balansshunoslik.Balans tahlili.Hisobot tahlili. Xo'jalik faoliyatining tahlili. Ishlab chiqarish.Samaradorlik.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

1.1. Iqtisodiy tahlil fanining paydo bo'lishi va rivojlanich tarixi.

1.2. Iqtisodiy tahlil fanining O'zbekistonda rivojlanishi.

1.3. Iqtisodiy tahlilning ishlab chiqarishni jadallashtirish va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati.

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni.

1.1.Iqtisodiy tahlil fanining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi

Iqtisodiy tahlil fani Iqtisodiy fanlar tarkibiga kiradi. Iqtisodiy tahlil fani ko'p asrlik tarixga ega. Ushbu fan buxgalteriya hisobi va statistika fanlari asosida vujudga kelgan . Buxgalteriya hisobining paydo bo'lganiga 550 yildan, Statistikaga 350 yildan,Iqtisodiy tahlilga 130 yildan oshgan. Buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi asar 15 asrda paydo bo'lgan. Bu fikrni tasdiqlovchi hujjat bo'lib, Vendrixt Katrulinning 1458 yilda nashr qilingan "Savdo va xususiy savdogar" nomli kitobi hisoblanadi[1]. 17 asrning o'rtalarida Angliyada "Siyosiy arifmetika"nomli ilmiy yo'nalish paydo bo'ldi,Germaniyada "Davlatshunoslik"maktabi rivojlandi. Siyosiy arifmetika va Davlatshunoslik asosida Statistika vujudga keldi[2].1880- yillarda Rossiyada "Schetovodstvo" jurnali chiqaboshladi. Ushbu jurnalda tahlilning birinchi elementlari paydo bo'ldi . Shu davrda «Balansshunoslik» fani yuzaga keldi. Shu fan tarkibida tahlilning bazi bir elementlari o'z aksini topaboshlagan. Shu davrdan boshlab , " Iqtisodiy tahlil" fani vujudga kelgan deb hisoblanadi.

Jamiyatda ishlab chiqarishning taraqqiy etishi bilan bir qatorda moddiy nematlarni yaratuvchilar orasida raqobat ham kuchayib borgan. . Bu jarayon esa o'z navbatida korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashni, ya'ni birinchi navbatda, moliyaviy barqarorligini va to'lovga qodirligini mustahkamlashni hamda hisob-kitob ishlarining yaxshilanishini taqazo qila boshlaydi. Korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash va uni mustahkamlash uchun ko'riladigan chora-tadbirlarni amalga oshirishda balans malumotlari yetarli bo'lmasdan qoladi. Shuning uchun ham balans bilan bir qatorda ishlab chiqarish faoliyati natijalarini ifodalovchi hisobotlar vujudga kelaboshladi,

[1] М.Қ. Пардаев "Иқтисодий таҳлил назарияси".Дарслик. 28 бет.

[2] Статистика.М.:1969.Учебник.Коллектив авторов под руководством акад.Струмилина С.Г. Стр.6

natijada tahlilning ko'lami kengaya boshladi. Oqibatda «Hisobot tahlili» paydo bo'ldi , ya'ni «Foyda va zararlar» haqidagi hisobot ma'lumotlari asosida tahlil amalga oshiraboshlandi.

Iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o'ziga xos tarixga va birqancha quyidagi nomlarga ega bo'ldi:.

1.Balansshunoslik
2.Balans talqini
3.Balansni tahlil qilish
4.Hisobot tahlili
5. Iqtisodiy tahlil
6.Xo'jalik faoliyati tahlili
7. Iqtisodiy tahlil
8.Moliyaviy va boshqaruv tahlili

1.2. Iqtisodiy tahlil fanining O'zbekistonda rivojlanishi

O'zbekistonda iqtisodiy tahlil faniga 20-asrning 60 yillaridan boshlab ahamiyat berilaboshlandi.Unga qadar Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida darslar boshqa fanlar kabi sobiq ittifoqning markaziy shaharlarida yaratilgan iqtisodiy tahlil fani bo'yicha olib borilar edi. Bu fanlarda va shu jumladan iqtisodiy tahlil fanida ham O'zbekistonga xos bo'lgan hodisa va jarayonlar hamda ularning natijalari o'z aksini topmas edi.Shunga qoramasdan darslar o'tilib kelar edi.Ushbu nuqsonlarni tugatish maqsadida O'zbekistonlik olimlar 20-asrning 60 yillaridan boshlab, barcha fanlar va shu jumladan iqtisodiy tahlil fani bo'yicha ham jasurlik bilan ijod qilishga kirishdilar.

O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fani bo'yicha qilingan ishlarning lo'nda mazmuni M.Q. Pardayevning "Iqtisodiy tahlil nazariyasi"darsligida va A.V.Vahobov va boshqalarning " Moliyaviy va boshqaruv tahlili"darsligida bayon qilingan . Biz shulardan foydalanib, ularning qisqacha mazmunini bayon qildik.

O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining yaratilishini taxminan quyidagi besh davrga bo'lish mumkin:

1-davr - O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanish davri. Bu fanining shakllanishida I.N.Toporovskiy va I.T.Abdukarimovning xizmatlari katta. Bunga misol qilib,Samarqand kooperativ nstitutining dosenti I.N.Toporovskiyning 1966 yilda Moskvaning "Ekonomika" nashriyotida chop etilgan " Matlubot kooperasiyasi korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili"darsligining muallifi tariqasidagi ishtirokini ko'rsatish mumkin. 1968 yilda I.T.Abdukarimov tomonidan "Kooperativ savdoda muomila xarajatlari tahlili" o'quv qo'llanmasi Moskvaning"Ekonomika" nashriyotida chop qilindi.Bular esa O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanishiga asos bo'ldi.

2 – davr - Sobiq ittifoqda o'z o'rniga ega bo'lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri. Bu davrda Samarqand kooperativ institutining olimlari tomonidan darslik va o'quv qullanmalar yaratildi. 1970 yilda I.T.Abdukarimov,B.A.Zaleskiy va I.N.Toporovskiylar tomonidan Moskvaning"Ekonomika" nashriyotida "Matlubot kooperasiyasi korxona va tashkilotlari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha masalalar to'plami" o'quv qo'llanmasi , I.T.Abdukarimovning 1971 yilda "Kooperativ

savdoda chakana tovar oboroti tahlili" o'quv qo'llanmasi va1973 yilda "Kooperativ savdoda foyda va rentabellik tahlili" nomli monografiyasi Moskvaning"Ekonomika" nashriyotida chop etildi. Ushbu ishlarning chop etilishi O'zbekistonlik olimlarning sobiq ittifoqda tan olinganligidan dalolat beradi. Xullas, O'zbekistonda iqtisodiy tahlil maktabi shakllandi.

3 – davr - iqtisodiy tahlil maktabining yaratilishi davri. Bu davrda Toshkentlik, Samarqandlik va boshqa xududlik olimlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalar, risolalar va ko'plagan ilmiy maqolalar yaratilaboshlandi. Bu davrga kelib, Toshkentlik olimlardan Yo.Abdullayev, F.A.,Maxmudov, O. Ibragimov, A.T.Xasanov, B.Shoalimov va boshqalar iqtisodiy tahlil fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.Samarqandlik olimlar ham o'z ananalarini davom ettirib, sermahsul ijod qildilar. I.T.Abdukarimov,M.Q.Pardayev va A.A. Abdiyevlar"Xo'jalik faoliyatining tahlili"ga bag'ishlangan to'rt tomlik albom yaratdilar. I.T.Abdukarimovning 1984 yilda "Matlubot kooperasiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish" nomli darsligi Moskvaning"Ekonomika" nashriyotida chop etildi.Bu darslik ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga tavsiya qilindi. Bu darslik qayta ishlanib,1989 yilda yangidan nashr qilindi.

4 – davr – Iqtisodiy tahlilning o'zbek tilida yozilish va vujudga kelish davri. Bu davrda Iqtisodiy tahlilning turli qirralariga bag'ishlangan o'zbek tilidagi asarlar Toshkentlik, Samarqandlik va boshqa xududlarning iqtisodchi olimlari tomonidan yaratila boshlandi. Bunga misol qilib, I.T.Abdukarimov,M.Q.Pardayev va A.A. Abdiyev va V. I.Abdukarimovlar tomonidan "Matlubot kooperasiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish"nomli o'zbek tilida chop qilingan darsligini, 1990 yilda Samarqand qishloq xo'jalik instituti dosenti T. Qudratovning "O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining iqtisodiy-statistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasini ko'rsatish mumkin.

5 – davr –Mustaqillik yillari davri. Bu davrni Iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari davri deb atash mumkin.Ya'ni bu davrda Iqtisodiy tahlil bo'yicha ko'plagan asarlar Davlat tilida vujudga keldi, nashr etildi va etilmoqda. Bunga o'zbek tilida chop etilgan quyidagi asarlarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

Vahobov A.V va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. Bu 2005 yili "Sharq " nashriyotida chop qilingan.

Abdullayev Yo.,Ibrohimov A.,Raximov M. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. Bu 2001 yili "Mehnat " nashriyotida chop qilingan.

- Pardayev. M.Q., Abdukarimov I.T.. Iqtisodiy tahlil. Darslik. 2004 yili "Mehnat" nashriyotida chop qilingan

- Qudratov T., Ibragimov M., Karimova Z. Iqtisodiy tahlil. O'quv Qo'llanma. Bu 2005-2012 yillari Toshkent "Ilm ziyo " nashriyotida chop qilingan (besh marta nashr qilingan).

- Qudratov T., Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati.Darslik 2012 yili Toshkent "Voris " nashriyotida chop qilingan va boshqalar

1.3. Iqtisodiy tahlilning ishlab chiqarishni jadallashtirish va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo’jalik yurituvchi sub’yekt o’z faoliyatini o’zi mustaqil ravishda erkin boshqaradi . Bu esa , o’z navbatida iqtisodiy tahlilning rolini keskin oshiradi .

Iqtisodiy tahlil orqali har bir xo’jalik yurituvchi sub’yektning ta’minot, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatlarida mavjud bo’lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniklanadi va ularni amaliyotga jalb qilish bo’yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bular ishlab chiqarishni yanada rivojlanishi va uning samaradorligini oshishiga olib keladi.

Boshqaruv jarayonida boshqaruv qarorlarini qabul qilish o’ta muhim chora bo’lib hisoblanadi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Buni amalga oshirish uchun o’rganilayotgan ob’yektga kompleks yondoshilib, kamchilik va nuqsonlarni tugatish uchun eng maqbul chora-tadbirlar belgilanadi. Mazkur ishlar bevosita iqtisodiy tahlil orqali amalga oshiriladi.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Iqtisodiy tahlil fani qaysi fanlar asosida vujudga kelgan?

2.Iqtisodiy tahlil fanining O’zbekistonda rivojlanishida salmoqli hissa qo’shgan iqtisodchi olimlarni bilasizmi? Ular kimlar?

3.Xo’jalik faoliyatni boshkarishda tahlilning roli nimadan iborat?

Mustaqil ish topshiriqlari. Tahlil fanining tarixiy taraqqiyot jarayonida atalgan nomlarini keltiring va mazmuni bo’yicha tarifini bering

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: “Voris”nashriyoti, 2012 yil

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Maruzalar kursi. 2013.

2-mavzu. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni, predmeti va vazifalari

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib,iqtisodiy tahlil fanining predmeti va ob'yektini, maqsadi va vazifalarini hamda fanlar tizimida tutgan o'rnini bayon qilish va ularning mazmun-mohiyatini talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Tahlil, iqtisodiy tahlil, tahlil predmeti, tahlil ob'yekti, tahlil maqsadi, xo'jalik faoliyati,ta'minat faoliyati,ishlab chiqarish faoliyati, iqtisodiy jarayoblar,ob'yektiv omillar,ceb'yektiv. Omillar.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum"metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

1.Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni, predmeti va ob'yekti.

2.Iqtisodiy tahlil fanining maqsadi va vazifalari.

3.Iqtisodiy tahlilning fanlar tizimida tutgan o'rni

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni.

2.1.Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni, predmeti va ob'yekti.

Iktisodiy tahlil o'z vaqtida samarali tashkil qilinsa, qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda yutuqlar va imkoniyatlar aniqlanadi, natijada ularni tugatish, yaxshilash yullari ko'rsatiladi, oqibatda imkoniyatlardan keng foydalanish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shu nuqtai nazardan bo'lajak iqtisodchi-bakalavrlar iqtisodiy tahlilning nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishlari kerak.

Tahlil so'zining ma'nosi nimani anglatadi?Tahlil grekcha – «Analisis» so'zidan olingan bo'lib, ajratish, bo'laklash, parchalash kabi ma'nolarni anglatadi. To'liqroq qilib aytganda, u iqtisodiyotda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisa va jarayonlarni bo'laklarga, qismlarga bo'lib va ajratib o'rganishni bildiradi.

Xo'jalik faoliyatini maqsadli, tezkor, joriy va istiqbolli o'rganish asosida uning holatiga har taraflama baho berish tahlilning asosiy **mazmunini** tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti bo'lib,nima hisoblanadi?

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti bo'lib, xo'jalik faoliyatida ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'siri ostida sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalari hisoblanadi

Masalan, ishlab chiqarilgan paxta, g'alla, sabzavot kabi mahsulotlar miqdorining o'zgarishi, ularning tannarxi yoki ularni sotishdan olingan foyda kabi boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlilning predmetiga misol bo'la oladi.

Tahlil ob'yekti. Ob'ekt tahlil fanining predmeti qayerlarda mujassamlanganligini va amalga oshishini ko'rsatadi. Tahlil fanining ob'yektiga qishloq xo'jalik korxonalari, ya'ni shirkat, fermer va boshqa xo'jaliklarni misol qilib ko'rsatishi mumkin.

2.2. Iqtisodiy tahlil fanining maqsadi va vazifalari.

<u>Tahlilning maqsadi</u>. Tahlilning maqsadi bo'lib,xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarining natijalarini, birinchi navbatda, uning zaif va oqsoq tomonlarini chuqur o'rganib, xo'jalikning iqtisodiyotini ya'nada mustahkamlash va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarni aniqlash hisoblanadi.

Mavjud imkoniyatlarni aniqlash orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'raytirish va ularning sifatini oshirish, tannarx va mehnat sarfini kamaytirish, barcha resurslardan foydalanish darajasini oshirish, oqibatda pirovard natija – foydani ko'paytirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, har bir xo'jalik iqtisodiyotini, qolaversa, mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodiy tahlilning asoslarini o'rganish ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etadi..

Taxlilning vazifalari bo'lib,. quyidagilar hisblanadi:

1. Xo'jalikning biznes rejasini tuzish uchun zarur bo'lgan ob'yektiv hisobot ma'lumotlari bilan ta'minlash;
2. Xo'jalikning ta'minot, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatlarining natijalarini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha biznes rejaning bajarilish darajasi yoki dinamikasi o'zgarishini o'rganish;
3. Har bir jarayon natijasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda har birining ta'siriga baho berish;
4. Xo'jalikda mavjud bo'lgan tabiiy, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish;
5. Korxonani samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan tahliliy axborot manbalarini yetkazib berish.

2.3..qtisodiy tahlilning fanlar tizimida tutgan o'rni

Iqtisodiy tahlil fani ko'p fanlar bilan,birinchi navbatda iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi.Iqtisodiy tahlil falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, statistika, buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarishni tashqil etish, moliya,matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Iktisodiy tahlilning predmeti bo'lib, nima hisoblanadi?
2.Iktisodiy tahlilning maqsadi nimadan iborat? Uni tushuntiring.
3.Iktisodiy tahlilning falsafa bilan uzviy bog'liqligini aniqlang
4. Iktisodiy tahlilning statistika bilan uzviy bog'liqligini ko'rsating

Mustaqil ish topshiriqlari. Quyida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib,Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va ob'yektini aniqlang va ta'riflang: Masalan,Shirkat xo'jaligi bo'yicha yetishtirilgan jun,go'sht, ozuqa miqdori va jun tannarxi to'g'risidagi,Fermer xo'jaligida ishlab chiqarilgan paxta,g'alla miqdori va paxta tannarxi,urug' sarfi to'g'risidagi,Dehqon xo'jalilidagi sigirlar va qo'ylar soni va sut mahsuldorligi,jun miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarkand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: Voris nashriyoti, 2012 yil

3-mavzu. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar.

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib,iqtisodiy tahlil fanining metodi va metodijdologik asoslari, tahlilda qo'llaniladigan omillar va usullarning mazmun-mohiyatini bayon qilish va ularni talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Tahlil metodi, omillar, ob'yektiv omillar, sub'yektiv omillar, intensiv omillar,ekstensiv omillar, tahlil usullari, solishtirish usuli, farklash usuli, zanjirli boglanish usuli, indeks usuli.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

3.1. Iqtisodiy tahlil metodi va metodijdologik asoslari

3.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan omillar

3.3. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullar

Asosiy o'quv materiallarinining qisqacha bayoni.

3.1. Iqtisodiy tahlil metodi va metodijdologik asoslari

Metod so'zi qadimgi grek tilidan olingan bo'lib, tabiat va jamiyatda sodir bo'lgan, bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usuli demakdir. Tabiat va jamiyatda paydo bo'lgan va bo'ladigan hodisa va jarayonlar bir biri bilan uzviy bog'liqlik va aloqada bo'ladilar. Iqtisodiy jarayonlarning qaysi jihati o'rganilishidan qat'iy nazar, ularni bir – biri bilan o'zaro bog'liqlikda, aloqada deb qarash lozim. Bu jarayonlarga materialistik dialektika nuqtai nazardian yondoshish kerak, ya'ni barcha hodisa va jarayonlarga bir- biri bilan uzviy bog'liqlikda, aloqada va doimiy o'zgarishda, rivojlanishda deb qarash zarur.. Materialistik dialektika konunlariga asoslangan holda iqtisodiy tahlilda o'ziga xos maxsus usullar ishlatiladi. Ushbu **usullar yig'indisi iqtisodiy tahlil metodi** deb ataladi. Uni to'liqroq quyidagicha tariflash mumkin.

Iqtisodiy tahlil .metodi. Iqtisodiy tahlil predmetini kompleks o'rganishda qo'llaniladigan usullar majmuasi iqtisodiy tahlil fanining metodi bo'lib hisoblanadi

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar o'z navbatida iqtisodiy-statistik va iqtisodiy-matematik usullarga bo'linadi. Keng tarqalgani iqtisodiy sitatistik usullardir. Bularga solishtirish, farqlash, guruhlash, zanjirli bog'lanish, indeks kabi usullarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy matematik usullar ham qo'llaniladi. Shular jumlasiga korrelyasiya, dispersiya, integral usullarini ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy tahlil metodologiyasi. Metodologiya deganda fanning predmetini o'rganishda qo'llaniladigan dialektik va tizimiy yondashuvlar hamda kategoriyalar va usullar majmuasi tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslarini ifodalovchi kategoriyalar quyidagilardir: induksiya va deduksiya, makon va zamon,analiz va sintez,shakl va mazmun,sabab va oqibat,miqdor va sifat.

"Olam va odam" tizimida dunyoni anglash, sub'yekt va ob'yektlar orasidagi munosabatlar dialektikasi "Bilish nazariyasi" orqali namoyon bo'ladi. Bilish nazariyasi orqali jamiyatda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisa va jarayonlarning o'zaro aloqasi va bog'liqligi, harakati va o'zgarishi o'rganiladi, baho beriladi hamda ular orasidagi qonuniyatlar ochilib, xulosalar chiqariladi. Bilish nazariyasi barcha fanlar uchun ham nazariy, ham uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

3.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan omillar

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, ular qandaydir omillar ta'siri ostida yuzaga keladi.

Omillar deganda nima tushuniladi? Omillar deganda natijaning paydo bo'lishi va uning o'zgarishiga sababchi bo'luvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasi tushuniladi.Masalan,ishlab chiqarilgan paxta yalpi hosilining o'zgarishi bevosita paxta maydoni bilan hosildorligining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Demak., paxta maydoni bilan hosildorligik omillar bo'lib hisoblanadi.

Omillar o'z navbatida miqdoriy va sifatiy omillarga bo'linadi.

Miqdoriy omillar deganda ekstensiv omillar tushuniladi.

Sifatiy omillar deganda intensiv omillar tushuniladi.

Ekstensiv omillar deganda natija o'zgarishiga ta'sir qiluvchi miqdoriy omillar tushuniladi.Bularga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: ekin maydonining o'zgarishi,chorva mollari sonining o'zgarishi, xodimlar sonining o'zgarishi va hakozolar.

Intensiv omillar deganda natija o'zgarishiga ta'sir qiluvchi sifat omillari tushuniladi. Bularga quyidagi ko'rsatkichlarni misol qilib ko'rsatish mumkin**:** hosildorlik,mahsuldorlik,mehnat unimdorligi, fond qaytimining o'zgarishi va boshqalar.

3.3. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullar

Korxonalar faoliyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlar va ularning natijalarini o'rganishda birinchi navbatda, iqtisodiy-statistik usullar keng qo'llaniladi. Ushbu bo'limda shularning asosiylaridan bo'lgan «Ko'rsatkichlar farki» va «Zanjirli boglanish» usullarini mazmuniga to'xtalamiz

Ko'rsatkichlar farqi usuli. Bu usul hodisa va jarayonlar orasidagi bog'liqlik funksional bo'lgan tag'dirda qo'laniladi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, natija ko'rsatkichining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash uchun ta'siri aniqlanayotgan omillar orasidagi farqni qolgan omillarning miqdoriga ko'paytirish kerak. Iqtisodiy hodisaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'z navbatida miqdoriy va sifatiy omillarga bo'lib o'rganiladi

Natijaning o'zgarishiga miqdoriy omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi miqdoriy omil bilan bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) miqdoriy omil orasidagi farqni bazis davridagi (yoki rejadagi) sifatiy omilga ko'paytiriladi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga xodimlar soni o'zgarishining ta'sirini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin: $(\mathbf{T_1 - T_0})\mathbf{P_0} = \pm\Delta_\mathbf{T}$

Bunda, $T_{1,}T_0$ - hisobot va bazis yillaridagi xodimlar soni;

P_0 - bazis davridagi (yoki rejadagi) 1 xodimning o'rtacha ish haqisi.

Natijaning o'zgarishiga sifatiy omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi sifatiy omil bilan bazis davridagi sifatiy omil orasidagi farqni hisobot davridagi miqdoriy omilga ko'paytiriladi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga o'rtacha ish haqi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlashni ko'rsatish mumkin: $(\mathbf{P_1} - \mathbf{P_0})\mathbf{T_1} = \pm\Delta_{\mathbf{P}}$

Bunda- P_1 -hisobot yilidagi bir xodimning o'rtacha ish haqi

Zanjirli bog'lanish usuli. Ushbu usul ham natija bilan omillar orasidagi bog'lanish funksional bo'lgan tag'dirda ishlatiladi. Bu usulda har bir ta'sir etuvchi omilning natijaga ta'sirini aniqlash tartibi ma'lum uslubiy ketma-ketlikka ega. Bu shundan iboratki, rejadagi yoki o'tgan yildagi ko'rsatkichlarni hisobot yilidagi ko'rsatkichlar bilan navbatli almashtirishni to'g'ri belgilash bo'lib hisoblanadi. Rejadagi yoki o'tgan yildagi omilli ko'rsatkichlarni almashtirishda miqdor va sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor beriladi. Ko'rsatkichlarni qatorlashda dastlab miqdor ko'rsatkichlari, so'ngra sifat ko'rsatkichlari joylashtiriladi. Boshqacha aytganda dastlabki qatordagi qo'rsatkichlar xaqiqiy ko'rsatkichlar bilan navbatma-navbat joy almashib, oxirgi qatordagi haqiqiy ko'rsatkichlar xolatiga keltiriladi. Bunda 1-qatordagi ko'rsatkichlar har doim bazis yilidagi (rejadagi) ko'rsatkichlarni ifodalaydi. 1- qator bilan oxirgi qator oralaridagi qatorlar «shartli ko'rsatkichlar» bo'lib hisoblanadi. Yonma-yon turgan qatorlar orasidagi o'zgarish natijaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi bir omilning ta'sir darajasini ko'rsatadi

Buni ish haqi fondini tahlil etish uslubi misolida ko'rib chiqamiz. Ish haqi fondining o'zgarishiga 3 omil ta'sir qiladi:

1. Ishlovchilarning o'rtacha yillik sonining(T) o'zgarishi;
2. Bir ishlovchining o'rtacha ishlagan kishi-soatlari miqdorining(S) o'zgarishi.,
3. Bir kishi – soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasining (H) o'zgarishi.

Tahlil quyidagi ketma ketlikda amalga oshiriladi:

Ish haqi fondining umumiy o'zgarishi: $\sum \boldsymbol{T_1 S_1 H_1} - \sum \boldsymbol{T_0 S_0 H_0} = \pm\Delta_{\boldsymbol{TSH}}$

Ish haqi fondining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari (ya'ni ish haqi fondi ko'rsatkichlari) aniqlanib olinadi:

1. $\Sigma\, \mathbf{T_0 S_0 H_0}$ - bazis davridagi ish haqi fondi.
2. $\Sigma \mathbf{T_1\, S_0\, H_0}$ - 1-shartli ish haqi fondi
3. $\Sigma \mathbf{T_1 S_1 H_0}$ – 2-shartli ish haqi fondi
4. $\Sigma \mathbf{T_1 S_1 H_1}$. hisobot davridagi ish haqi fondi

Shundan so'ng ish haqi fondining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi:

1.Ishlovchilarning o'rtacha yillik soni o'zgarishining ta'siri:

$$\sum \boldsymbol{T_1 S_0 H_0} - \sum \boldsymbol{T_0 S_0 H_0} = \pm\Delta_{\boldsymbol{T}}$$

2. Bir ishlovchining o'rtacha ishlagan kishi-soatlari o'zgarishining ta'siri:

$$\sum \boldsymbol{T_1 S_1 H_0} - \sum \boldsymbol{T_1 S_0 H_0} = \pm\Delta_{\boldsymbol{S}}$$

3.Bir kishi – soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasi o'zgarishining. ta'siri:

$$\sum \boldsymbol{T_1 S_1 H_1} - \sum \boldsymbol{T_1 S_1 H_0} = \pm\Delta_{\boldsymbol{H}}$$

Nazorat savol va topshiriqlar

1. IQtisodiy tahlilning qanday usullarini bilasiz? tushuntiring.
2. Farklash usuli qay vaqtda qo'llaniladi? Uning mazmunini tushuntiring.

3. Zanjirli bog’lanish usulini qo’llash tartibini tushuntiring.

Mustaqil ish topshiriqlari.

Berilgan ma’lumotlar asosida aniqlang va mazmuni tushuntiring

1.Funksional bog’lanishga tegishli bo’lgan usullarni.,

2.Ko’rrelyasion bog’lanishga tegishli bo’lgan usullarni.,

Ma’lumotlar:solishtirish usuli,farqlash usuli, dispersiya,indeks usuli,korrelyasiya usuli,zanjirli bog’lanish usuli,guruhlash usuli,balansli bog’lanish usuli,integral usuli.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarkand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: “Voris” nashriyoti, 2012 yil

3.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Maruzalar kursi. 2013.

4-mavzu. Iqtisodiy tahlilning turlarining mazmuni va tavsifi

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib,iqtisodiy tahlil turlari togrisidagi tushunchani, Iqtisodiy tahlil turlarining mazmun-mohiyatini hamda Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlil turlariga ajratishning zarurligining mohiyatini yoritish va ularni talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Iqtisodiy tahlil turi, iqtisodiy tahlil shakli, ichki tahlil , tashqi tahlil,tezkor tahlil, joriy tahlil , istiqbol tahlil, global tahlil, lokal tahlil, tematik tahlil, mikroiqtisodiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

4.1. Iqtisodiy tahlil turlari togrisida tushuncha va tasniflanish belgilari

4.2. Iqtisodiy tahlil turlarining mazmun-mohiyati va tasnifi

4.3. Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlil turlariga ajratishning zarurligi

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni.

4.1. Iqtisodiy tahlil turlari togrisida tushuncha va tasniflanish belgilari

Iqtisodiy tahlilning turlari deganda maxsus belgilari, xossalari, vazifalari kabilar bilan umumiy bo'lgan guruhlar tushuniladi.

Tahlil turlari har xil bo'lgan bilan ularda qo'llaniladigan usullar bir-biriga yakin va o'xshash bo'ladilar.

Iqtisodiy tahlil turlari turli xil belgilar bo'yicha guruhlarga bo'linib o'rganiladi.

Iqtisodiy tahlil turlari quyidagi belgilar bo'yicha tasniflanadi:

1.Iqtisodiy mazmuni bo'yicha (global, lokal va tematik tahlil);

2.Zamon nuqtai nazaridan (tezkor, joriy, istiqbol tahlil);

3.Makon nuqtai nazaridan (ichki va tashqi iqtisodiy tahlil);

4.Tarmoq tamoyili bo'yicha (tarmoqlar va tarmoqlararo tahlil);

5.Kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha (ishlab chiqarish, muomila, taqsimot va iste'mol sohalari tahlili);

6.Tahlil qiluvchi sub'yektlar bo'yicha (ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy iqtisodiy tahlil va b.q.)

7.Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha (mikroiqtisodiy tahlil va makroiqtisodiy tahlil)

8.Ob'yektni qamrab olish darajasi bo'yicha (batafsil tahlil va tanlama tahlil)

4.2. Iqtisodiy tahlil turlarining mazmun-mohiyati va tasnifi

Iqtisodiy tahlil iqtisodiy mazmuni bo'yicha uch turga bo'linadi:

Tahlil turlari	Tahlil turlarinig ta’rifi (mazmuni)
1. **Global tahlil**	Xo’jalik yurituvchi sub’yektning faoliyatini to’liq, har taraflama chuqur o’rganish global tahlil deb ataladi.
2. **Lokal tahlil**	Xo’jalik faoliyatinig alohida bir faoliyatini, bir bo’lagini o’rganish lokal tahlil deb ataladi
. **Tematik tahlil**	Xo’jalik faoliyatini alohida mavzular bo’yicha o’rganish tematik tahlilni tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlil zamon nuqtai nazaridan quyidagi uch turga bo’linadi:.

1.Tezkor tahlil. Tezkor tahlil deganda hisobot davri davomida, hodisa va jarayonlar davom etayotgan vaqtda o’tkaziladigan tahlil tushuniladi.

2.Joriy tahlil. Joriy tahlil deganda hisobot davri tugashi bilan hisobot ma’lumotlari asosida o’tkaziladigan tahlil tushuniladi.

3.Istiqbol tahlil. Istiqbol tahlil deganda xo’jalikni kelajakdagi faoliyatining istiqbolini belgilash uchun o’tkaziladigan tahlil tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil makon nuqtai nazaridan quyidagi ikki turga bo’linad:i.

1.Ichki iqtisodiy tahlil. Ichki iqtisodiy tahlil deganda xo’jalik faoliyatini o’z mutaxassis xodimlari tomonidan o’tkaziladigan tahlil tushuniladi.

2.Tashqi iqtisodiy tahlil. Tashqi iqtisodiy tahlil deganda xo’jalik faoliyatini tashqi sub’yektlarning mutaxassislari tomonidan o’tkaziladigan tahlil tushuniladi,

Iqtisodiy tahlil ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o’rganish bo’yicha mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy tahlil turlariga bo’linadi.

Tahlil turlari	Tahlil turlarinig ta’rifi (mazmuni)
Mikroiqtisodiy tahlil	Mikroiqtisodiy tahlil deganda bevosita xo’jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatini o’rganish tushuniladi.Fermer, shirkat kabi sub’yektlar faoliyatini o’rganish mikroiqtisodiy tahlil bo’lib hisoblanadi.
Makroiqtisodiy tahlil	Makroiqtisodiy tahlil deganda makroiqtisodiyot darajasida sodir bo’lgan va bo’layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jaranlarni o’rganish tushuniladi. Mamlakat,viloyat va tumanlar faoliyatini o’rganish makroiqtisodiy tahlil tahlil bo’lib hisoblanadi.

4.3. Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlil turlariga ajratishning zarurligi

Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlil turlariga ajratishning zarurligini quyidagi ikki ob’yektiv jarayonning paydo bo’lishi bilan bog’lash mumkin: birinchidan, buxgalteriya hisobining jahon andozalari asosida boshqaruv va moliyaviy hisob turlariga ajratilganligi va,ikkinchidan, hozirgi zamon biznesini samarali yuritish

uchun xo’jalik yurituvchi sub’yektlarda ichki va tashqi manfaatdor sub’yektlarni talablariga to’liq javob beraoladigan axborotlar tizimining yuzaga kelganligi sabab bo’lgan

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Iqtisodiy tahlilning turlari deganda nima tushuniladi?

2.Global , lokal va tematik tahlil turlarining mazmunini tushuntiring

3.Makon nuqtai nazaridan tahlil necha turga bo’linadi va ular qaysilar?

Mustaqil ish topshiriqlari. Tahlil turlari to’g’risidagi ma’lumotlardan foydalanib,mikro va makroiqtisodiy tahlil turlarini aniqlang va ta’riflang.

Tahlil turlari to’g’risidagi ma’lumotlar**:** tannarx tahlili,mehnat unimdorligi tahlili, fermer xo’jaligi faoliyatining tahlili,o’simlikchilik faoliyatining tag’lili,mamlakat yalpi ichki mahsulotining tah’lili,yalpi foyda dinamikasining tahlili.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarkand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: “Voris” nashriyoti, 2012 yil

3.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Maruzalar kursi. 2013

5-mavzu. Axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish.

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib,iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari turlarini,ularga qoyiladigan talablarni,hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilishni, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish qoidalarini yoritish va ularni talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Iqtisodiy axborotlar.Me'yoriy ma'lumotlar.Hisobot ma'lumotlari.Reja ma'lumotlari.Hisobdan tashkari ma'lumotlar. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt. Tahlil tashqilotchisi. Tahlilni amalga oshiruvchi. Ma'lumotnoma.Bayonnoma.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

5.1. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarini turlari,ularga qoyiladigan talablar va ularni tekshirish usullari

5.2. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish.

5.3.Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni

5.1. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarining turlari,ularga qoyiladigan talablar va ularni tekshirish usullari

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1.Iqtisodiy ma'lumotlar;

2.Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar;

3.Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar;

4.Tabiiy-ekologik ma'lumotlar;

5.Boshqa ma'lumotlar.

Iqtisodiy ma'lumotlar asosan buxgalteriya hisobi, statistika va tezkor hisob va hisobotlarda o'z aksini topadi. Ushbu axborotlarga quyidagi talablar qo'yiladi:


1.Xaqqoniylik va holisonalik tamoyiliga amal qilish.,

2.Iqtisodiy jarayonlar va hodisalar mazmunini to'liq ob'yektiv yoritish.,

2.Iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni ifodalovchi ma’lumotlarni aniq o’lchamda aks ettirish.

4.Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog’liqligi hamda ulardagi axborotlar bir-birini to’ldirib turushligi.

Iqtisodiy axborotlarni tekshirish usullarini quyidagi chizmadan ko’rish mumkin.



5.2.Xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish.

Mulkdor o’zining mulkini ko’payishidan, ko’proq foyda olishdan manfaatdor. Shuning uchun u xo’jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilib turishni doimiy ravishda boshkaradi. Demak, iqtisodiy tahlilning tashqilotchisi o’zi bo’lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilni barcha mutaxassislar o’z sohalari bo’yicha o’z vaqtida samarali olib borishlari kerak. Korxona bo’yicha boshqaruv tahlili bosh iqtisodchi, moliyaviy tahlil bosh buxgalter rahbarligida tashqil qilinadi.Xo’jalikda rahbarning iqtisodiy ishlar bo’yicha o’rinbosari mavjud bo’lsa, iqtisodiy tahlil uning bevosita rahbarligi ostida tashqil qilinadi.

Iqtisodiy tahlil quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

1.Tahlil ob’yektini tanlash va rejasini tuzish;

2.Hisobot va reja ma’lumotlarini yig’ish va tekshirish;

3.Ma’lumotlarni qayta ishlash va taqqoslama holatga keltirish;

4.Ko’rsatkichlarni taqqoslash orqali o’zgarishini aniqlash va ushbu o’zgarishga omillar ta’sirini hisoblab, baho berish;

5. Tahlil natijalarini umumlashtirish, xulosa chiqarish va takliflar berish.

5.3.Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Iqtisodiy tahlil natijalari tahlilning yakuniy bosqichida umumlashtirilgan holda rasmiylashtiriladi, xulosalar qilinadi va takliflar beriladi.

Tahlil xo'jalik faoliyatining natijalarini umumlashtirishda o'zaro bog'liqlik va uslubiy ketma-ketlik saqlangan holda ,korxona biznes-rejasini bajarilishi, tabiiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari hamda tadbirkorlik faoliyatidan foydalanish darajasiga baho beradi,Yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning sabablari, ichki imkoniyatlar va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish bo'yicha takliflar va tavsiyalar beriladi.

Xulosada barcha erishilgan yutuklar bilan bir qatorda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatlarga olib kelganligi ko'rsatiladi. Bularning hammasi ma'lumotnoma (bayonnoma)da o'z aksini topadi.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Hisob va hisobot ma'lumotlari iqtisodiy tahlilda qanday ro'l o'ynaydi?
2.Axborotlarni qaysi usullar yordamida tekshirish mumkin?
3.Iqtisodiy tahlilni tashqilotchisi va amalga oshiruvchisi kimlar?
4.Iqtisodiy tahlil natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari. Quyida berilgan ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlil axborot manbalari turlarini aniqlang va har biriga ta'rif bering.

Berilgan ma'lumotlar: Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun, buxgalteriya hiobi va hisoboti,statistik hisobotlar,biznes –reja,ishlab chiqarish xarajatlari me'yorlari,tabiiy resurslar to'g'risidagi ma'lumotlar, jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar,tezkor hisobotlar.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.-T.: Voris nashriyoti, 2012 yil
2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Maruzalar kursi. 2013.

6-mavzu. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish dasturlari bajarilishi (dinamikasi)ni tahlil qilish uslubi.

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish dinamikasini,hamda mahsulotlar sifatini omilli tahlil qilish usullarining mazmun mohiyatini yoritish va ularni talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Ishlab chiqarish. Mahsulot miqdori . Yalpi hosil.Yalpi sut. Miqdoriy omil.Ekin maydoni.Sigirlar soni. Sifatiy omil. Hosildorlik. Mahsuldorlik. Sof pul tushumi. O'rtacha sotish bahosi. O'rtacha navlik koeffisiyenti.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar:

6.1. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili

6.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish dinamikasini tahlil qilish uslubi

6.3. Sotilgan mahsulotlar sifatini tahlil qilish uslubi

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni.

6.1. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chikarish ahvolini tahlil qilishning maqsadi bo'lib nima hisoblanadi.

Tahlilning maqsadi bo'lib, o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ya'nada ko'paytirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash hisoblanadi.

O'simlikchilikda mahsulot ishlab chiqarish ahvolini tahlil qilish yalpi hosil miqdorining o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi.

Hisobot yilida yetishtirilgan yalpi hosil miqdorini bazis yilida yetishtirilgan yalpi hosil miqdoriga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi:

$$\sum \boldsymbol{M_1 H_1} - \sum \boldsymbol{M_0 H_0} = \pm \Delta_{\boldsymbol{mh}}$$

Bunda, $\mathbf{M_0}$,$\mathbf{M_1}$ - mos holda bazis va hisobot yilidagi ekin maydoni;

$\mathbf{H_0}$, $\mathbf{H_1}$ - mos holda bazis va hisobot yilidagi hosildorlik.

Yalpi hosilning o'zgarishiga bevosita quyidagi ikki omil ta'sir qiladi:

1. Ekin maydonining o'zgarishi;
2. Ekin hosildorligi darajasining o'zgarishi.

Ushbu omillarning ta'siri har xil usullar yordamida aniqlanadi. Biz bu yerda «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlash tartibiga to'xtaldik:

Yalpi hosil o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash:

1.Ekin maydoni o'zgarishining ta'siri:

$$\sum M_1 H_0 - \sum M_0 H_0 = \pm\Delta_m$$

2.Hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\sum M_1 H_1 - \sum M_1 H_0 = \pm\Delta_h$$

Endi, yalpi hosilning tahlilini paxta yalpi hosili misolida ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Paxta yalpi hosilining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili maydoni va bazis yili hosildorligi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan o'zgarishi	
					Ekin maydoni hisobiga	Hosildorligi hisobiga
1.Paxta maydoni,ga	160	158	158	- 2	x	x
2.Hosildorligi,s/ga	22,5	22,5	24,0	+1,5	x	x
3.Yalpi hosili, s	3600	3555	3792	+192	-45	+237

1 - jadvaldan ko'rinib turibdiki, paxta yalpi hosili hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 192 s.ga oshgan:$\sum M_1 H_1 - \sum M_0 H_0 =$ (158* 24,0)-(160*22,5)= 3792-3600=+192s

Ushbu o'zgarish paxta maydoni bilan hosildorlik o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan:

1) Paxta maydoni 2 gektarga kamaygan. Bu esa yalpi holilni 45s.ga kamayishiga olib kelgan:$\sum M_1 H_0 - \sum M_0 H_0$ = (158*22,5)-(160*22,5)= 3555-3600= -45s.

2)Paxta hosildorligi 1,5s.ga oshgan. Bu esa yalpi hosilni 237s.ga ko'payishiga sababchi bo'lgan:$\sum M_1 H_1 - \sum M_1 H_0$ =(158*24)-(158*22,5)=3792-3555=+237 s.

Xullas, ekstensiv omilning salbiy, intensiv omilning ijobiy ta'siri ostida yalpi hosil bazis yiliga nisbatan 192s.ga yoki 5.5 foizga oshgan.

Yalpi hosilning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi intensiv omil bo'lib, ekinlar hosildorligi hisoblanadi. Shuning uchun o'rtacha hosildorlikni tahlil qilish uslubiga to'xtaldik.

O'rtacha hosildorlikning o'zgarishiga bevosita ikkki omil ta'sir qiladi:

1. Ekin maydoni strukturasining o'zgarishi;

2.Har bir ekin turi (yoki navi) bo'yicha hosildorlik darajasining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlash tartibiga to'xtaldik. O'rtacha hosildorlikning umumiy o'zgarishini aniqlash uchun hisobot yilidagi o'rtacha hosildorlikdan bazis yilidagi o'rtacha hosildorlikni chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\sum(\sum \boldsymbol{JM_1} * \boldsymbol{S_1} * \boldsymbol{H_1})}{\sum \boldsymbol{JM_1}} - \frac{\sum(\sum \boldsymbol{JM_0} * \boldsymbol{S_0} * \boldsymbol{H_0})}{\sum \boldsymbol{JM_0}}$$

Bu yerda, $\sum JM_1, \sum JM_0$ –Hisobot va bazis yillaridagi jami ekin maydoni.,

S_1, S_0 – Hisobot va bazis yillaridagi jami ekin maydoniga nisbatan har bir ekin maydonining salmog'i(koeffisient hisobida).,

H_1, H_0 – Hisobot va bazis yillaridagi har bir ekinning hosildorligi.

O'rtacha hosildorlikning o'zgarishiga ekin maydoni strukturasi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\sum(\sum \boldsymbol{JM_1} * \boldsymbol{S_1} * \boldsymbol{H_0})}{\sum \boldsymbol{JM_1}} - \frac{\sum(\sum \boldsymbol{JM_1} * \boldsymbol{S_0} * \boldsymbol{H_0})}{\sum \boldsymbol{JM_1}}$$

O'rtacha paxta hosildorligining o'zgarishiga har bir ekin bo'yicha hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\sum(\sum \boldsymbol{JM_1} * \boldsymbol{S_1} * \boldsymbol{H_1})}{\sum \boldsymbol{JM_1}} - \frac{\sum(\sum \boldsymbol{JM_1} * \boldsymbol{S_1} * \boldsymbol{H_0})}{\sum \boldsymbol{JM_1}}$$

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasini omilli tahlili qilish uslubi o'simlikchiliknikidan farq qilmaydi. Bu yerda ekin maydoni (M) o'rniga chorva mollari bosh soni (S), hosildorlik (H) o'rniga mahsuldorlik (P) ko'rsatkichlari olinib, tahlil qilinadi. Shuning uchun uni talabaga mustaqil bajarish uchun qoldirildi.

6.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish dinamikasini tahlil qilish uslubi

Korxonalar iqtisodiyotining taraqqiyoti asosan mahsulotlarni sotishdan tushadigan pul daromadining hajmiga bog'lik bo'ladi. Shuning uchun ushbu jarayonni o'rganish katta ahamiyatga egadir.

Sotilgan mahsulotlar hajmi pul tushumi orqali ifodalanadi. Sof pul tushumi xajmining o'zgarishini omilli tahlil qilishda ko'p usullardan foydalanish mumkin.Biz bu yerda «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, tahlil qilish qoidasini keltirdik.

Sof pul tushumining tahlili taqqoslashdan boshlanadi. Hisobot yilida mahsulotni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmini bazis yilidagi sof pul tushumi hajmiga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi: $\boldsymbol{q_1 p_1 - q_0 p_0 = \pm \Delta_{qp}}$

Bunda, q_1, q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar miqdori;

P_1, P_0 –mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar bir birligining o'rtacha sotish bahosi.

Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin «**Shartli sof pul tushumi**» ko'rsatkichi aniqlab olinadi: $\mathbf{q_1 p_0}$

Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri:

1.Mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'siri: $\mathbf{q_1 p_0 - q_0 p_0 = \pm \Delta_q}$

2.O'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'siri: $\mathbf{q_1 p_1 - q_1 p_0 = \pm \Delta_p}$

Yuqorida keltirilgan tahlil qilish usulini mazmunini o'zlashtirib olgan talaba, iqtisodchi –tahlilchi sof pul tushumining tahlilini tahliliy jadval asosida be'malol amalga oshirishi mumkin. Buni quyidagi 5-jadvaldan ko'rish mumkin.

5-jadvaldan ko’rinib turibdiki, bug’doyni sotishdan olingan sof pul tushumi tahlil etilayotgan davrda 121729 ming so’mga oshgan. Shu jumladan sotilgan bug’doy miqdorining 2496 s.ga oshishi tufayli sof pul tushumi hajmi 102336 ming so’mga oshgan, o’rtacha sotish bahosining 1500 so’mga oshishi natijasida 19393 ming summa ko’paygan.

2-Jadval

Sof pul tushumi hajmining omilli tahlili

№	Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi miqdori va bazis yilidagi bahosi bo’yicha	Hisobot yili	Farqi (+,-)	Shu jumladan o’zgarishi	
						miqdor hisobiga	Baho hisobiga
1	Sotilgan bug’doy,s	10433	12929	12929	+2496	x	x
2	1 s bahosi, so’m	41000	41000	42500	+1500	x	x
3	Sof tushum, ming so’m	427753	530089	549482	121729	-+102336	+19393

6.3. Sotilgan mahsulotlar sifatini tahlil qilish uslubi

Mahsulot sifati ma’lum ko’rsatgichlar yordamida ifodalanadi. Masalan, paxtaning sifati uning navlari bilan, donning sifati uning sinflari bilan, qoramol go’shtining sifati semizlik kategoriyalari (yuqori, o’rta, o’rtadan past va oriq kategoriyalari) bilan, sutning sifati uning yog’lilik darajasi bilan ifodalanadi. Shunday tasnifiy belgilar boshqa qishloq xo’jalik mahsulotlarida ham mavjud. Mahsulot sifatining oshgan yoki kamayganligini aniqlash uchun avvalo uning sifatini ifodalovchi o’rtacha ko’rsatkichni (koeffisiyentni) hisoblab olish zarur.O’rtacha koeffisiyentlar yordamida mahsulot sifatining dinamikasini (yoki rejasining bajarilishini) qiyoslash orqali tahlil qilinadi.

Mahsulot sifatining oshishi o’z navbatida sotilgan mahsulot miqdori va hajmining oshishiga hamda foydaning ko’payishiga va rentabellik darajasining oshishiga olib keladi. Mahsulot sifatining oshishi unga bo’lgan talabning oshishiga sababchi bo’ladi. Mahsulot sifatining oshishi bozorda raqobat kurashida yutib chiqish yoki o’z mavquyeini ushlab turish imkoniyatini yaratadi. Sifatli mahsulot bozorda yuqori baholarda sotilib, qo’shimcha daromad olib kelish manbaiga aylanadi.

Mahsulot sifatining tahlilini sotilgan paxta misolida ko’rib chiqamiz.

Sotilgan paxta sifati o’rtacha navlik koeffisiyenti va o’rtacha sotish bahosi koeffisiyenti ko’rsatkichlari bilan ifodalanadi.

O’rtacha navlik koeffisiyeti qanday aniqlanadi? Sotilgan paxtaning har bir navi bo’yicha hisoblangan qiymatlarining jami summasini jami paxtaning birinchi nav bo’yicha hisoblangan qiymatining jami summasiga bo’lish orqali o’rtacha navlik koeffisiyeti aniqlanadi:

$$\overline{KN} = \frac{\sum(\sum q_i * s_i * p_i)}{\sum q_i * p1_i}$$

Bunda$\sum q_i$ −sotilgan jami paxta miqdori;

s_i −har bir paxta navning salmog’i (hissasi), koeffisiyent hisobida;

$p1_i$ − birinchi navning bahosi;

p_i − har bir navga tegishli bo’lgan sotish bahosi;

Hisobot yilidagi o’rtacha navlik koeffisiyentini bazis yilidagi o’rtacha navlik koeffisiyentiga solishtirib, paxta sifatining oshgan yoki pasayganligi aniqlanadi.

$$\frac{\sum(\sum q_1 s_1 p_1)}{\sum q_1 p1_1} - \frac{\sum(\sum q_0 s_0 p_0)}{\sum q_0 p1_0} = \pm\Delta_{kn}$$

Sotilgan mahsulot sifatining o’zgarishi pul tushumi hajmining o’zgarishiga hamda o’rtacha sotish bahosining o’zgarishiga sababchi bo’ladi.

Pul tushumi hajmining o’zgarishiga mahsulot sifati o’zgarishining ta’sirini aniqlash uchun «Hisobot yilida shu yil navlik darajasi va bazis yilidagi baho bo’yicha hisoblangan pul tushumi» hajmidan «Hisobot yilida bazis yilidagi navlik darajasi va bazis yilidagi baho bo’yicha hisoblangan pul tushumi» hajmini chegirib tashlash kerak:$\sum(\sum q_1 s_1 p_0) - \sum(\sum q_1 s_0 p_0) = \pm\Delta_{kn}$

Paxta sifati o’zgarishining o’rtacha sotish bahosining o’zgarishiga ta’sirini aniqlash uchun sifat o’zgarishi hisobiga olingan pul tushumi hajmini hisobot yilida sotilgan mahsulotning jami miqdoriga bo’lishi kerak

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Yalpi hosilning o’zgarishiga necha omil ta’sir qiladi? Ular qaysilar?

2. Yalpi hosilning o’zgarishiga hosildorlik darajasi o’zgarishining ta’siri qanday aniklanadi?

3. Sof pul tushumi hajmining o’zgarishiga necha omil ta’sir qiladi va ular kaysilar?

Mustaqil ish topshiriqlari. 2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib, bug’doyni sotishdan olingan sof pul tushumi dinamikasining omilli tahlilini “Ko’rsatkichlar farqi”usuli yordamida amalga oshiring va vazifa yechimiga pul tushumi hajmini ko’paytirish imkoniyatlarini ko’rsatib, xulosa yozing.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: “Voris” nashriyoti, 2012 yil

7-mavzu. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligini tahlil qilishning uslubi.

Dars o’quv maqsadi. Dars o’quv maqsadi bo’lib, mehnat resurslari bilan taminlanish darajasi va . Ish vaqti fondidan foydalanish ahvolining tahlili hamda mehnat unumdorligi ko’satkichlarini hisoblash va ularning o’zgarishini omilli tahlil qilish usulllarining mazmun mohiyatini yoritish va talabalarga ularni o’rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Mehnat resurslari., ish vaqti fondi, mehnat unimdorligi, mehnat unimdorligining bevosita ko’rsatkichi, mehnat unimdorligining bilvosita ko’rsatkichi,hosildorlik,mahsuldorlik.

Maruzani o’tish metodi. Maruza “Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim “ va “Aqliy hujum” metodlarini qo’llash orqali o’tiladi.

Asosiy savollar:

7.1.Mehnat resurslari bilan taminlanish va ulardan foydalanishning tahlili

7.2. Ish vaqti fondidan foydalanishni tahlil etish uslubi

7.3. Mehnat unumdorligi ko’satkichlarini hisoblash va tahlil qilish uslubi

Asosiy o’quv materiallarining qisqacha bayoni

7.1.Mehnat resurslari bilan taminlanish va ulardan foydalanishning tahlili

Korxonalar iqtisodiyotining rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmining ko’payishi va samaradorligining oshishi ko’p omillarga va shu jumladan mehnat resurslari bilan ta’minlanish va ulardan foydalanish darajasiga ham bog’liqdir.

Xo’jalikning mehnat resurslari bilan (ya’ni ishchi kuchi bilan) ta’minlanish darajasining tahlili qiyoslash usuli orqali amalga oshiriladi.Hisobot yilidagi mavjud haqiqiy ishlovchilar sonini talab qilinadigan soniga yoki bazis yilidagi soniga solishtirib, ta’minlanish darajasi aniqlanadi. U mutlaq va nisbiy ko’rsatkichlarda ifodalanadi.

Xo’jalikning mehnat resurslari bilan ta’minlanish ahvolini tahlil qilishda xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan bo’shatish va ularning qo’nimsizlik ahvoliga alohida e’tibor beriladi.

Mehnat resurslari bilan ta’minlanish darajasi me’yor atrofida bo’lsa, albatta ishlab chiqarishga ijobiy ta’sir qiladi, ayniqsa, mehnat resurslaridan foydalanish samarali bo’lsa, ishlab chiqarishning rivojlanishiga, mehnat unumdorligining oshishiga sababchi bo’ladi.

Mehnat resurslaridan foydalanish quyidagi ko’rsatkichlar orqali ifodalanadi:

1. o’rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni (K);
2. o’rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan soatlari soni (S);
3. Ish kunining o’rtacha davomiyligi (D);
4. Ish vaqti fondi (soat hisobida).

Ushbu ko’rsatkichlar orqali mehnat resurslaridan foydalanish koeffisiyentlari aniqlanadi va ularni o’zaro solishtirilib, tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi. Mehnat resurslaridan foydalanishning umumlashtiruvchi ko’rsatkichi bo’lib, **ish vaqti fondi** hisoblanadi.

Qancha ish vaqti yo’qotilgan, qancha ishchi kuchi bo’yicha yetishmovchilik sodir etilgan degan savollarga javob berish uchun ish vaqti fondidan foydalanish ahvolining tahlilini amalga oshirish zarur.

7.2. Ish vaqti fondidan foydalanishni tahlil etishning uslubi

Tahlil hisobot yilidagi ish vaqti fondini bazis yilidagi ish vaqti fondiga solishtirib,o’zgarishini aniqlashdan boshlanadi:

$$\boldsymbol{T_1K_1D_1 - T_0K_0D_0 = \pm\Delta_{tkd}}$$

Ish vaqti fondining o’zgarishiga quyidagi uch omil ta’sir qiladi:

1) ishlovchi xodimlarning o’rtacha yillik sonining (T) o’zgarishi;

2) bir ishlovchining o’rtacha ishlagan kunlari sonining (K) o’zgarishi;

3) ish kuni davomiyligining (D) o’zgarishi (soat hisobida);

Ushbu omillarning ish vaqti fondining o’zgarishiga ta’sirini aniqlashdan oldin ish vaqti fondini ifodalovchi quyidagi 4 ta zanjirli bog’lanish ko’rsatkichi aniqlab olinadi:

$$\boldsymbol{I.\ T_0K_0D_0}$$
$$\boldsymbol{II.T_1K_0D_0}$$
$$\boldsymbol{III.T_1K_1D_0}$$
$$\boldsymbol{IY.T_1K_1D_1}$$

Ish vaqti fondining o’zgarishiga omillar tasiri:

1.ishlovchilarning o’rtacha soni o’zgarishining tasiri:

$$\boldsymbol{T_1K_0D_0 - T_0K_0D_0 = \pm\Delta_t}$$

2.bir ishchining ishlagan kunlari soni o’zgarishining tasiri:

$$\boldsymbol{T_1K_1D_0 - T_1K_0D_0 = \pm\Delta_k}$$

3. ish kuni davomiyligi o'zgarishining tasiri:

$$T_1K_1D_1 - T_1K_1D_0 = \pm\Delta_d$$

Omillar tasirlarining yig'indisi ish vaqti fondining o'zgarishiga teng kelishi kerak: $\Delta_t \pm \Delta_k \pm \Delta_d = \pm\Delta_{tkd}$. Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, ish vaqti fondidan foydalanishni yaxshilash imkoniyatlari ko'rsatilib,xulosa qilinadi.

7.3. Mehnat unumdorligi ko'satkichlarini hisoblash va tahlil qilish uslubi

Mehnat unimdorligi deganda aniq vaqt birligi (1-kishi-soat, 1-kishi-kuni) hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori (xajmi) yoki bajarilgan ish hajmi tushuniladi

Mehnat unimdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar orqali ifodolanadi:

1.Bevosita ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich 1 kishi-soat,1 kishi-kuni va o'rtacha 1 kishi hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori bilan ifodalanadii: $v = \frac{H}{T}$

2.Bilvosita ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich yetishtirilgan mahsulotning bir birligi uchun sarf bo'lgan vaqt(kishi-soat, kishi-kuni) bilan ifodalanadi: $t = \frac{T}{H}$

Bunda, H– hosildorlik (mahsuldorlik) darajasi;

T- 1 gektar ekin maydoniga (1 bosh molga) sarf bo'lgan kishi-soat, kishi kuni;

v -1 kishi-soat, kishi-kuni hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori.,

t -1s. mahsulot uchun sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kuni)

Hisobot yilidagi mehnat unumdorligini bazis yilidagi darajasiga solishtirib,o'zgarishi, ya'ni oshgan yoki kamayganligi aniqlanadi: $\frac{H_1}{T_1} - \frac{H_0}{T_0} = \pm\Delta_{TH}$

Ushbu o'zgarishga quyidagi ikki omil ta'sir qiladi:

1. 1 ga ekin maydoni(1 bosh mol)ga sarf bo'lgan vaqtning o'zgarishi;
2. Hosildorlik (mahsuldorlik) darajasining o'zgarishi

.Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli mehnat unumdorligi» ko'rsatkichini aniqlab,olish zarur:$v_{sh} = \frac{H_0}{T_1}$

Omillarning ta'sirini aniqlash uchun «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalandik

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga 1 gektar ekin maydoniga sarf bo'lgan vaqt o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun, shartli mehnat unumdorligidan bazis yilidagi mehnat unumdorligini chegirib tashlash kerak: $\frac{H_0}{T_1} - \frac{H_0}{T_0} = \pm\Delta_T$

Mehnat unumdorligining o’zgarishiga hosildorlik darajasi o’zgarishining ta’sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mehnat unumdorligidan shartli mehnat unumdorligini chegirib tashlash kerak: $\frac{H_1}{T_1} - \frac{H_0}{T_1} = \pm\Delta_H$

Endi, paxta yetishtirish bo’yicha mehnat unumdorligining tahlilini uning bevosita ko’rsatkichi asosida ko’rib chiqamiz.

3-jadval

Paxtachilikda mehnat unumdorligi dinamikasining omilli tahlili.

.r	Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi mehnat sarfi va bazis yilidagi hosildorlik bo’yicha	Hisobot yili	o’zgarishi (+,-)
.	1ga kishi-soat sarfi	866	822	822	+44
2.	Hosildorligi, (s/ga)	22,5	22,5	23,9	+ 1,4
3.	1 k/s ga paxta, kg Shu jumladan:	2,60	2,74	2,91	+ 0,31
	a) 1ga mehnat sarfi ning o’zgarishi hisobiga	x	x	x	+ 0,14
	b) hosildorlikning o’zgarishi hisobiga	x	x	x	+ 0,17

Mehnat unumdorligi bevosita ko’rsatkichlarining 2 va 3 turlarining tahlili ham yuqorida keltirilgan usul bo’yicha amalga oshiriladi. Shuning uchun ularga to’xtalmadik.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Mexnat resurslari bilan ta’minlanish koeffisiyenti qanday aniqlanadi? Uning mazmuni nimadan iborat?

2.Mehnat unumdorligi deb nimaga aytiladi? Tushuntiring.

3.Mehnat unumdorligining o’zgarishiga hosildorlik darajasi o’zgarishining ta’siri qanday hisoblanadi?. Tushuntiring.

5.Mustaqil ish topshiriqlari. Paxtachilikda mehnat unumdorligining omilli tahlilini uning bevosita ko’rsatkichi bo’yicha 3-jadvalda keltirilgan malumotlar asosida indeks usulini qo’llab,amalga oshiring.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: Voris nashriyoti, 2012 yil

8-mavzu. Yer-suv resurslari va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini nahlil qilish uslubi

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, yer-suvdan va asosiy fondlardan foydalanish samaradorlik korsatkichlarini hisoblash va ularning o'zgarishini omilli tahlil qilish usulllarining mazmun mohiyatini yoritish va talabalarga ularni o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar.. Yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, kadastr maydon, 1 gektarga sarf bo'lgan suv hajmi, yerdan foydalanish samaradorligi, suvdan foydalanish samaradorligi, fond qaytimi,fond sig'imi, fond rentabelligi,

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

8.1.Yerdan foydalanish samaradorlik korsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish uslubi

8.2.Suvdan foydalanish samaradorligini hisoblash va nahlil qilish uslubi

8.3.Asosiy fondlardan foydalanish samaradorlik korsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish uslubi

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni

8.1 Yerdan foydalanish samaradorligik korsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish uslubi

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yerdan foydalanish samaradorligi deganda nima tushuniladi?Yerdan foydalanish samaradorligi deganda bir gektar kadastr maydon hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi tushuniladi. Buni quyidagicha hisoblash mumkin:

$$Y_{FS} = \frac{\sum YM, YD, SD}{KM}$$

Bunda, Y_{FS} −yerdan foydalanish samaradorligi darajasi;

ΣYM-yalpi mahsulot., ΣYD-yalpi daromad.,

ΣSD-sof daromad., KM-kadastr maydon .

Yerdan foydalanish samaradorligining tahlilini 1 ga kadastr maydon hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot misolida ko'rib chiqamiz. Birinchi navbatda, yerdan foydalanish samaradorligining umumiy o'zgarishi aniqlanadi. Buning uchun hisobot

yilidagi yerdan foydalanish samaradorligidan bazis yilidagi samaradorligini chegirib tashlash kerak: $\frac{\sum \mathbf{YM_1}}{\mathbf{KM_1}} - \frac{\sum \mathbf{YM_0}}{\mathbf{KM_0}} = \pm \Delta_{\mathbf{KM,YM}}$

Ushbu o'zgarish ,bevosita ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1) Kadastr maydonining o'zgarishi hisobiga);
2) Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga;

. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli yerdan foydalanish samaradorligi **»** ko'rsatkichini aniqlab olish zarur: $\frac{\sum \mathbf{YM_0}}{\mathbf{KM_1}}$**.**

Yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga yer maydoni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «Shartli samaradorligi» darajasidan bazis davrdagi samaradorligi darajasini chegirib tashlash kerak: $\frac{\sum \mathbf{YM_0}}{\mathbf{KM_1}} - \frac{\sum \mathbf{YM_0}}{\mathbf{KM_0}} = \pm \Delta_{\mathbf{KM}}$

Yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yerdan foydalanish samaradorligi darajasidan shartli samaradorligi darajasini chegirib tashlash kerak: $\frac{\sum \mathbf{YM_1}}{\mathbf{KM_1}} - \frac{\sum \mathbf{YM_0}}{\mathbf{KM_1}} = \pm \Delta_{\mathbf{YM}}$

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yigindisi yerdan foydalanish samaradorligining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{\mathbf{KM}} \pm \Delta_{\mathbf{YM}} = \pm \Delta_{\mathbf{KM,YM}}$$

Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, yerdan foydalanish samaradorligini ya'nada oshirish imkoniyatlari ko'rsatilib xulosa qilinishi kerak

. Yerdan foydalanish samaradorligining boshqa ko'rsatkichlarining tahlili ham birinchi ko'rsatkich tahlilidan farq qilmaydi.Tahlil usuli bir xildir. Ularning tahlilini,hurmatli talaba o'zingiz mustaqil bajaring.

8.2.Suvdan foydalanish samaradorligini hisoblash va nahlil qilish uslubi

O'simlikchilikda ishlab chiqarishning rivojlanishida suvdan samarali foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Suvdan foydalanish samaradorligi deganda nima tushuniladi va u qanday aniqlanadi? 1 ming M^3 sarf bo'lgan suv hajmi hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori suvdan foydalanish samaradorligi deb tushuniladi.Buni aniqlash(S_{sf}) uchun 1 gektardan olingan mahsulot miqdorini,ya'ni hosildorlikni (H) 1 gektarga sarf bo'lgan suv hajmiga (SS) bo'lish kerak: $\mathbf{S_{sf}} = \frac{\mathbf{H}}{\mathbf{SS}}$

Hisobot yilidagi suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichidan bazis yilidagi samaradorlik ko'rsatkichini chegirib tashlash orqali uning umumiy o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi**:** $\frac{\boldsymbol{H_1}}{\boldsymbol{SS_1}} - \frac{\boldsymbol{H_0}}{\boldsymbol{SS_0}} = \pm \Delta_{\boldsymbol{ss,h}}$

Ushbu o'zgarishga bevosita ikki omil ta'sir qilgan:

1) 1 gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan suv hajmining o'zgarishi;

2) 1gektar ekin maydonidan olingan mahsulot mivdorining o'zgarishi.

Ushbu omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlaymiz. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin "Sartli suvdan foydalanish samaradorligi" ko'rsatkichi aniqlab, olinadi:$\frac{H_0}{SS_1}$**.** Shundan keyin omillarning ta'sirini aniqlansh mumkin.

1 ga maydonga sarf bo'lgan suv hajmi o'zgarishining ta'siri: $\frac{H_0}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \pm\Delta_{ss}$

2.Hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'siri: $\frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_1} = \pm\Delta_h$

Omillar ta'sirlarining yig'indisi suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga teng kelishi kerak: $\Delta_{ss} \pm \Delta_h = \pm\Delta_{ss,h}$

Shundan keyin omillar tasiriga baho beriladi va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatilib, ilmiy asoslangan xulosa qilinfdi.

8.3.Asosiy fondlardan foydalanish samaradorlik korsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish uslubi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishning rivojlanishi va samaradorligining oshishi ko'p jihatdan asosiy ishlab chiqarish vositalari (fondlari)dan foydalanish darajasi ga bog'liq bo'ladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning hisobi:

1. Fond qaytimi**:** $\boldsymbol{FQ} = \frac{YM}{AIF}$
2. Fond sigimi**:** $\boldsymbol{FS} = \frac{AIF}{YM}$
3. Fond rentabelligi**:** $\boldsymbol{FR} = \frac{SF}{AIF}$

Biz bu yerda fondlardan foydalanish samaradorligining tahlilini fond qaytimi ko'rsatkichi misolida ko'rib chiqamiz Tahlilni solishtirish va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalanib, amalga oshirdik.

Fond qaytimi darajasining umumiy o'zgarishi**:**.$\frac{YM_1}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_0} = \pm\Delta_{AIF,YM}$

Fond qaytimi darajasining o'zgarishiga omillar tasirini aniqlash**:**.

1.Asosiyfondlar hajmi o'zgarishining tasiri**:** $\frac{YM_0}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_0} = \pm\Delta_{AIF}$

2.Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining tasiri: $\frac{YM_1}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_1} = \pm\Delta_{YM}$

Omillar tasirlarining yig'indisi fond qaytimining o'zgarishiga teng kelishi kerak: $\Delta_{AIF} \pm \Delta_{YM} = \pm\Delta_{AIF,YM}$

Nazorat savol va topshiriqlar

1. Yerdan foydalanish samaradorligi darajasi qanday aniqlanadi va u nimani bildiradi?
2. Suvdan foydalanish samaradorligi nimani bildiradi va u qanday hisoblanadi?
3.fond qaytimi qanday hisoblanadi va uning o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib,suvdan foydalanish samaradorligini tahlil qiling va baho berib,xulosa yozing.Xulosada suvdan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatini ko'rsating.

4-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi(+,-)
Paxta hosildorligi,s/ga	22.0	25.5	+3.5
1 ga sapf bo'lgan suv hajmi,ming M^3	10.0	9.0	-1.0

Eslatma. Tahlilni "Zanjirli bog'lanish" usuli orqali amalga oshiring.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: "Voris" nashriyoti, 2012 yil

9-mavzu.Mehnat buyumlaridan foydalanish ko’satkichlarini tahlil qilish uslubi.

Dars o’quv maqsadi. Dars o’quv maqsadi bo’lib, mehnat buyemlari bilan taminlanish va ulardan foydalanish samaradorlik korsatkichlarinini hisoblash hamda ularning o’zgarishini omilli tahlil qilish usulllarining mazmun- mohiyatini yoritish va talabalarga o’rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Mehnat buyumlari. Moddiy material boyliklar. Moddiy resurslar bilan ta’minlanish. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi. Moddiy resurslar qaytimi. Moddiy resurslar sig’imi. Moddiy resurslar rentabelligi.

Maruzani o’tish metodi. Maruza “Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim “ va “Aqliy hujum” metodlarini qo’llash orqali o’tiladi.

Asosiy savollar

9.1. Mehnat buyemlari bilan taminlanish ahvolini tahlil etish uslubi

9.2. Mehnat buyemlaridan foydalanish ko’rsatkichlarinini hisoblash usullari

9.3. Mehnat buyemlardan foydalanish ko’rsatkichlarinini tahlil etish usullari

Asosiy o’quv materiallarining qisqacha bayoni

9.1. Mehnat buyemlari bilan taminlanish ahvolini tahlil etish uslubi

Korxonada ishlab chiqarish hajmining o’zgarishiga boshqa omillar bilan bir qatorda mehnat buyemlari bilan ta’minlanish va ulardan foydalanish darajasi ham ta’sir qiladi. Mehnat buyemlari bo’lib moddiy resurslar hisoblanadi.

Moddiy resurslar bilan ta’minlanish darajasini aniqlash uchun korxonada mavjud bo’lgan moddiy resurslarning xaqiqiy hajmini (miqdorini) me’yor bo’yicha talab qilinadigan hajmiga (miqdoriga) bo’lish kerak. Ushbu ko’rsatkich xo’jalik bo’yicha ham, har bir resursning turi (urug’, o’g’it, va boshqalar) bo’yicha ham aniqlanadi.

Moddiy resurslar bilan ta’minlanish ahvolining tahlili solishtirish, ko’rsatkichlar farqi, zanjirli bog’lanish usullari yordamida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda ular bilan ta’minlanish darajasining umumiy o’zgarishi, so’ngra ushbu o’zgarishga omillarning ta’siri aniqlanib, moddiy resurslar bilan ta’minlanish darajasiga baho beriladi. Shundan so’ng moddiy resurslardan foydalanish darajasining tahlili amalga oshiriladi.

9.2. Mehnat buyumlaridan foydalanish korsatkichlarinini hisoblash usullari

Mehnat buyumlaridan **(**Moddiy resurslardan) foydalanish samaradorlik ko’rsatkichlari va ularning hisobi:

1. Moddiy resurslar qaytimi: $\boldsymbol{M_q = \frac{YM}{MX}}$

2. Moddiy resurslar sig'imi: $\boldsymbol{M_s = \frac{MX}{YM}}$

3. Moddiy resurslar rentabelligi: $\boldsymbol{M_r = \frac{SF}{MX}}$

4. Moddiy resurslar xarajati koeffisiyenti: $\boldsymbol{M_{xk} = \frac{MX_1}{MX_{sh}}}$

5. Moddiy xarajatlarning tannarxdagi hissasi: $\boldsymbol{M_{th} = \frac{MX}{TN}}$

Bunda,YM-Yalpi mahsulot hajmi.,

MX-Moddiy xarajatlar hajmi.,

SF-Sof foyda summasi.,

TN-Mahsulot tannarxi summasi.,

MX_{sh}-Shartli moddiy xarajatlar summasi.

9.3. Mehnat buyemlardan foydalanish korsatkichlarinini tahlil etish uslubi

Mehnat buyemlardan foydalanish samaradorligi deganda moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini tushunmoq kerak. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorliri ko'rsatkichlarining tahlilini , moddiy resurslar qaytimi (materiallar qaytimi) koeffisiyentining tahlili misolida ko'rib chiqamiz.

Hisobot yilidagi materiallar qaytimi koeffisiyentini bazis yilidagi qaytimi koeffisiyentiga solishtirib o'zgarishi aniqlanadi:

$$\boldsymbol{\frac{YM_1}{MX_1} - \frac{YM_0}{MX_0} = \pm\Delta_{MX,YM}}$$

Ushbu o'zgarish bevosita quyidagi omillar ta'siri ostida paydo bo'lgan:

1/Moddiy (material) xarajatlar hajmining o'zgarishi

2.Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi;

Omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlash zarur.

Materiallar qaytimining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli materiallar qaytimi»ni aniqlab olish kerak: $\boldsymbol{\frac{YM_0}{MX_1}}$

Shundan so'ng materiallar qaytimining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlanadi:

Moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'siri: $\boldsymbol{\frac{YM_0}{MX_1} - \frac{YM_0}{MX_0} = \pm\Delta_{MX}}$

Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'siri: $\boldsymbol{\frac{YM_1}{MX_1} - \frac{YM_0}{MX_1} = \pm\Delta_{YM}}$

Endi, materiallar qaytimining omilli tahlilini 5-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz

Materiallar qaytimining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{YM_1}{MX_1} - \frac{YM_0}{MX_0} = \frac{75311}{7172.4} - \frac{64404}{6314.1} = 10.5 - 10.2 = +0.3\ сўм$$

Demak,materiallar qaytimi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 0.3 so'mga yoki 2.9 % ga oshgan.

Ushbu o'zgarish quyidagi omillar hisobiga sodir bo'lgan:

1.Material xarajtlar hajmining oshishi materiallar qaytimining o'zgarishiga salbiy tasir qilib, uni darajasini 1.2 so'mga yoki 11.8% ga kamayishiga sababchi bo'lgan:

$$\frac{YM_0}{MX_1} - \frac{YM_0}{MX_0} = \frac{64404}{7172.4} - \frac{64404}{6314.1} = 9.0 - 10.2 = -1.2\ сўм$$

5-jadval

Materiallar qaytimining omilli tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi MX hajmi va bazis yilidagi YM hajmi bo'yicha	Hisobot yili	o'zgari-shi (+,-)
1.	Yalpi mahsulot, ming so'm	64404	64404	75311	+10907
2	Sof foyda,ming so'm	2600	x	2850	+250
3	Ishlab chiqarish xarajatlari,m.so'm	13700	x	14200	+500
4.	Moddiy xarajatar, ming so'm	6314.1	7172.4	7172.4	+858.3
5.	Materiallar qaytimi, so'm	10,2	9.0	10,5	+0.3

2.Yalpi mahsulot hajmining oshishi materiallar qaytimining o'zgarishiga ijobiy tasir qilib,uni darajasini 1.5 so'mga yoki 16.7% ga oshishiga sababchi bo'lgan:

$$\frac{YM_1}{MX_1} - \frac{YM_0}{MX_1} = \frac{75311}{7172.4} - \frac{64404}{7172.4} = 10.5 - 9.0 = +1.5\ сўм$$

Demak, ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki,materiallar qaytimining o'zgaishiga material xarajtlar hajmining oshishi salbiy tasir qilib,uni 11.8% ga kamayishiga,yalpi mahsulot hajmining oshishi esa ijobiy tasir qilib, uni 16.7% ga oshishiga sababchi bo'lgan. Demak, materiallar qaytimi darajasini oshirishning asosiy imkoniyati bo'lib, moddiy xarajatlar hajmini keskin kamaytirish hisoblanadi.

Moddiy resurslardan foydalanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, **materiallar sig'imi** hisoblanadi.Tahlil indeks usuli orqali amalga oshirildi.

Bazis yilidagi materiallar sig'imi ko'rsatkichini hisobot yilidagi (yoki rejadagi) ko'rsatkichiga solishtirib, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining umumiy o'zgarishi aniqlanadi:$\frac{MX_0}{YM_0} \div \frac{MX_1}{YM_1} = \pm\Delta_{MX,YM}$

Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1.Xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'siri:$\frac{MX_0}{YM_0} \div \frac{MX_1}{YM_0} = \pm\Delta_{MX}$

2.Yalpi mahsulot hajmi o’zgarishining ta’siri:$\frac{MX_1}{YM_0} \div \frac{MX_1}{YM_1} = \pm\Delta_{YM}$

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Moddiy resurslardan foydalanish samaradorlik ko’rsatkichlarini hisoblash tartibi.

2.Moddiy resurslar sig’imi deganda nima tushuniladi? U qanday aniqlanadi?

3. Moddiy resurslar qaytimi o’zgarishiga necha omil tasir qiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining tahlilini materiallar qaytimi korsatkichi asosida,5-jadvaldaga ma’lumotlardan foydalanib, “Indeks”usulini qo’llab, bajaring. Tahlil natijasiga xulosa yozib,unda mavjud imkoniyatlarni korsating.Tahlilda quyidagi indekslardan foydalaning:

1. Materiallar qaytimi indeksi: $\frac{YM_1}{MX_1} \div \frac{YM_0}{MX_0} = \pm\Delta_{MX,YM}$

2.Moddiy xarajatlar indeksi: $\frac{YM_0}{MX_1} \div \frac{YM_0}{MX_0} = \pm\Delta_{MX}$

3.Yalpi mahsulot indeksi: **:** $\frac{YM_1}{MX_1} \div \frac{YM_0}{MX_1} = \pm\Delta_{YM}$

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

10-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tahlil qilish uslubi

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini omilli tahlil qilish usulllarining mazmun mohiyatini yoritish va talabalarga ularni o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar.. Ishlab chikarish xarajatlari, tannarx, shartli tannarx, tannarx moddalari, 1 gektar ekin maydoni xarajati, 1 bosh mol xarajati, hosildorlik, mahsuldorlik, miqdoriy omillar, sifatiy omillar.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

10.1.Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tahlil qilishning ahamiyati,maqsadi va vazifalarI

10.2. Ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasini tahlil qilish uslubi

10.3. Mahsulot tannarxini tahlil qilish uslubi. Mahsulot tannarxi moddalarining tahlili

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni

10.1. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tahlil qilishning ahamiyati,maqsadi va vazifalari

Foydani ko'paytirish va rentabellikni oshirish uchun xarajatlarni kamaytirish va tannarx darajasini pasaytirish imkoniyatlarni aniqlash choralarini ko'rish zarur.. Shu nuqtai nazardan tahlil katta ahamiyatga ega.

Tahlilning maqsadi bo'lib, nima hisoblanadi?Tahlilning maqsadi bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini va tannarx darajasini omilli tahlil qilish asosida ularning hajmini kamaytirish va darajasini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Ushbu maqsadga tahlil quyidagi **vazifalar**ni amalga oshirish orqali erishadi:

1.Ishlab chiqarish xarajatlari hajmini omilli tahlil qilish va omillar tasiriga baho berish.,

2. Ishlab chiqarish xarajatlarini har bir xarajat elementlari bo'yicha o'zgarishini omilli tahlil qilish va baho berish;

3. Mahsulot tannarxi darajasini o'rganish va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini aniqlab, baho berish;

4Mahsulot tannarxi tarkibi va tarkibiy tuzilishini har bir xarajat moddalari bo'yicha o'zgarishini omilli tahlil qilish va baho berish;

5.Tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

10.2. Ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasini

tahlil qilish uslubi

Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o'zgarishining Omilli tahlili Zanjirli bog'lanish va Indeks usullari orqali amalga oshiriladi.Biz bu yerda Indeks usuli orqali tahlil qilish tartibiga to'xtaldik.

Ishlab chiqarish xarajatlari hajmining umumiy o'zgarishi xarajatlar umumiy indeksi orqali aniqlanadi: $\mathbf{I_{qz}} = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_0 z_0}$

Xarajatlar hajmining o'zgarishiga omillar tasirini maqsulot fizik miqdori va tannarx umumiy indekslari bilan aniqlash mumkin:

1 Maqsulotlar fizik miqdori o'zgarishining tasiri: $\mathbf{I_q} = \frac{\sum q_1 z_0}{\sum q_0 z_0}$

2.Mahsulotlar tannarxi o'zgarishining tasiri: $\mathbf{I_z} = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1 z_0}$

Bu yerda, $\mathbf{q_1, q_0}$- mos holda bazis va hisobot yillarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning fizik miqdori;

$\mathbf{Z_1, z_0}$-mos holda hisobot va bazis yillarida yetishtirilgan bir birlik mahsulot tannarxi.

Uhbu indeklar orasida to'liq uzviy bog'lislik mavjud.Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\sum q_1 z_0}{\sum q_0 z_0} \times \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1 z_0} = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_0 z_0}$$

Tenglik aniqlangandan keyin omillar tasiriga baho beriladi va xarajatlar halmini kamaytirish imkoniyatlari ko'rsatilib, xulosa qilinadi

10.3. Mahsulot tannarxini tahlil qilish uslubi. Mahsulot tannarxi moddalarining tahlili

Mahsulot tannarxi korxona xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkichni to'g'ri hisoblash va tahlil qilish asosida uni kamaytirish yo'llarini ko'rsatish iqtisodiyot nuqtai nazaridan katta ahamiyatga egadir.

Tannarx deganda nima tushuniladi? Tannarx deganda tayyor mahsulotni yetishtirish uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarining pul shaklida ifodalanishi tushuniladi

Tannarx o'z navbatida jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Bu bo'limda bir birlik mahsulot tannarxini tahlil qilish tartibi yoritildi.

Tahlil quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda 1 s mahsulot tannarxining umumiy o'zgarishi aniqlanadi. Buni aniqlash uchun hisobot yilidagi 1 s. mahsulot tannarxidan bazis yilidagi 1 s. mahsulot tannarxi chegirib tashlanadi:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \pm\Delta_{ix,h}$$

Ushbu o'zgarish quyidagi omillar ta'siri ostida yuzaga keladi:

1) 1 gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining(IX) o'zgarishi hisobiga;

2) ekin hosildorligi darajasining(H) o'zgarishi hisobiga.

Omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlaymiz. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin shartli tannarx aniqlab olinadi: $\frac{\mathbf{IX_1}}{\mathbf{H_0}}$

Tannarx o'zgarishiga omillar ta'siri:

1) 1 ga ishlab chiqarish xarajati hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{IX_1}{H_0} - \frac{IX_0}{H_0} = \pm\Delta_{ix}$$

2. Ekin hosildorligi darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_1}{H_0} = \pm\Delta_h$$

Endi, mahsulot tannarxining tahlilini paxta tannarxi misolida 6-jadvada ko'rib chiqamiz

6-jadval

1 s. paxta tannarxining omilli tahlili.

T.r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi 1 ga xarajati va bazis yilidagi hosildorlik bo'yicha	Hisobot yili	o'zgarishi (+, -)	Sh.j.o'zgarishi	
						1 gektar xarajati hisobiga	Hosildorlik hisobiga
1.	1 gektar xarajati, ming so'm	1980.0	2067.0	2067.0	+87.0	X	X
2.	Hosildorlik, s/ga	22,5	22,5	23,9	+1,4	X	X
3.	1 s. paxta tannarxi, so'm	88000	91867	86500	-1500	+3867	-8367

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1s paxta tannarxi hisobot yilida Bazis yiliga nisban 1500 so'mga kamaygan.

$$\mathbf{\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{2067.0}{23.9} - \frac{1980.0}{22.5} = 86.5 - 88.0 = -1.5 \ \text{ming co'm}}$$

Ushbu o'zgarishga omillar ta'siri:

1-omil.. 1 gektarga sarf bo'lgan xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\mathbf{\frac{IX_1}{H_0} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{2067.0}{22.5} - \frac{1980.0}{22.5} = 91867 - 88000 = +3857 \ \text{ming co'm}}$$

Demak, 1 gektarga sarf bo'lgan xarajatlar hajmining 87 ming so'mga oshishi natijasida 1s paxta tannarxi 3867 so'mga qimmatlashgan.

2-omil. Hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\mathbf{\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_1}{H_0} = \frac{2067.0}{23.9} - \frac{2067.0}{22.5} = 86500 - 91867 = -8367 \ \text{ming co'm}}$$

Demak, hosildorlik darajasining 1.4 sga oshishi natijasida 1s paxta tannarxi 8367so'mga kamaygan(arzonlashgan).

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Ishlab chiqarish xarajatlari deganda nima tushuniladi?

2.Tannarx deganda nima tushuniladi?

3.Tannarx o’zgarishiga qaysi omillar tasir qiladi?Ta’sirini aniqlash tartibini tushuntiring.

Mustaqil ish topshiriqlari. 1 s. paxta tannarxining omilli tahlilini 6- jadvaldaga ma’lumotlardan foydalanib, amalga oshiring. Tahlilda “Indeks”usulidan foydalaning.Buning uchun quyidagi indekslarni aniqlab,tannarx o’zgarishiga baho bering.

1.Tannarx indeksi**:** $\frac{IX_1}{H_1} : \frac{IX_0}{H_0} = \pm\Delta_{ix,h}$

2.Xarajatlar indeksi**:** $\frac{IX_1}{H_0} : \frac{IX_0}{H_0} = \pm\Delta_{ix}$

3.Hosildorlik indeksi**:** $\frac{IX_1}{H_1} : \frac{IX_1}{H_0} = \pm\Delta_{h}$

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: Voris nashriyoti, 2012 yil

11-mavzu. Xojalik moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlarning tahlili

Dars o’quv maqsadi. Dars o’quv maqsadi bo’lib,xo’jalik moliyaviy holatini ifodalovchi moliyaviy barqarorlik va to’lovga qodirlik ko’rsatkichkarini hisoblash va ularni o’zgarishini omilli tahlil qilish usulllarining mazmun mohiyatini yoritish va talabalarga ularni o’rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar Balans, balans-netto, balans aktivi, balans passivi, to’lov mablag’lari, to’lov majburiyatlari, aylanma mablag’lar, o’z aylanma mablag’lari, o’z mablag’lari, moliyaviy borqarorlik, to’lovga qodirlik.

Maruzani o’tish metodi. Maruza “Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim “ va “Aqliy hujum” metodlarini qo’llash orqali o’tiladi.

Asosiy savollar

11.1.Xo’jalik moliyaviy holati tahlilining ahamiyati,maqsadi va vazifalari

11.2.Xo’jalikning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish usuli

11.3.Xo’jalikning to’lovga qodirligini tahlil qilish usuli

Asosiy o’quv materiallarining qisqacha bayoni

11.1. Xo’jalik moliyaviy holati tahlilining ahamiyati,maqsadi va vazifalari

Moliyaviy tahlilning asosiy qismi bo’lib korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy holati ko’rsatkichlar tizimi bilan ifodalanadi, ya’ni moliyaviy barqarorlik, moliyaviy mustaqillik, to’lovga qodirlik, o’z mablag’lari bilan ta’minlanganlik koeffisientlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari holati kabi jihatlarini ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimi bilan ta’riflanadi va tavsiflanadi. Ushbu ko’rsatkichlarni o’rganish va tahlil etish hamda ularning natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi. Shuning uchun ham ushbu ko’rsatkichlarni o’z vaqtida tahlil qilib turish – korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash hamda iqtisodiyotni mustahkamlash uchun shart sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan tahlilning ahamiyati nihoyatda katta va beqiyosdir.

Moliyaviy holat tahlilining maqsadi nimadan iborat?

Tahlilning maqsadi bo'lib, moliyaviy borqarorlik darajasini, to'lovga qodir ahvolini, o'z va qarz mablag'lari bilan ta'minlanish darajasini, moliyaviy mustaqillik ahvolini, debitorlik va kreditorlik qarzlarining muayyan davrga bo'lgan holatini o'rganish asosida korxona moliyaviy holatiga baho berish va uni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatish hisoblanadi.

Tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1.Korxonaning aktivlari, kapitali, majburiyatlari holatini aniqlash va o'zgarishiga baho berish;

2.Moliyaviy ahvolning barqarorligini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;

3.Balans likvidligi ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishini tahlil qilish;

4.Korxonaning to'lovga qodirlik koeffisiyentini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;

5.Moliyaviy koeffisiyentlarni aniqlash va ularning o'zgarishiga baho berish.,

6.Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini o'rganish va baho berish.,

7.Debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o'rganish.

8.Foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish bo'yicha tavsiyalar, takliflar berish.

11.2.Xojalikning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish usuli

Korxona moliyaviy ahvoliga baho berishda quyidagi koeffisentlar ko'proq ishlatiladi.

1. Moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti
2. Moliyaviy mustaqillik koeffisiyenti.
3. To'lovga qodirlik koeffisiyenti .
4. O'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffisiyenti .
5. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffisiyenti .

Biz ushbu bo'limda o'quv dasturiga mos holda moliyaviy borqarorlik koeffisiyentining tahlilini bayon qildik.

Xo'jalikning moliyaviy barqarorligi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi,tahlil etiladi, xulosalar chiqariladi.

Korxonani qay vaqtda moliyaviy barqaror xo'jalik deb atash mumkin?

Korxonaning moddiy aylanma mablag'lari ularni tashkil qiluvchi manbalari bilan to'liq qoplangan taqdirda, uni moliyaviy barqaror xo'jalik deb atash mumkin. Demak, moliyaviy barqarorlik deganda moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy manbalari bilan mavjud bo'lgan tovar – moddiy zaxiralar hajmining qoplanish darajasi tushuniladi

Moliyaviy barqarorlikni quyidagicha ifodalash mumkin**:**

$$TMZ \leq O'AM + BK$$

$$O'AM = O'MM + UMQ - UMA$$

Bunda, TMZ- tovar-moddiy zaxiralar

$O'AM$ –o'z aylanma mablag'lar manbai., BK-Bankning qisqa muddatli kreditlari., $O'MM$-o'z mablag'larning manbai.,UMQ-uzoq muddatli qarzlar., UMA-uzoq muddatli aktivlar

Bunday holatda xo'jalik qisqa muddatli majburiyatlarni to'liq uzish imkoniyatiga ega bo'ladi: $PM + ДQ \geq KQ + BK$

Bunda, PM – Pul mablag'lari., $ДQ$ – debitorlik qarzlari., KQ – kreditorlik qarzlari., BK-Bankning qisqa muddatli kreditlari.

Moliyaviy barqarorlik o'z navbatida quyidagi 4 turga bo'linadi:

1.Mutlaq moliyaviy barqarorlik. Bunda tovar – moddiy zaxiralar hajmidan ularni tashkil qiluvchi asosiy manbalar hajmi ko'p bo'ladi**:**

$$TMZ < O'AM + BK$$

Mutlaq moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti**:** $\frac{O'AM+BK}{TMZ} > 1$

2.Mo'tadil moliyaviy barqarorlik. Bunda tovar – moddiy zaxiralar hajmi ularni tashkil qiluvchi asosiy manbalar hajmiga teng bo'ladi**:**

$$TMZ = O'AM + BK$$

Mo'tadil moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti: $\frac{O'AM+BK}{TMZ} = 1$

3.Nomo'tadil moliyaviy barqarorlik. Bunda tovar – moddiy zaxiralar hajmi ularni tashkil qiluvchi asosiy manbalar hajmidan ko'p bo'ladi**:** $TMZ > O'AM + BK$

Nomo'tadil moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti: $\frac{O'AM+BK}{TMZ} < 1$

Ushbu yetishmovchilikni to'ldirish uchun vaqtincha bo'sh bo'lgan mablaglar jalb qilinadi(ijtimoiy taraqqiyot fondi va boshqalar)

4.Tang(krizis) holidagi moliyaviy ahvol. Bunda xo'jalik yurituvchi sub'yekt sinish(bankrotlik)chegarasida bo'ladi.Bunday holatda xo'jalk ning to'lov mablag'lari (pul mablag'lari,qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari va debitorlik qarzlari summasi) bilan kreditorlik qarzlari va muddati o'tgan qisqa muddatli bank kreditlarini qoplayolmaydi,to'layolmaydi.

Moliyaviy barqarorlik koeffisiyentining tahlilini uning ikkinchi ko'rsatkichi-mo'tadil moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti misolida ko'rib chiqamiz.

Mo'tadil moliyaviy barqarorlik koeffisiyentining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi.Omillar ta'sirini zanjirli bog'lanish usuli orqali amalga oshirdik.Shu maqsadda koeffisiyentning quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olinadi:

1. $\frac{O'AM_0+BK_0}{TMZ_0}$ **2.** $\frac{O'AM_0+BK_0}{TMZ_1}$ **3.** $\frac{O'AM_1+BK_0}{TMZ_1}$ **4.** $\frac{O'AM_1+BK_1}{TMZ_1}$

Koeffisiyentning umumiy o'zgarishi:

$$\frac{O'AM_1 + BK_1}{TMZ_1} - \frac{O'AM_0 + BK_0}{TMZ_0} = \pm\Delta_{tmz,o'am,bk}$$

Koeffisiyent o'zgarishiga omillar ta'siri:

1.Tovar-moddiy zaxiralar hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{O'AM_0 + BK_0}{TMZ_1} - \frac{O'AM_0 + BK_0}{TMZ_0} = \pm\Delta_{tmz}$$

2.O'z aylanma mablag'lari hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{O'AM_1 + BK_0}{TMZ_1} - \frac{O'AM_0 + BK_0}{TMZ_1} = \pm\Delta_{o'am}$$

3.Bankning qisqa muddatli kreditlari hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{O'AM_1 + BK_1}{TMZ_1} - \frac{O'AM_1 + BK_0}{TMZ_1} = \pm\Delta_{bk}$$

Omillar ta'sirlarining yig'indisi mo'tadil moliyaviy barqarorlik koeffisiyentining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{tmz} \pm \Delta_{o'am} \pm \Delta_{bk} = \pm\Delta_{tmz,o'am,bk}$$

11.3.Xojalikning to'lovga qodirligini tahlil qilish usuli

Korxonaning to'lov qodirligi deganda to'lov mablaglari bilan qisqa muddatli majburiyatlarini to'lay olish quvvati tushuniladi.

To'lov mablaglariga pul mablaglari, qimmatli qog'ozlar, debitorlik karzlari, tovar-moddiy zaxiralar kiradi.

Kiska muddatli majburiyatlariga kreditorlik qarzlari, qisqa muddatli kreditlar va qarzlar kiradi.

Tahlilga kirishishdan oldin balans aktivi va passividagi moddalarni maxsus belgilari bo'yicha guruhlarga bo'lib olish zarur.

Balans aktivlari pulga aylanish tezligi bo'yicha quyidagi 4-ta guruhga bo'linadi:

A1 – eng yukori likvidli aktivlar. Bu guruhga korxonaning barcha pul mablag'lari va qisqa muddatli investisiyalari kiradi.

A2 – tez realizasiya etiladigan aktivlar.Ushbu guruhga barcha debitorlik qarzlari kiritiladi.

A3 – Sekinlik bilan realizasiya etiladigan aktivlar.Bu guruhga moddiy ishlab chiqarish zaxiralari kiritiladi.

A4 – qiyinchilik bilan realizasiya etiladigan aktivlar.Bu guruhga «Uzoq muddatli aktivlar» kiritiladi.

Balans passivlari «To'lov muddati darajasi» bo'yicha quyidagi 4-ta guruhga bo'linadi:

P1 – Tezlikda to'lanadigan majburiyatlar. Bu guruhga joriy kreditorlik qarzlari bilan o'z vaqtida qaytarilmagan bank ssudalari kiradi. Joriy kreditorlik qarzlari jami kreditorlik qarzlaridan Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan to'lov muddati uzaytirilgan kreditorlik qarzlarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

P2 – Qisqa muddatli passivlar. Ushbu guruhga muddatida qaytarilmagan ssudalardan tashqari qisqa muddatli kreditlar va qisqa muddatli qarzlar kiradi. Bularning hajmini

aniqlash uchun qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasidan Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan to'lov muddati o'zaytirilgan ssuda qarzlari summasini chegirib tashlash kerak.

P3 – Uzoq muddatli passivlar.Ushbu guruhga uzoq muddatli kreditlar va uzoq muddatli qarzlar kiradi.

P4 – Doimiy passivlar. Bu guruhga balans passivining 1-bo'limidagi barcha moddalar kiritiladi

To'lovga qodirlik ko'rsatkichlar uch turga bo'linadi.

To'lovga qodirlik koeffisiyentlarini hisoblash tartibi

Koeffisiyentlar nomi	Koeffisiyentlarni hisoblash usuli	Ko'rsatkichlarning nomi
1.Mutlaq to'lovga qodirlik koeffisiyenti	$K_{mq} = \frac{A1}{P1 + P2} = 0.5$	A1-Pul mablag'lari va qisqa muddatli investisiyalar P1-Joriy kreditorlik qarzlari. P2-Qisqa muddatli passivlar
2.Oralik to'lovga qodirlik koeffisiyenti	$K_{oq} = \frac{A1 + A2}{P1 + P2} = \geq 1$	A2-Debitorlik qarzlari
3.Joriy to'lovga qodirlik koeffisiyenti	$K_{jq} = \frac{A1 + A2 + A3}{P1 + P2} = \geq$	A3-Sekinlik bilan realizasiya etiladigan aktivlar

Mutlaq to'lovga qodirlik koeffisiyentining tahlili. Ushbu koeffisiyent o'zgarishiga uch guruh omillar ta'sir qiladi:

1.Joriy kreditorlik qarzlari hajmining o'zgarishi (P1)

2.Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasining o'zgarishi (P2)

3.Eng yukori likvidli aktivlar summasining o'zgarishi (A1)

Ushbu omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi 4-ta zanjirli boglanish ko'rsatkichlari aniqlanib olinadi.

I. $\frac{A1_0}{P1_0+P2_0}$, **II.** $\frac{A1_0}{P1_1+P2_0}$, **III.** $\frac{A1_0}{P1_1+P2_1}$, **IY.** $\frac{A1_1}{P1_1+P2_1}$

Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib, mutlaq to'lovga qodirlik koeffisiyentining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash mumkin.

1.Kreditorlik qarzlari o'zgarishining ta'siri: $\frac{A1_0}{P1_1+P2_0} - \frac{A1_0}{P1_0+P2_0} = \pm\Delta_{P1}$

2.qisqa muddatli kreditlar o'zgarishining ta'siri: $\frac{A1_0}{P1_1+P2_1} - \frac{A1_0}{P1_1+P2_0} = \pm\Delta_{P2}$

3.Pul mablag'lari hajmi o'zgarishining ta'sii: $\frac{A1_1}{P1_1+P2_1} - \frac{A1_0}{P1_1+P2_1} = \pm\Delta_{A1}$

Shundan keyin omillarning ta'siriga baho berilib, uni oshirish imkoniyatlari ko'rsatilib,xulosa qilinadi.

Oraliq va joriy to’lovga qodirlik koeffisiyentlarining tahlilini bajarish usullari mutlaq to’lovga qodirlik koeffisiyenti tahlilining usuliga o’xshaydi. Shuning uchun ushbu koeffisiyentlar tahlilini **hurmatli talaba o’zingiz mustaqil bajarining**

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Moliyaviy barqarorlik deganda nima tushuniladi?

2.To’lovga qodirlik koeffisiyenti qanday aniqlanadi va u nimani bildiradi?

3.Mutlaq to’lovga qodirlik koeffisiyentining o’zgarishiga necha omil ta’sir qiladi va ularning ta’siri qanday aniqlanadi?

Mustaqil ish topshiriqlari. Mutlaq moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti**:**

$\frac{O'AM+BK}{TMZ} > 1$,ushbu holatda bo’lsa, to’lov mablag’larining qisqa muddatli kreditlarni qoplay olish darajasi qanday holatda bo’ladi?Shuni mazmunini bayon qiling.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

12-mavzu. Debitorlik - kreditorlik qarzlari va aylanma mablag'lar aylanish koefisiyentining tahlili

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, debitorlik - kreditorlik qarzlarining holatini va ularning aylanuvchanlik koeffisiyentlarini hamda aylanma mablaglar aylanish koeffisenti darajasini omilli tahlil qilish usulllarining mazmun mohiyatini yoritish va talabalarga ularni o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Debitorlar, kreditorlar, debitorlik karzlari, kreditorlik karzlari, debitorlik karzlarining aylanuvchanlik koeffisiyenti, kreditorlik karzlarining aylanuvchanlik koeffisiyenti. aylanma mablag'lar aylanish koeffisiyenti

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

12.1.Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatining tahlili

12.2. Debitorlik - kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffisiyentlarining tahlili

12.3. Aylanma mablaglar aylanish koeffisentining tahlili

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni

12.1.Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatining tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy ahvolini mustahkamlashning shart-sharoitlaridan biri bo'lib, hisob-kitob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va moliyaviy intizomga qat'iy rioya qilish hisoblanadi.

Moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan barcha hisoblashuvlar umuman olganda «Debitor va kreditorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar» tariqasida yuzaga keladi.

Ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvolning yomonlashuviga katta hajmdagi debitorlik va kreditorlik qarzlarining to'planib qolishi sababchi bo'ladi. Debitorlik qarzlarning katta hajmda paydo bo'lishi korxona mablag'larini muomaladan chiqaradi, o'z aylanma mablag'larining yetishmovchiligiga sababchi bo'ladi, natijada kreditorlik qarzlarining oshishiga olib keladi, bular hammasi moliyaviy holatga salbiy ta'sir qiladi.

Shuning uchun ushbu qarzlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonni uzluksiz ravishda o'rganish va tahlil etib turish katta ahamiyatga egadir.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili taqqoslash usuli yordamida quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi va tarkibiy tuzilishi o'rganiladi. Buning uchun avvalo har bir qarz turi hajmi va uning hissasi aniqlanadi.Shundan keyin tahlil amalga oshiriladi.

Hisobot davrining oxiridagi qarzlarning hajmini davr boshidagi qarzlarning hajmiga, davr oxiridagi hissasini davr boshidagi hissasiga solishtirib, o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi. Ushbu o'zgarish mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Qarzlar bo'yicha mutlaq o'zgarishini aniqlash uchun davr oxiridagi summasidan davr boshidagi summasi chegirilib tashlanadi, nisbiy o'zgarishini aniqlash uchun mutlaq o'zgarish summasini 100 % ga ko'paytirib, natijasini davr boshidagi summasiga bo'lish kerak. Shundan keyin debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy holatiga baho beriladi.

12.2. Debitorlik - kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffisiyentlarining tahlili

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanligiga ham alohida e'tibor berish zarur, chunki majburiyatlarning aylanuvchanlik darajasi korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berishda ishlatiladigan muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyenti. Ushbu koeffisiyentni aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumi hajmini (ST) debitorlik qarzlari qoldig'ining o'rtacha hajmiga (DQ) bo'lish kerak: $K_{dq} = \frac{ST}{DQ}$

Debitorlik qarzlarining aylanish davri. Bu korsatkichni aniqlash uchun debitorlik qarzlarining o'rtacha hajmini davrdagi kalendar kunlari soniga ko'paytirib, natijasini sotishdan olingan sof pul tushumi hajmiga bo'lish kerak: $\mathbf{AD_K = \frac{DQ*360}{ST}}$

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentining tahlilini zanjirli bog'lanish usuli orqali quyidagi ketma ketlikda amalga oshirish mumkin.

Debitorlik qarzlari aylanish koeffisiyentining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{\mathbf{ST_1}}{\mathbf{DQ_1}} - \frac{\mathbf{ST_0}}{\mathbf{DQ_0}} = \pm\Delta_{\mathbf{dq.st}}$$

Ushbu o'zgarishga omillar ta'sir:

1.Debitorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri**:** $\frac{ST_0}{DQ_1} - \frac{ST_0}{DQ_0} = \pm\Delta_{dq}$

2.Sof pul tushum hajmi o'zgarishining ta'siri: $\frac{\mathbf{ST_1}}{\mathbf{DQ_1}} - \frac{\mathbf{ST_0}}{\mathbf{DQ_1}} = \pm\Delta_{\mathbf{st}}$

Shundan keyin ,omillar tasiriga baho beriladi va aylanish koeffisiyentini ya'nada oshirish imkoniyatlari ko'rsatilib,xulosa qlinadi.

Kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik. Buni aniqlash uchun sotilgan mahsulotlar tannarxining jamini(MT) kreditorlik qarzlari qoldig'ining o'rtacha summasiga(KQ) bo'lish kerak**:** $\mathbf{K_{kq} = \frac{MT}{KQ}}$

Tahlil quyidagi ketma ketlikda amalga oshiriladi**:**

Kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentning o'zgarishi**:**

$$\frac{MT_1}{KQ_1} - \frac{MT_0}{KQ_0} = \pm\Delta_{KQ,MT}$$

Koeffisiyent o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash:

1.Kreditorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri: $\frac{MT_0}{KQ_1} - \frac{MT_0}{KQ_0} = \pm\Delta_{KQ}$

2.Mahsulotlar tannarxi o'zgarishining ta'siri:$\frac{MT_1}{KQ_1} - \frac{MT_0}{KQ_1} = \pm\Delta_{MT}$

12.3. Aylanma mablag'lar aylanish koeffisiyentining tahlili

Aylanma mablag'larning aylanish koeffisiyentini (K_a) aniqlash uchun mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumini (ST) aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga(AMQ) bo'lish kerak: $\boldsymbol{K_{AM} = \frac{ST}{AMQ}}$

Aylanma mablag'larning aylanish davri (K_d)ni aniqlash uchun aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatini (AMQ) sotishdan olingan sof tushum hajmiga(ST) bo'lib, natijasini 360 kunga ko'paytirish kerak**:** $\boldsymbol{K_{AD} = \frac{AMQ}{ST} \times 360}$

Yoki 360 kunni aylanma mablag'larning aylanish koeffisiyentiga bo'lish orqali aniqlanadi: $\boldsymbol{K_{AD} = 360 \div K_{AM}}$

Aylanma mablag'larning aylanish koeffisientining tahlili.

Aylanish koeffisiyentining umumiy o'zgarishi:$\frac{ST_1}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_0} = \pm\Delta_{AMQ,ST}$

Ushbu o'zgarishga omillar ta'siri:

1. Aylanma mablag'lar hajmi o'zgarishining ta'siri: $\frac{ST_0}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_0} = \pm\Delta_{AMQ}$

2.Sof pul tushumi hajmi o'zgarishining ta'siri: $\frac{ST_1}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_1} = \pm\Delta_{ST}$

Shundan keyin omillar tasiriga baho beriladi va aylanish koeffisiyentini oshirish bo'yicha fikrlar berilib, xulosa qilinadi.

Endi aylanma mablag'lar aylanish koeffisiyenti dinamikasining tahlilini 7-jadvaldagi ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

7-jadval

Aylanma mablag’lar aylanish koeffisiyenti darajasini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar

Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	FarqI(+,-)
1.Aylanma mablag’larning o’rtacha yillik qiymati, ming so’m	68000	65500	-2500
2.Mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi, ming so’m	169990	183399	+13409
3. Aylanma mablag’larning aylanish koeffisiyenti,marta hisobida	2.5	2.8	+0.3
4 Aylanma mablag’larning aylanish davri, kun hisobida	144	128	-16

Aylanma mablag’larning aylanish koeffisiyentining.umumiy o’zgarishi**:**

$$\frac{ST_1}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_0} = \frac{183399}{65500} - \frac{169990}{68000} = 2.8 - 2.5 = +0.3 \text{ марта ёки } 12\%$$

Demak,aylanma mablag’larning aylanish soni 0.3 martaga yoki 12 foizga tezlashgan.Bu o’zgarish ikki omil hisobiga yuzaga kelgan**:**

1.Aylanma mablag’lar o’rtacha hajmi o’zgarishining tasiri:

$$\frac{ST_0}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_0} = \frac{169990}{65500} - \frac{169990}{68000} = 2.6 - 2.5 = +0.1 \text{ марта ёки } 4\%$$

Demak, Aylanma mablag’lar o’rtacha qoldig’i hajmining 2500 ming so’mga kamayishi aylanma mablag’larning aylanish sonini 0.1 martaga yoki 4 foizga tezlashishiga olib kelgan.

2.Sof pul tushumi hajmi o’zgarishining tasiri:

$$\frac{ST_1}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_1} = \frac{183399}{65500} - \frac{169990}{65500} = 2.8 - 2.6 = +0.2 \text{ марта ёки } 8\%$$

Demak, sof pul tushumi hajmining 13409 ming so’mga oshishi aylanma mablag’larning aylanish sonini 0.2 martaga yoki 8foizga tezlashishiga olib kelgan.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Debitorlar va kreditorlar deganda nima tushuniladi?

2.. Debitorlik karzlarining tahlilini amalga oshirish tartibini tushuntiring.

3. Kreditorlik karzlarining tahlilini amalga oshirish tartibini tushuntiring

Mustaqil ish topshiriqlari. Aylanma mablag’larni biriktirish koeffisiyentini yuqorida 7-jadvalda keltirilgan malumotlar asosida bazis va hisobot yillari uchun aniqlang va o’zgarishini “Zanjirli bog’lanish”usuli orqali omilli tahlil qiling. Tahlilda quyidagi bog’lanish ko’rsatkichlaridan foydalaning:

I. $\frac{AMQ_0}{ST_0}$ **II.** $\frac{AMQ_1}{ST_0}$ **III.** $\frac{AMQ_1}{ST_1}$

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

13-mavzu. Xojalik moliyaviy natijalarining tahlili

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, tahlilning ahamiyati,maqsadi va vazifalarini, moliyaviy natija korsatkichlarining turlari va ularni hisoblash hamda omilli tahlil qilish usulllarining mazmun mohiyatini yoritish va talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar Moliyaviy natija. Foyda. Zarar.Yalpi foyda.Asosiy faoliyat foydasi.Umumxo'jalik foydasi.Moliyaviy faoliyat foydasi. Moliyaviy faoliyat zarari.Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda.Sof foyda.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

13.1. Moliyaviy natijalar tahlilining ahamiyati,maqsadi va vazifalari

13.2. Moliyaviy natijalar korsatkichlarining turlari va ularni hisoblash usullari

13.3. Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda(zarar) dinamikasining omilli tahlili

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni

13.1.Moliyaviy natijalar tahlilining ahamiyati,maqsadi va vazifalari

Moliyaviy natija deganda foyda yoki zarar tushuniladi. Har bir xo'jalik foydali faoliyat yuritmogi zarur. Bunga erishmoq uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlab,ulardan samarali foydalanish zarur. Buning uchun tahlilni, o'z vaqtida amalga oshirib, foydani ko'paytirish imkoniyatlari o'z vaqtida aniqlab, faoliyatga jalb qilish choralarini ko'rish zarur. Shuning uchun ham moliyaviy natijalarni tahlil qilishning ahamiyati kattadir.

Tahlilning maqsadi nimadan iborat? Tahlilning maqsadi,foyda ko'rsatkichlari dinamikasini chuqur o'rganish va omilli tahlil qilish asosida ularni ya'nada ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tahlilning asosiy vazifalari:

1.Yalpi foyda(zarar)ni hisoblash va uning o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlab, baho berish;

2.Asosiy ishlab chiqarish faoliyati foydasi (zarari)ni aniqlash va uning o'zgarishini omilli tahlil qilib, baho berish.,

3.Umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari)ni aniqlash va o'zgarishini omilli tahlil qilib, baho berish;

4.Sof foyda o'zgarishini aniqlash va omillar ta'siriga baho berish;

5.foydalarni ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

13.2. Moliyaviy natija korsatkichlarining turlari va ularni hisoblash usullari

Moliyaviy natijalar 5-ta turga bo'linib hisobga olib boriladi, tarlil qilinadi.

1.Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda. Yalpi foydani aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumidan (SPT) sotilgan mahsulotlarning tannarxini (TN) chegirib tashlash kerak: **YF=SPT-TN**

2.Xo'jalikning asosiy faoliyati foydasi. Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydadan (YF) davr xarajatlari (DX) bilan asosiy faoliyatning boshqa xarajatlarini (BX) ayirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini (BD) qo'shish orqali asosiy faoliyatning foydasi (AFF) aniqlanadi: **AFF=YF-DX-BX+BD**

3. Xo'jalikning umumxo'jalik faoliyat foydasi. Bu foydani aniqlash uchun **a**sosiy faoliyat foydasiga (AFF) moliyaviy faoliyat daromadlarini (MFD) qo'shib, moliyaviy faoliyat xarajatlarni (MFX) ayirib tashlash kerak:**UXF=AFF+MFD-MFX**

4.Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda (STF). Bu foyda umumxo'jalik faoliyati foydasiga (UXF) favqulotda yuzaga kelgan foydani (FF) qo'shish va favqulotda yuzaga kelgan zararni (FZ) chegirib tashlash orqali aniqlanadi: **STF=UXF+FF-FZ**

5.Hisobot davri sof foydasi Sof foydani (SF) aniqlash uchun soliq to'langunga qadar bo'lgan foydadan (STF) daromad (foyda) solig'ini (DS) hamda foydadan to'lanadigan boshqa soliq va yig'imlarni (BS) chegirib tashlash kerak:**SF=STF-DS-BS**

13.3. Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasining omilli tahlili

Hisobot yilida har bir mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydani bazis yilida olingan foydaga yoki rejadagi yalpi foyda summasiga solishtirib, uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi: $(q_1p_1 - q_1z_1) - (q_0p_0 - q_0z_0) = \pm\Delta_{qpz}$

Bunda, q_1, q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulot miqdori;

p_1, p_0 –mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan 1 s. mahsulotning bahosi.,

z_1, z_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan 1 s mahsulotning tannarxi.

Yalpi foydaning o'zgarishiga bevosita quyidagi uch omil ta'sir qiladi.Omillar ta'sirini Farqlash usulidan foydalanib, aniqlash tartibiga to'xtaldik.

1.Sotilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'siri: $(q_1 - q_0)f_0 = \pm\Delta_q$

bunda, f_0 –1s mahsulotni sotishdan olingan foyda.

2.O'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'siri: $(\mathbf{p_1} - \mathbf{p_0})\mathbf{q_1} = \pm\Delta_\mathbf{p}$

3. 1s mahsulot tannarxi darajasi o'zgarishining ta'siri: $(\boldsymbol{Z_1} - \boldsymbol{Z_0})\boldsymbol{q_1} = \pm\Delta_\boldsymbol{z}$

Farqlash usuli asosida amalga oshirilgan yalpi foydaning tahlilini paxta misolida 8-jadvalda keltirgik.

8-jadval

Paxtani sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili.

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)
1	Sotilgan paxta , s	3600	3783	+183
2	1 s paxta bahosi, so'm	90500	94000	+3500
3	1 s paxta tannarxi, so'm	88000	86500	-1500
4	1 s paxta foydasi, so'm	2500	7500	+5000
5	Yalpi foyda, ming so'm	9000	28372.5	+19372.5
	Shu jumladan o'zgarishi:			
	5.1 Miqdorining o'zgarishi hisobiga	x	x	+457.5
	5.2. bahoning o'zgarishi hisobiga	x	x	+13240.5
	5.3. tannarxining o'zgarishi hisobiga	x	x	+5674.5

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Sotishdan olingan yalpi foydani aniqlang va mazmunini tushuntiring

2.Yalpi foyda dinamikasining o'zgarishiga necha omil ta'sir qiladi va ular qaysilar?

3. Yalpi foydaning o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining tasirini aniqlash tartibini tushuntiring

Mustaqil ish topshiriqlari. Paxtani sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasining omilli tahlilini 8-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida "Zanjirli bog'lanish" usuli yordamida bajaring va uni ya'nada ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsatib,xulosa yozing.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik.- T.: Voris nashriyoti, 2012 yil

14-mavzu. Rentabellik korsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish uslubi

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, rentabellik korsatkichlarining turlarini hisoblash, sotilgan mahsulotlar rentabelligini, aktivlar va xususiy capital rentabelligi darajasini omilli tahlil qilish usullarining mazmun mohiyatini yoritish va talabalarga ularni o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Moliyaviy natijalar. Foyda.Zarar.Rentabellik.Sotilgan mahsulotlar rentabelligi. Asosiy fondlar rentabelligi. Aktivlar rentabelligi.Xususiy kapital rentabelligi.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va "Aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

14.1.Rentabellik korsatkichlarining turlari va ularni hisoblash usullari

14.2. Sotilgan mahsulotlar rentabelligini tahlil qilish uslubi

14.3.Aktivlar va xususiy kapital rentabelligining tahlili

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni

14.1.Rentabellik korsatkichlarining turlari va ularni hisoblash usullari

Rentabellik korxonaning daromadliligini, foydaliligini ifodalavchi iqtisodiy ko'rsatkichidir.Hozirgi vaqtda rentabellik asosan quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalandi:

Rentabellik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari:

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi: $R_{SM} = \frac{YF*100}{TN}$

Asosiy fondlar rentabelligi: $R_{av} = \frac{SF*100}{AIF}$

Aktivlar rentabelligi : $\mathbf{R_a = \frac{STF*100}{UA+AA}}$

Xususiy kapital rentabelligi: $\mathbf{R_{xk} = \frac{SF*100}{XK}}$ (1). $\boldsymbol{R_{xk} = \frac{SF*100}{UK+ZK+QK+TF}}$(2).

Bunda,YF-yalpi foyda., SF-sof foyda., STF-soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda., TN-sotilgan mahsulot tannarxi., UA- uzoq muddatli aktivlar.,

AA- aylanma aktivlar., XK- xususiy kapital.UK-ustav kapitali.,ZK-zaxira kapitali.,QK- qo'shilgan kapital.,TF-taqsimlanmagan foyda.

14.2. Sotilgan mahsulotlar rentabelligini tahlil qilish uslubi

Sotilgan mahsulot rentabelligining tahlili taqqoslashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi rentabellik darajasini bazis yilidagi (yoki rejadagi) rentabellik darajasiga solishtirib, umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{P_1 - Z_1}{Z_1} - \frac{P_0 - Z_0}{Z_0} = \pm\Delta_{PZ}$$

Ushbu o'zgarishga ikki omil ta'sir qiladi:

1. O'rtacha sotish bahosining o'zgarishi;
2. 1 s mahsulot tannarxining o'zgarishi.

Omillar ta'sirini zanjirli bog'lanish usuli orqali hisoblash tartibini keltirdik .

O'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'siri: $\frac{P_1 - Z_0}{Z_0} - \frac{P_0 - Z_0}{Z_0} = \pm\Delta_P$

1 s mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'siri: $\frac{P_1 - Z_1}{Z_1} - \frac{P_1 - Z_0}{Z_0} = \pm\Delta_Z$

Usbu omillar ta'sirlarining yig'indisi rentabellik darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart: $\Delta_P \pm \Delta_Z == \pm\Delta_{PZ}$.Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib,xulosa yoziladi.

Endi, ushbu usuldan foydalanib, sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari rentabelligining tahlilini sotilgan paxta misolida 9-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Usbu omillar ta'sirlarining yig'indisi rentabellik darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart: $\Delta_P \pm \Delta_Z == \pm\Delta_{PZ}$.Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib,xulosa yoziladi.

9-jadval

Sotilgan paxta rentabellikning omilli tahlili.

Ko'rsatgichlar	Bazis	Shartli	Hisobot	O'zgarishi	Sh.j.o'zgarishi

	yili	lo’rsatkich	yili	(+, -)	Baho hisobiga	Tannarx hisobiga
1 s paxtaning bahosi, so’m	90500	94000	94000	+3500	X	x
1 s paxtaning tannarxi, so’m	88000	88000	86500	-1500	X	x
1 s paxtaning foydasi, so’m	2500	6000	7500	+5000	X	x
Rentabellik, %	2.8	6.8	8.7	+5.9	+4.0	+1.9

14.3.Aktivlar va xususiy kapital rentabelligining tahlili

Aktivlar rentabelligini tahlil qilish uchun solishtirish va zanjirli bog’lanish usullaridan foydalaniladi.

Aktivlar rentabelligini umumiy o’zgarishi: $\frac{STF_1}{UA_1+AA_1} - \frac{STF_0}{UA_0+AA_0} = \pm\Delta_{UA,AA,STF}$

Ushbu o’zgarishga omillarning ta’siri:

1.Uzoq muddatli aktivlar hajmi o’zgarishining ta’siri: $\frac{STF_0}{UA_1+AA_0} - \frac{STF_0}{UA_0+AA_0} = \pm\Delta_{UA}$

2.Aylanma aktivlar hajmi o’zgarishining ta’siri: $\frac{STF_0}{UA_1+AA_1} - \frac{STF_0}{UA_1+AA_0} = \pm\Delta_{AA}$

3.Soliq to’langunga qadar bo’lgan foyda hajmi o’zgarishining ta’siri:

$$\frac{STF_1}{UA_1+AA_1} - \frac{STF_0}{UA_1+AA_1} = \pm\Delta_{STF}$$

Bunda,UA- Uzoq muddatli aktivlar.,AA- Aylanma aktivlar.,ATF- Soliq to’langunga qadar bo’lgan foyda.

Omillar ta’sirlarining yig’indisi aktivlar rentabelliginining umumiy o’zgarishiiga teng kelishi kerak:

Xususiy kapital rentabelligining tahlili. Ushbu rentabelligining tahlili ham aktivlar rentabelligining tahliliga o’xshaydi.Bu yerda ham o’sha usullardan foydalanamiz. Tahlil quyidagi ketma ketlik bo’yicha amalga oshiriladi:

Xususiy kapital rentabelligining umumiy o’zgarishi: $\frac{SF_1}{XK_1} - \frac{SF_0}{XK_0} = \pm\Delta_{XK,,SF}$

Rentabelligining o’zgarishiga omillar ta’siri:

1.Xususiy kapital hajmi o’zgarishining ta’siri:$\frac{SF_0}{XK_1} - \frac{SF_0}{XK_0} = \pm\Delta_{XK}$

2.Sof foyda hajmi o’zgarishining ta’siri:$\frac{SF_1}{XK_1} - \frac{SF_0}{XK_1} = \pm\Delta_{SF}$

Omillar ta’sirlarining yig’indisi xususiy kapital rentabelliginining umumiy o’zgarishiiga teng kelishi kerak.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Rentabellik deb nimaga aytiladi? Uning mazmunini tushuntiring.

2. Paxta rentabelligining o’zgarishiga qaysi omillar ta’sir qiladi ? Tushuntiring

3. Paxta rentabelligi o’zgarishiga baho o’zgarishining ta’sirini aniqlang

Mustaqil ish topshiriqlari. Paxta rentabelligi dinamikasining omilli tahlilini 9-jadvaldagi malumotlar asosida amalga oshiring.Tahlilni indeks usuli orqali amalga oshiring.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. Samarqand-2010yil.

15-mavzu. Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari.

Dars o’quv maqsadi. Dars o’quv maqsadi bo’lib,. audit fanining mazmun mohiyatini,maqsadi va vazifalarini hamda audit va taftishning o’xshashlik va farqli tomonlarini bayon qilish va ularni talabalarga o’rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Audit. Auditor Auditorlik faoliyati.Tasdiqlovchi audit. Maqsadli audit. Auditorlik nazorati .Taftish.

Maruzani o’tish metodi. Maruza “Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim “ va “Aqliy hujum“ metodlarini qo’llash orqali o’tiladi.

Asosiy savollar

15.1. Auditning paydo bo’lishi va rivojlanishi. Audit va auditorlik faoliyatining mazmun-mohiyati.

15.2.Auditning maqsadi va vazifalari.. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari.

15.3. Audit va taftish, ularning o’xshashlik va farqli tomonlari

Asosiy o’quv materiallari qisqacha bayoni

15.1. Auditning paydo bo’lishi va rivojlanishi. Audit va auditorlik faoliyatining mazmun- mohiyati

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan iqtisodiy munosabatlar ham rivojlanib borgan,natijada xo’jaliklarda o’z ixtiyorida bo’lgan mulklardan ko’proq foyda olish masalasi dolzarb muammoga aylanib borgan. Ushbu jarayon auditning kelib chiqishiga

sababchi bo'lgan. Audit tadbirkorlik faoliyatining ma'lum bir turi sifatida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Auditning paydo bo'lishi 1850 yillarga to'g'ri keladi, ya'ni shu davrda Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan.Keyinchalik Amerika,Yevropa va Osiyoning qator mamlakatlarida rivoj topgan.Auditorlik faoliyati mamlakatimiz – O'zbekistonda ham tashkil topgan va rivojlanib bormoqda. Biz bu yerda va kelgusi mavzularda ham O'zbekistondagi audit va auditorlik faoliyati to'g'risida fikr yuritamiz.

Korxonalar faoliyatining asosiy mezoni bo'lib, mavjud mulklardan samarali foydalanish orqali ko'proq daromad va foyda olish hisoblanadi. Bunday natijaga har qanday xo'jalik yurituvchi sub'yekt mamlakatda qabul qilingan Qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar talablariga to'liq amal qilgan holda erishishi zarur. Xo'jalikning faoliyatida sodir bo'lgan operasiyalarning ushbu talablarga mos kelish-kelmasligini doimiy ravishda nazorat tekshiruvidan o'tkazilib turilishi talab etiladi. Ushbu vazifa davlat nazorati, iqtisodiy nazorat, moliyaviy nazorat, bank nazorati, ichki va tashqi nazorat, hamda auditorlik nazorati orqali amalga oshiriladi. Ushbu nazorat turlari orasida auditorlik nazorati muhim o'rinni egalaydi. Mazkur nazoratning mazmun - mohiyatini yoritish bizning ob'yektimiz bo'lib hisoblanadi.

Audit deganda nima tushiniladi?«Audit» so'zining ma'nosi adabiyotlarda turlicha talqin qilinib, kelingan. Ayrimlarida u lotin tilidan olingan bo'lib, «U eshitadi», «Eshitaman» degan ma'noni, boshqa birlarida esa ingliz tilidan olingan bo'lib, «U yordam beradi», «Ko'maklashadi» degan ma'noni bildiradi, deb ko'rsatilgan. Bulardan tashqari audit so'zi «Tekshiradi», «Taftish qilish» degan ma'noni bildiradi deb qayd qilingan fikrlar ham mavjud.

Ma'lum ma'noga ega bo'lgan ushbu so'zlar shaklan bir-biridan farq qilsa ham, ular mazmunan bir-biriga yaqin, bir-birini to'ldiruvchi so'zlardir. Faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitib, ko'rib, tekshirishdan o'tkazib, nuqson-kamchiliklarni aniqlab, ularni tugatish yo'llarini ko'rsatish orqali ko'maklashish o'ziga xos bo'lgan audit faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Audit bugungi kunda maxsus kasb, faoliyat turi va fan tariqasida tan olingan.

Audit deganda korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holatini va u bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy axborotlarni tekshirish va iqtisodiy tahlil etish hamda ular asosida xulosa va tavsiyalar berish usuli tushuniladi.

Auditorlik faoliyati degan qanday faoliyat tushuniladi?Auditorlik faoliyatining mazmun mohiyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 26 maydagi Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunda batafsil aks ettirilgan. Ushbu Qonunning 2-moddasida auditorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi». Ushbu ta'rifdan ma'lumki, auditorlik faoliyati auditorlik tekshiruvi bilan professional

xizmat ko’rsatishlarni o’z ichiga oladi. Auditorlik tekshiruvi tadbirkorlik faoliyati bo’lib, moliyaviy hisobot va u bilan bog’liq bo’lgan moliyaviy axborotlarning qonun-qoidalariga mosligini tekshirib, xulosalar chiqarish hisoblanadi.

15.2.Auditning maqsadi va vazifalari.. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari.

Auditning maqsadi-xo’jalik yurituvchi sub’yektning moliyaviy hisoboti va u bilan bog’liq bo’lgan moliyaviy axborotlarini tekshirish asosida, ulardagi ma’lumotlarning Qonun va qonunosti hujjatlari talablariga mos kelish-kelmaslik holatini aniqlash hamda xo’jalik faoliyati samaradorligini oshirish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo’yicha taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Auditning vazifalari. Audit o’z maqsadiga quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali erishadi:

1.Harakatdagi Qonunlar, Nizomlar va boshqa meyoriy hujjatlarga xo’jalik faoliyatini yuritishda amal qilinayotganligini tekshirish;

2.Xo’jalikda mavjud bo’lgan mol-mulkdan maqsadli foydalanish darajasini tekshirish;

3.Byudjetga tegishli bo’lgan soliqlarning hisoblanishi va o’tkazilishining to’g’riligini tekshirish;

4.Debitorlik va kreditorlik qarzlari bo’yicha o’zaro hisob-kitoblarning to’g’riligini tekshirish;

5.Buxgalteriya hisobi schyotlarining yuritilish holatining to’g’riligini tekshirish;

6.Moliyaviy hisobotning to’g’ri tuzilganligini va undagi ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirish va baho berish;

7.Audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;

8.Biznes-rejani tuzish va buxgalteriya hisobini yuritish bo’yicha maslahat va tavsiyalar berish.

Auditorlik faoliyati uch rivojlanish bosqichini o’z ichiga oladi.Bular quyidagilardir:

1.Tasdiqlovchi audit;

2. Maqsadli sistemali audit;

3.Tavakkalchilikka asoslangan audit.

Tasdiqlovchi audit. Tasdiqlovchi audit deganda,sodir bo’lib o’tgan operasiyalar va jarayonlarning natijalarini hisob registrlari va va hujjatlari asosida tekshirish tushuniladi.

Maqsadli sistemali audit. Maqsadli sistemali audit deganda ma’lum maqsadga qaratilgan jarayonlarning natijalarini tekshirish tushuniladi. Korxona o’z istiqbolini belgilamoqchi bo’lsa, yoki investisiyani ma’lum yo’nalish orqali jalb qilmoqchi bo’lsa,maqsadli audit shaklidan foydalanadi.

Tavakkalchilikka asoslangan audit – bu bosqichda sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi

15.3. Audit va taftish, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari

Audit taftishga nisbatan kengroq ma'noga egadir. Taftish xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarida sodir bo'lgan operasiyalarning holati va harakatini qonun qoidalariga mos kelish-kelmasligini tekshirib, xulosalar chiqaradi. Audit esa ushbu operasiyalarning qonuniyligini tekshirish bilan bir qatorda, har xil professional xizmatlar ko'rsatish orqali xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish, hisob-kitob ishlarini hamda moliyaviy tahlilni yaxshilash bo'yicha takliflar va tavsiyalar beradi.

Audit va taftish orasidagi tafovutlar

Farq qiladigan belgilar	Audit	Taftish
Maqsadlariga ko'ra	Xo'jalik faoliyatidagi kamchiliklarni uning ajralmas elementi sifatida aniqlashga yo'l qo'ymaslikni,sug'urtaviy baholash va tan olish	Kamchiliklarning oldini olish va bartaraf qilish uchun ularni aniqlash,yo'l qo'ymaslikni taminlash va baholash
Huquqiy jihatlari bo'yicha	Fuqarolik huquqi**:** xo'jalik shartnomalariga asosan amalga oshiriladi	Mamuriy huquq**:** qonunlar,yo'riqnomalar, qarorlar va davlat tashilotlarining buyruqlariga asosan amalga oshiriladi
Bilish jihati bo'yicha	Mijoz korxona buxgalteriya hisobidagi axborotlarning haqiqiyligini isbotlash	Sodir etilgan muomilalar qonuniyligi va xodimlar tomonidan o'g'irliklar yo'qligini aniqlash
Natijalariga ko'ra	Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzish bilan yakunlanadi	Taftish dalolatnomalari, tashliliy xulosalar,jarima solish,majburiy ko'rsatmalar va ularning bajarilishini tekshirish

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Audit deganda nima tushiniladi?

2.Auditorlik faoliyati degan qanday faoliyat tushuniladi

3.Audit va taftish orasidagi tafovutlar nimalardan iborat?

Mustaqil ish topshiriqlari. Audit va taftish orasidagi tafovutlarni quyidagi farq qiladigan belgilar bo'yicha ko'rsating va mazmunini tushuntiring:

1. Huquqiy jihatlari bo'yicha
2. Bilish jihati bo'yicha
3. Natijalariga ko'ra

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1.Do'smuradov R.D. Aulit asoslari. Darslik. T.:.«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»,2003.

2.. MusayevH.N. –Audit. Darslik. –T.: «Moliya»,2003.

16-mavzu. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimini, "Auditorlik faoliyati to'g'sida"gi Qonuni va boshqa me'me'yoriy hujjatlarning mohiyati va ahamiyatini hamda aulitorlik tashkilotlarning huquqlari,majburiyatlari va javobgarliklarining mazmun-mohiyatini bayon qilish va talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Audit.Auditorlik faoliyati.Me'yoriy hujjatlar. Aulitorlik tashkilotlarning huquqlari. Tasdiqlovchi audit. Maqsadli audit. Taftish Aulitorlik tashkilotlarning majburiyatlari. Aulitorlik tashkilotlarning javobgarliklari

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va aqliy hujum metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

16.1.O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi

16.2.O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'sida"gi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlarning mohiyati va ahamiyati

16.3.Aulitorlik tashkilotlarining huquqlari,majburiyatlari va javobgarliklari

Asosiy o'quv materiallarining qisqacha bayoni

16.1.O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi uch pog'onaga bo'linadi:

1-chi pog'onasida O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonuni" turadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22

sentyabrdagi “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to’g’risida”gi qarori ham 1-chi pog’onaga kiradi. Shuningdek ushbu qarorga muvofiq ishlab chiqilgan “Auditorlik xulosalarini soliq organlari va boshqa organlar tomonilan hisobga olish tartibi to’g’risidagi Nizom”,”Majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkazishdan bo’yin tovlaganligi uchun xo’jalik yurituvchi sub’yektlardan jarima o’ndirsh to’g’risidagi Nizom”va “Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga lisenziya berish to’g’risidagi Nizom”lar ham kiradi**.**

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to’g’risida”gi qaroriga muvofiq, xo’jalik yurituvchi sub’yektning faoliyatini oxirgi tekshirish bo’yicha ijobiy auditorlik xulosasi mavjud bo’lsa, soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan o’tkazilgan tekshirish kamida 24 oydan oldin tekshirilmasligi uchun asos bo’lib hisoblanadi. Ushbu qarorning 3-bandiga muvofiq Moliya vazirligi auditorlik faoliyatini lisenziyalash uchun maxsus vakolatli davlat organi etib tasdiqlangan**.**

O’zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me’yoriy tartibga solish tizimining **2-chi pog’onasi o’z ichiga** auditorlik faoliyatining milliy standartlarini (AFMS) va boshqa hujjatlarni,ya’ni auditorlik tekshiruvi o’tkazishga doir uslubiy ko’rsatmalar, tavsiyanomalarni oladi.

O’zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me’yoriy tartibga solish tizimining **3-chi pog’onasi** o’z ichiga auditorlik tashkilotlarining doimiy hujjatlari to’plami, auditorlik tekshiruvi o’tkazish rejasi va dasturi,ekspertiza hujjatlari va boshqalarni oladi.

16.2.O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’sida”gi Qonuni va boshqa me’yoriy hujjatlarning mohiyati va ahamiyati

O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonuni” O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 26 maydagi qarori bilan qabul qilingan. va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan.

Ushbu qonunda auditning mohiyati,turlari,predmeti,ob’yektlari,auditorlar va auditorlik tashkilotlarining vazifalari,huquqlari, majburitlari va javobgarligi hamda xo’jalik yurituvchi sub’yektning auditorlik tekshiruvi o’tkazilayotgandagi huquq va majburiyatlari batafsil aks ettirilgan.Auditor va auditorlik tashkilotlari o’z faoliyatini shu qonun talablari va qoidalariga amal qilgan holda olib borishlari shart. Ushbu qonun auditorlik tashkilotlari bilan auditorlik tekshiruvi o’tkaziladigan xo’jalik yurituvchi subyektlar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o’ynaydi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000 yil 22 sentyabrda “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to’g’risida” qaror qabul qildi. Bu qaror O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonuni”ni amalga oshirish,auditorlik tekshiruvlarining roli va

maqomini oshirish ,soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalarini hisobga olishni taminlash maqsadida chiqarildi. “Auditorlik xulosalarini soliq organlari va boshqa organlar tomonidan hisobga olish tartibi to’g’risidagi Nizom”,”Majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkazishdan bo’yin tovlaganligi uchun xo’jalik yurituvchi sub’yektlardan jarima o’ndirsh to’g’risidagi Nizom”va “Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga lisenziya berish to’g’risidagi Nizom”lar kiradi.

16.3.Aulitorlik tashkilotlarining huquqlari,majburiyatlari va javobgarliklari

«Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq auditorlik tashkiloti quyidagi **huquqlarga ega**:

1.Auditorlik tekshiruvi o’tkazish to’g’risida qaror qabul qilish uchun xo’jalik yurituvchi sub’yektning ta’sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqish;

2.Auditorlik tekshiruvi o’tkazilayotganda xo’jalik yurituvchi sub’yekdan xo’jalik faoliyati bilan bog’liq bo’lgan hujjatlarni to’liq hajmda olish, shuningdek ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini tekshirish;

3.Auditorlik tekshiruvini o’tkazish davomida yuzaga kelgan masalalar bo’yicha xo’jalik yurituvchi sub’yektning moddiy javobgar shaxslaridan og’zaki va yozma tushuntirishlar olish;

4.Ishonchli auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo’lgan malumotlar xo’jalik yurituvchi sub’yekt tomonidan tag’dim etilmagan tag’dirda auditorlik tekshiruvi o’tkazishdan bosh tortish;

5.Auditorlik tekshiruvini o’tkazishda ishtirok etishga auditorlar va boshqa mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb qilish.

Auditorlik tashkilotining majburiyatlari «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonunning 7-moddasida aks ettirilgan. Bular quyidagilardir**:**

1.Auditorlik tekshiruvi ni amalga oshirayotganda ushbu Qonunning hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;

2.Auditorlik tekshiruvi o’tkazishga doir shartnoma tuzishdan oldin buyurtmachining talabiga binoan auditorlik faoliyatini audit qilish huquqini beruvchi tegishli lisenziyani,auditorning malaka sertifikatini taqdim etishi;

3.Xo’jalik yurituvchi sub’yektning so’roviga binoan auditorlik tekshiruvini o’tkazish bo’yicha qonun hujjatlarining talablari to’g’risidagi, auditorning e’tirozlari asoslanilgan qonun hujjatlarining normalari to’g’risidagi axborotlarni tag’dim etishi;

4.Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;

5.Auditorlik hisobotida xo’jalik operasiyalarining qonuniyligi buzilishi faktlarini hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarni aks ettirishi;

6.Xo’jalik yurituvchi sub’yektga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari zarar yetkazganligini aniq tasdiqlab turgan faktlarni aniqlagan tag’dirda, bu haqda xo’jalik yurituvchi sub’yektning rahbariyatiga (mulkdoriga) ma’lum qilishi.

7. Zarur hollarda auditorlik tekshiruvining natijalarini ma’lum qilish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qatnashchilarning umumiy yig’ilishi chaqirilishini talab qilishi

Aulitorlik tashkilotlarning javobgarliklari. Agar auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o’tkazgan bo’lsa, tijorat sirini oshkor etgan bo’lsa yoki boshqa hatti-harakatlari oqibatida auditorlik tashkilotiga zarar yetkatgan bo’lsa, u qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti oldida javobgar bo’ladi.

Auditor auditni o’tkazishda va yakuniy natijalarini rasmiylashtirishda ma’suliyatni sezgan holda yondoshishi zarur. U auditorlik faoliyatini O’zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonuni hamda boshqa Qonun, Nizom va yuriqnoma kabi yuridik hujjatlarining talablariga to’liq amal qilgan holda amalga oshirishi zarur.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.O’zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me’yoriy tartibga solish tizimi deganda nima tushuniladi?

2. Auditorlik tashkiloti qanday huquqlarga ega?

3. Auditorlik tashkilotining majburiyatlari bo’lib, nimalar hisoblanadi?

Mustaqil ish topshiriqlari. Auditorlik tashkilotining huquqlari,auditorlik tashkilotining majburiyatlari,auditorlik tashkilotining javobgarligi,majburiiy auditorlik tekshiruvi, huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko’ra o’tkaziladigan auditorlik tekshirishlari O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonuni”ning qaysi moddalarida aks ettirilgan? Shularni aniqlab,har birining mazmunini bayon qiling.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Do’smuradov R.D. Aulit asoslari. Darslik. T.:.«O’zbekiston milliy ensiklopediyasi»,2003.

2.. MusayevH.N. –Audit. Darslik. –T.: «Moliya»,2003.

17-mavzu. Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari.

Dars o'quv maqsadi. Dars o'quv maqsadi bo'lib, auditorlik tekshiruvining turlari, auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari, xo'jalik sub'yektlarida audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallarining mazmun-mohiyatini bayon qilish va talabalarga ularni o'rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Majburiy auditorlik tekshiruvi. Tashabbus auditorlik tekshiruvi. Operasion audit. Moliyaviy audit. Ichki audit .Tashqi audit.Korxona samaradorligi auditi. Auditning daslabki rejasi.Auditning umumiy rejasi.Audit dasturi.

Maruzani o'tish metodi. Maruza "Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim " va aqliy hujum metodlarini qo'llash orqali o'tiladi.

Asosiy savollar

17.1.Auditorlik tekshiruvining shakllari va turlarilarning mazmun-mohiyati

17.2.Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.

17.3.Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari

Asosiy o'quv materiallari qisqacha bayoni

17.1.Auditorlik tekshiruvining shakllari va turlarilarning mazmun-mohiyati

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyati va uning natijalari auditorlik tekshiruvidan o'tkazilib turiladi. Auditorlik tekshiruvining ta'rifi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunda batafsil bayon qilingan. Qonunning 9-moddasida «Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy hisobot axborotlari to'g'riligi va qonun hujjatlariga mos kelishligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy axborotlarini auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir» deb qayd qilingan.

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbus shakllarida o'tkaziladi. Bulardan tashqari auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza etuvchi organlarning tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkinligi Qonunda ko'rsatilgan.

Qonunning 10-moddasiga muvofiq quyidagi sub'yektlar har yili majburiy tekshiruvdan o'tkaziladi:

1.Aksiyadorlik jamiyatlari;

2.Banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

3.Sug'urta tashkilotlari;

4.Investisiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari;

5.Manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;

6.Mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondlar;

7.Ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'yekt hisoblanadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish xo'jalik yurituvchi sub'yektdan eng kam oylik ish haqining yuz barabaridan besh yuz barabarigacha miqdorda jarima o'ndirishga, shuningdek uning rahbarini qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortishga sababchi bo'ladi. Jarimaning to'lanishi xo'jalik yurituvchi sub'yektni majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishdan ozod qilmaydi.

Auditorlik tekshiruvining ikkinchi shakli bo'lib, tashabbus tarzida o'tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi. Ushbu tekshiruvning mazmuni ham yuqorida qayd qilingan Qonunda o'z aksini topgan. Ushbu qonunning 11-moddasida «Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi sub'yektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkazilishi mumkin» deb ko'rsatilgan. Ushbu tekshiruv shakli xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning qaroriga ko'ra, ikki yoqlama tuzilgan shartnomaga muvofiq o'tkaziladi. Ushbu tekshiruvning predmeti,o'tkazish muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilab qo'yiladi. Ushbu shartnoma auditorlik tashkiloti bilan xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'rtasidagi munosobatlarni, ularning huquqlarini, majburiyatlarini va mas'uliyatlarini ifoda etuvchi huquqiy yuridik hujjatdir.

Auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashabbusi bilan ham amalga oshirilishi mumkin**.** Bunday tekshiruv Qonunning 15-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Auditorlik tekshiruvining turlari quyidagilardan iborat:

Operasion audit, muvofiqlik auditi, moliyaviy audit, ichki va tashqi audit,korxona samaradorligi auditi.

Operasion audit. Operasion audit deganda boshqaruv masalalari bo'yicha korxonaning turli tarkibiy bo'linmalariga maslahat berish jarayoni tushuniladi. Masalan xo'jalikda marketing ishlarini bohalash, xo'jalikning tarkibiy tuzilmasini bohalash va h.z.

Muvofiqlik audit. Muvofiqlik auditi deganda korxona bo'linmalari faoliyati,uning mamuriyati va zarur bo'lganda yuqori organlar tomonidan belgilangan yoki qonun hujjatlarida ko'rsatilgan qoidalarga mos kelishligini tekshirish tushuniladi. Masalan,tuzilgan shartnomalarni tekshirish va boha berish va b.q.

Moliyaviy audit. Moliyaviy audit deganda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini tekshirish tushuniladi.

Ichki audit. Ichki audit deganda xo'jaliklar faoliyatini manfaatdorlarning buyurtmasiga asosan daxlsiz autitorlar tomonidan tekshirish va asosli xulosalar berish tushuniladi..

Tashqi audit. Tashqi audit deganda xo'jaliklar faoliyatini tashqi manfaatdorlarning buyurtmasiga asosan tekshirish va ekspertiza qilish tushuniladi.Tashqi manfaatdor buyurtmachilar bo'lib, asosan davlat boshqaruv organlari, tasischilar, investorlar, kreditorlar, soliq organlari hisoblanadi.

Korxona samaradorligi auditi. Korxona samaradorligi auditi deganda tabiiy,moddiy,moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash tushuniladi.

17.2.Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.

Auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasiga muvofiq quyidagi professional xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin:

1.Buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;

2.Moliyaviy hisobotni tuzish;

3.Milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;

4.Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;

5.Buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmatini tashkil qilish;

6.Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklarasiyalarni tuzish;

7.Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional hizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin.

17.3.Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda audit o'tkazishni tashkil etish bosqichlari va ularda bajariladigan audit amallari

Auditning o’tkazilishi Qonunchilik va milliy standart talablari asosida tashkil qilinadi. Auditni o’tkazishga asos bo’lib,xo’jalik yurituvchi sub’yektning yozma buyurtmasi hisoblanadi. Auditorlik tashkiloti buyurtmaning predmeti va obyektlari bilan tanishib chiqadi va undan keyin o’zining roziligini «Yozma- majburiyat» shaklida bayon qiladi. Ushbu hujjatda audit o’tkazish shartlari, tomonlarning majburiyatlari, uni o’tkazish davri va muddati,auditorlik xizmatining qiymatini aniqlash mezonlari kabi ma’lumotlar aks ettirilgan bo’ladi. Buyurtmachi –korxona hujjatdagi shartlarga rozi bo’lgandan keyin uni auditorlik tashkilotiga qaytarib topshiradi. Shundan so’ng «Auditorlik shartnomasi» tuziladi.Shartnomada auditni o’tkazish muddati, audit predmeti,ob’yekti,auditda ishtirok etuvchi auditorlar,auditorlik xizmatining qiymati,shartnoma shartlarining bajarilish tartibi,auditdagi xatar darajasi ko’rsatiladi. Shartnoma tasdiqlangandan so’ng autitorlik tashkiloti «Audit o’tkazish rejasi» va «Audit o’tkazish dasturini» tuzadi.

Nazorat savol va topshiriqlar

1. Auditorlik tekshiruvining shakllarining mazmunini tushutiring
2. Auditorlik tekshiruvining majburiy shakllari mazmunini tushutiring
3. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari

Mustaqil ish topshiriqlari. Auditorlik tekshiruvning ta’rifi qaysi yuridik hujjatda bayon qilingan? Shuni aniqlab, ta’rifini bering.

Auditorlik tekshiruvidan qaysi yuridik shaxslar majburiy o’tadilar? Shularning ro’yxatini keltirib,sababini tushuntiring.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar:

1.Do’smuradov R.D. Aulit asoslari. Darslik. T.:.«O’zbekiston milliy ensiklopediyasi»,2003.

2.. MusayevH.N. –Audit. Darslik. –T.: «Moliya»,2003.

18-mavzu. Auditorlik tekshirishni rejalashtirish.

Dars o’quv maqsadi. Dars o’quv maqsadi bo’lib, auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning bosqichlari,. tekshiruvni o’tkazish ishchi dasturi va boshqa zaruriy hujjatlarni tuzish, auditorlik dalillarning turlari va ularga qo’yiladigan talablarning mazmun-mohiyatini bayon qilish va talabalarga o’rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Auditning daslabki rejasi. Auditning umumiy rejasi. Audit dasturi. Auditorlik dalillar Ichki auditorlik dalillar.Tashqi dalillar.. Aralash dalillar**..** Auditorlik tanlash

Maruzani o’tish metodi. Maruza “Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim “ va aqliy hujum metodlarini qo’llash orqali o’tiladi.

Asosiy savollar

18.1.Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Auditni rejalashtirishning bosqichlari.

18.2. Auditorlik tekshiruvidan o’tkazish ishchi dasturini tuzish.

18.3. Auditorlik dalillarning turlari va ularga qo’yiladigan talablar

Asosiy o’quv materiallarining qisqacha bayoni

18.1.Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Auditni rejalashtirishning bosqichlari.

Auditorlik tekshiruvining natijalari ob’yektiv va haqqoniy bo’lishligi uchun u puxta ishlab chiqilgan dastur asosida amalga oshirilishi kerak.Ushbu dastur «Auditni rejalashtirish» nomli auditorlik faoliyatining 3-sonli milliy standartiga mos holda ishlab chiqilmog’i zarur. Auditni rejalashtirish ushbu standartga muvofiq uch bosqichni o’z ichiga oladi:

1.Auditning daslabki rejasini tuzish;

2.Auditning umumiy rejasini tuzish;

3.Audit dasturini tuzish.

Auditning dastlabki rejasi xo’jalik yurituvchi sub’yektdan buyurtma tushgandan keyin to shartnoma tuzilganga qadar bo’lgan davr oralig’ida tuziladi. Ushbu rejada

xo’jalik faoliyatining bayoni, boshqaruv tizimining bayoni, buxgalteriya hisobining shakli va tashkiliy tuzilishining tavsifi hamda moliyaviy hisobot ko’rsatkichlarining tahlili kabi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi.

Auditorlik shartnomasi tuzilgandan keyin auditning umumiy rejasi tug’iladi. Ushbu reja auditorlik shartnomasida aks ettirilgan maqsad va qo’yilgan vazifalarga mos holda tuziladi. Unda tekshiriladigan xo’jalikning nomi, audit davri, auditni o’tkazishga ketadigan vaqt (kishi-soat hisobida), auditorlik guruhining rahbari, auditni bajaruvchilar, tekshirishga mo’ljalangan ishlar hajmi kabilarning nomi ko’rsatiladi. Ushbu reja auditorlik guruhi rahbari tomonidan tuziladi, imzolanadi va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Auditni rejalashtirishning uchinchi bosqichi bo’lib, audit dasturini tuzish hisoblanadi. Ushbu dastur auditning umumiy rejasi asosida tuziladi. Ammo dasturda umumiy rejada ko’zda tutilgan jarayonlar hajmini ifodalovchi ko’rsatkichlarga aniqliqlar kiritilib, kengaytirilgan holda ular dasturda o’z aksini topadi.

18.2.Aauditorlik tekshiruvidan o’tkazish ishchi dasturini tuzish.

Auditorlik tekshiruvidan o’tkazish ishchi dasturi auditorlik tashkilotining rahbari va auditorlik guruhining rahbari tomonidan tuziladi.

Ishchi dasturida tekshiriladigan tashkilot nomi, audit davri, sarflanadigan kishi-soatlar miqdori, auditorlik guruhining tarkibi, rejalashtiriladigan auditorlik riski, audit bo’limlari bo’yicha audittorlik amallari ro’yxati aks ettiriladi.

Auditorlik tekshiruvidan o’tkazish ishchi dasturi uch bo’limdan iborat bo’ladi:

1.Buxgalteriya hisobi va ichki audit holati hamda moliyaviy hisobot sifatini baholash;

2.Korxonaning moliyaviy-xo’jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o’tkazish;

3.Kamchiliklarni bartaraf qilish bo’yicha takliflar va tavsiyalar berish.

Ish dasturining 1-bo’limida auditor quyidagi auditorlik amallarning mavjudligi va qonuniyligiga e’tiborni qaratishi kerak:

1.Ta’sis hujjatlarining mavjudligi va ustav kapitaliga tegishli bo’lgan balans ma’lumotlarining haqqoniyligi;

2.Buxgalteriya hisobi registrlari, aylanma va qoldiq balanslarini tanlab tekshirish;

3.Xo’jalik mablag’lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo’yicha inventarizasiya ma’lumotlarining mavjudligi;

4.Ilgargi davrlarda auditorlar va soliq inspeksiyasi tomonidan o’tkazilgan tekshiruvlarning dalolatnomalari hamda auditorlik xulosalarining mavjudligini;

5.Xo’jalikda ichki auditning tashkil etilish holatini tekshirish;

6Hisob va hisobotga oid qonunlar va nizomlarning mavjudligini hamda ularga amal qilish ahvolini.

Ish dasturining 2-bo’limida korxonaning moliyaviy hisoboti va u bilan bog’lik bo’lgan barcha jarayonlardagi moliyaviy axborotlarning qonun hujjatlari talablariga mos

kelish-kelmaslik holatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ko'zda tutiladi, ya'ni quyidagilar dasturda aks ettiriladi:

1.Ta'sis hujjatlari, xo'jalikning ichki va tashqi munosabatlarini belgilaydigan me'yoriy hujjatlar mavjudligini tekshirish;

2.Xususiy kapitalning shakllanishi, kredit resurslarining mavjudligi hamda ishlatilishi holatini tekshirish;

3.Kassa, hisob-kitob schyoti va bankdagi boshqa schyotlarda saqlanayotgan pul mablag'lari va pul hujjatlarini tekshirish;

4.Uzoq muddatli va joriy aktivlar mavjudligi va holatini tekshirish;

5.Mehnatga haq to'lash, hisobdor shaxslar bilan, debitorlar va kreditorlar bilan, byudjet bilan bo'ladigan hisob-kitoblar holatini o'rganish;

6.Xarajatlar, daromad va moliyaviy natijalarning holatini tekshirish.

Dasturning 3-bo'limida auditorlik tekshirish natijasida aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilish bo'yicha berilgan maslahatlar va tavsiyalar aks ettiriladi.

18.3. Auditorlik dalillarning turlari va ularga qo'yiladigan talablar.

Auditorlik dalillar. Auditorlik dalillar deganda auditorlik tashkiloti tomonidan tekshiruvlar vaqtida aniqlanib to'plangan va auditorlik xulosasini to'g'riligini isbotlovchi axborotlar tushuniladi Auditorlik dalillar auditorlik tekshiruvi jarayonida korxona va uchinchi shaxslardan olingan axborotlar hamda ularni tahlil qilish natijalari bo'lib,moliyaviy hisobotning ishonchligi to'g'risidagi auditorlik xulosasini tuzish imkonini beradigan axborotlar bo'lib hisoblanadi.

Auditorlik dalillarning turlari. Auditorlik dalillar turi, manbai va olinish usullari bo'yicha turkumlanadi.

Auditorlik dalillar turi bo'yicha yozma va og'zaki dalillarga bo'linadi.Yozma dalillar hujjatlar va tushuntirish xatlari orqali tasdiqlanadi.

Auditorlik dalillar manbai bo'yicha ichki ,tashqi va aralash dalillarga bo'linadi. **Ichki auditorlik dalillar** xo'jalik yurituvchi sub'yektdan yozma yoki og'zaki olingan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. **Tashqi dalillarga** uchinchi tomonlardan yozma shaklda (odatda yozma so'rov bo'yicha) olingan ma'lumotlar kiradi.**Aralash dalillarga** xo'jalik yurituvchi sub'yektdan yozma yoki og'zaki ko'rinishda olingan va uchinchi tomondan yozma ko'rinishda olingan ma'lumotlar kiradi

Auditorlik dalillar olinish usuli bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

1.Faktlarni tasdiqlash yo'li bilan olingan dalillar;

2.Hujjatashtirilgan faktlarni aniqlash yo'li bilan olingan dalillar;

3.Maxsus o'tkazilgan tahlil natijasida olingan dalillar

Agar auditor xo'jalikning hisobotini o'rganish va xodimlar bilan suhbat o'tkazish natijasida,hisobot to'g'ri va ishonchli birlamchi ma'lumotlar asosida tuzilganligiga

mutlaqa ishonch hosil qilsa, u dastlabki hujjatlar va hisob registrlarini tanlab tekshirish o'tkazishi mumkin.

Tanlab tekshirish ikki turli bo'lishi mumkin:

1. Mos kelishni tanlab tekshirish;
2. Mohiyatan tanlab tekshirish.

Mos kelishni tanlab tekshirishning asosiy vazifasi bo'lib,tekshiriladigan hisobot davri ichida ichki nazorat me'yorlarining tez-tez buzilib turishini aniqlash hisoblanadi. Demak,hisobot davri ichida sodir bo'lgan jarayon natijalarining belgilangan me'yorlarga mos kelishlik holatini tekshirish mos kelishni tanlab tekshirish deb ataladi.

Mohiyatan tanlab tekshirish miqdroriy tanlab tekshirish degan manoni anglatadi. Ushbu tekshirishning vazifasi ichki nazoratning buzilishini qiymat ifodasida o'lchashdan iborat. Bunga buxgalteriya hisobi schyotlarining qoldiqlarini, dastlabki hujjatlardagi yozuvlarni tasdiqlash, uchinchi shaxslardan tasdiqlar olish kabilar misol bo'laoladi.

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Auditni rejalashtirish necha bosqichda amalga oshiriladi?

2. Auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ishchi dasturining mazmunini tushuntiring

3. Auditorlik dalillar deganda nima tushuniladi?

Mustaqil ish topshiriqlari. Auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ishchi dasturida aks ettiriladigan ko'rsatkichlarni bayon qiling va uning har bir bo'limida nimalar aks ettirilishini ta'riflang va mazmunin tushuntiring

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1.Do'smuradov R.D. Aulit asoslari. Darslik.T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»,2003.

2.. MusayevH.N. Audit. Darslik. –T.: «Moliya»,2003.

19-mavzu. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi

Dars o’quv maqsadi. Dars o’quv maqsadi bo’lib, auditorlik tekshiruvining natijalarini umumlashtirish va baholash, auditorlik hisobotining tuzilishi va u uchun javobgarlik, auditorlik xulosaning tuzilshi va auditorlik xulosa uchun javobgarlikning mazmun-mohiyatini yoritish va talabalarga ularni o’rgatish hisoblanadi.

Tayanch iboralar. Dalolatnomalar. Malumotnomalar. Tushuntirish xatlari. Qaydnomalar. Bildirishnomalar. Auditorlik hisoboti. Auditorlik xulosasi. Ijobiy auditorlik xulosasi. Salbiy auditorlik xulosasi.

Maruzani o’tish metodi. Maruza “Bilaman . Bilishni xohlayman . Bilib oldim “ va aqliy hujum metodini qo’llash orqali o’tiladi.

Asosiy savollar

19.1.Auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholashning mazmuni.

19.2. Auditorlik hisobotining tuzilishi va mazmuni

19.3 Auditorlik xulosaning tuzilshi va mazmuni

Asosiy o’quv materiallarining qisqacha bayoni

19.1.Auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida auditorning asosiy etibori tekshirilayotgan ob’yektning qonun qoidalariga mos kelishi yoki kelmasligini isbotlashga qaratilgan bo’ladi. Shu maqsadda auditor ularni hujjatlar bilan rasmiylashtirib boradi. Bularga quyidagi hujjatlarni kiritish mumkin: dalolatnomalar, ma’lumotnomalar, tushuntirish xatlari, qaydnomalar, bildirishnomalar va boshqalar.

Dalolatnomalar audit o’tkazilayotgan vaqtda aniqlangan kamchiliklar bo’yicha tuziladi.

Ma’lumotnomalar tekshirish jarayonida qonun qoidalarining buzilmaganligi, faoliyat yuritish qabul qilingan mezonlarga mos kelganda tuzilishi mumukin.

Tushuntirish xatlari audit jarayonida tekshirilayotgan ob’yekt bo’yicha qonun qoidalar buzulgan tag’dirda tuziladi. Masalan, moliyaviy hisobotni tekshirish jarayonida hisob siyosati talablari buzulganligi aniqlasa, bu rahbarning noto’g’ri boshqaruv qarorlarini qabul qilganligi natijasida yuzaga kelgan bo’lsa,auditor rahbardan tushuntirish xati oladi. Bunga u haqlidir.

Qaydnomalar pul mablag’lari bo’yicha hisob-kitob operasiyalarini tekshirish jarayonida bir biridan farq qiluvchi noqonuniy operasiyalar aniqlangan paytda tuziladi.

Bildirishnomalar audit qilinayotgan xo’jalik bilan iqtisodiy munosabatda bo’lgan korxonalar va bank muassasalariga auditor tomonidan yuboriladigan ma’lum mazmundagi so’rovnomalardir. Masalan, debitorlik va kreditorlik qarzlarning haqqoniyligini,bankdagi hisob-kitob schyotidagi pul mablag’lariining to’g’riligini bilish maqsadida yozma so’rovnoma yuboriladi.

19.2. Auditorlik hisobotining tuzilishi va mazmuni

Auditorlik hisoboti. Auditning rasmiylashtirilishi belgilangan tartibda amalga oshiriladi. O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunda auditorlik hisobotiga tarif berilgan. Unda “Auditorlik hisoboti - auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibdan chetga chiqishlari, moliyaviy hisobotdagi qoida buzarliklar to’g’risidagi mufassal ma’lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvi o’tkazish natijasida olingan boshqa axborotlardan iborat bo’lgan va xo’jalik yurituvchi sub’yekt rahbariga, mulkdorga, qatnashchilari (aksiyadorlar)ning umumiy yig’ilishiga yo’llangan hujjat” deb qayd qilingan. Hisobotda auditorlik tashkiloti,audit o’tkazilgan yuridik shaxs, audit obyektlari, tekshirish natijalari, tavsiyalar va xulosalar aks ettiriladi

. **Auditorlik hisoboti uch qismdan iborat: kirish,asosiy qism va yakuniy qism.**

Hisobotning kirish qismida auditorlik tashkilotining rekvizitlari, auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan lisenziyaning raqami va sanasi,auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan shaxslar haqidagi ma’luiotlar, auditorlik tekshiruvini o’tkazish uchun asos ,hamda xo’jalik faoliyatining umumiy tavsifi ko’rsatiladi

Hisobotning asosiy qismida audit ob’yekti,tekshirish muddatlari va tekshiruv natijalari ifodalanadi.

Tekshirish ob’yektlari hisobotda ma’lum ketma-ketlikda aks ettiriladi. Audit jarayonida aniqlangan noqonuniy operasiyalar,ularning isboti, audit natijalarini umumlashtirishga asos bo’lgan hujjatlar bo’yicha ifodalanadi. Hisobotda qonundan cheklanishlar va qonun buzarlikdan kelib chiqqan zararlar, suiste’mol hollari quyidagi tartibda aks ettiriladi: “Mansabdor yoki moddiy javobgar shaxs qanday hujjatni buzgan”(Qonunni, Farmonni, Nizomni, buyruqni va h.z.); “Kim qonun – qoidani buzgan”(rahbar,bosh buxgalter va b.q.); “Qonun – qoida qachon buzilgan”; “Qonun –

qoida qanday holda buzilgan”(qonunbuzarlik shakli: yakka holda yoki ko’pchilik bilan); “Noqonuniy operasiyalar qanday aniqlandi”(tekshiruv jarayonida qo’llanilgan audit usullari);

Auditorlik hisobotining yakuniy qismida tekshirish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, hisob va hisobotni yaxshilashga , xo’jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi Auditor hisobotni tuzishda huquqiy mazmunga ega bo’lgan tushunchalar,yani “o’zlashtirish”,”suiste’mol”, “talon-taroj” kabi so’zlarni ishlatmasligi kerak. Tekshiruv natijalariga bunday mazmunda boha berish autitorning vakolatiga kirmaydi.Bunday xulosalarni sud organlari chiqaradi.

Auditorlik hisoboti auditor tomonidan tuziladi va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Undagi axborotlar mahfiy bo’lib ,uchinchi shaxsga oshkor qilinmaydi.Hisobotning har bir beti teshiruv o’tkazgan auditor tomonidan imzolangan bo’lishi kerak. Hisobotdagi ma’lumotlar auditorlik xulosasini tayyorlash uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

19.3 Auditorlik xulosaning tuzilshi va maznuni

Auditor tekshiruv natijalari bo’yicha o’z fikr va mulohazalarini auditorlik xulosasida aks ettiradi. Bu – auditorlik hisobotiga asosan tuziladi. Auditorlik xulosasining hisobotdan farqi shundan iboratki,ushbu hujjatda audit natijalari bo’yicha faqat xulosa beriladi. Auditorlik xulosasida tekshiruv jarayonidagi noqonuniy operasiyalar tufayli kelib chiqqan yoki keltirilgan zararlarning sabablari,sharoitlari batafil ko’rsatilmaydi (ular auditorlik hisobotida keng yoritilgan bo’ladi).

Auditorlik xulosasi ikki turga, ya’ni ijobiy auditorlik xulosasi va salbiy auditorlik xulosasiga bo’linadi.

Ijobiy auditorlik xulosasi. Tekshirilgan xo’jalik yurituvchi sub’yektning moliyaviy hisoboti asosli tuzilgan bo’lib, xo’jalikning moliyaviy holatini to’g’ri aks ettirgan bo’lsa,xo’jalik operasiyalari O’zbekiston qonunchiligiga mos kelsa - ijobiy auditorlik xulosasi beriladi.

Salbiy auditorlik xulosasi. Xo’jalik yurituvchi sub’yekt faoliyatida jiddiy kamchiliklar aniqlanganda, moliyaviy hisobot to’g’ri tuzilmaganda yoki amaldagi qonunchilikka mos kelmaganda salbiy auditorlik xulosasi beriladi.

Auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangandan keyin yuridik hujjat bo’lib hisoblanadi.

Auditorlik xulosasi xo’jalik yurituvchi sub’yekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq hujjat hisoblanadi va matbuotda elon qilinadi

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish deganda nima tushuniladi?

2.Auditorlik tekshiruvi jarayonida tuziladigan qaysi hujjatlarni bilasiz? Tushuntiring

3.Auditorlik hisobotining mazmunini tushuntiring, tariflang

4.Auditorlik xulosasining mazmunini tushuntiring

Mustaqil ish topshiriqlari. Fermer xo'jaligi kassasi audit tekshiruvidan o'tkazilganda 300 ming so'mlik kamomad aniqlangan. Ushbu tekshiruv bo'yicha qaysi yuridik hujjat tuziladi (ma'lumotnomami, tushuntirish xatimi, qaydnomami, dalolatnomami, bildirishnomami) va unga kimlar imzo chekadi? Shu hujjatni aniqlab,uni tuzish tartibini bayon qiling,yozing.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1.Do'smuradov R.D. Aulit asoslari. Darslik. T.:.«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»,2003.

2.. MusayevH.N. –Audit. Darslik. –T.: «Moliya»,2003.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIShLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI

SAMARQAND QIShLOQ XO'JALIK INSTITUTI

T.Qudratov

I.Qudratova

Iqtisodiy tahlil va audit

Fanidan amaliy mashulotlarda bajariladigan vazifalar TOPLAMI

Camarkand -2015

Iqtisodiy tahlil va audit fani bo'yicha "Amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan vazifalar to'plami" Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi dosenti T. va o'qituvchi I. Qudratova tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2011 yil 17 sentyabrdagi 392-sonli buyrig'i bilan tasdiqlangan fanning o'quv dasturiga mos holda tayyorlangan.

Vazifalar to'plami SamQXI Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining yig'ilishida (2014 yil 30 oktyabrdagi 2-sonli bayoni), iqtisodiyot va boshqaruv fakultetining uslubiy komissiyasining yig'ilishida (2014 yil 30 oktyabrdagi 3- sonli bayoni), fakultet ilmiy kengashining yig'ilishida(2014 yil 25- noyabrdagi.3 -sonli bayoni), institut markaziy uslubiy kengashining yig'ilishida (2014 yil 26 dekabrdagi 4- sonli bayoni) va institut ilmiy kengashida (2014 yil dekabrdagi 5- sonli bayoni) ko'rib chiqilib, chop etishga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

1. Aliqulov A.I. - Samarqand qishloq xo'jalik instituti Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi mudiri,iqtisod fanlari doktori,dosent

1. Ibragimov M.M -Samarqand bank kolleji direktori,iqtisod fanlari nomzodi, dosent..

Camarkand -2015.

1-Mavzu. Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi

O'quv maqsadi. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelishi,rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanish jaryonini talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Mashg'ulot turi. Individual shaklda tashkil qilinadi**.**

Mashg'ulot metodi. Og'zaki va savol-javob tarzida

Mashg'ulotning mazmuni. Mashg'ulot seminar shaklida tashkil qilinadi

Seminar savollari:

1.Iqtisodiy tahlil fanining paydo bo'lish zarurati va uning sabablari

2. Iqtisodiy tahlil fanning shakllanish elementlari

3. Iqtisodiy tahlil fanining rivojlanish bosqichlari.

4. Iqtisodiy tahlil fanining O'zbekistonda rivojlanishi

5.Tahlil fanining O'zbekistonda rivojlanishida salmoqli hissa qoshgan olimlar

6.Fanning rivojlanish istiqbollari.

Adabiyotlar: 1.Pardayev M. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. .Darslik.2001.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma'rular kursi.Samarqand-2013.

2-mavzu. Iqtisodiy tahlilning mazmuni,predmeti va vazifalari

O'quv maqsadi. Iqtisodiy tahlilning mazmuni,predmeti,ob'yekti, ob'ektiv va sub'ektiv omillar, tahlilning fanlar orasida tutgan o'rni va vazifalarining mazmun-mohiyatini talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Mashg'ulot turi. Individual shaklda tashkil qilinadi**.**

Mashg'ulot metodi. Og'zaki va savol-javob tarzida

Mashg'ulotning mazmuni. Mashg'ulot seminar shaklida tashkil qilinadi

Seminar savollari:

1. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni.

2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va ob'yekti.

3. Ob'ektiv va sub'ertiv omillar tog'risida tushuncha

4. Iqtisodiy tahlil fanining maqsadi va vazifalari.

5. Fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o'rni.
6. Iqtisodiy tahlilning falsafa va iqtisodiyot nazariyasi bilan bog'liqligi
7. Iqtisodiy tahlilning statistika va buxgalteriya hisobi bilan bog'liqligi

Adabiyotlar: 1.Pardayev M. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. .Darslik. 2001.
2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma'rular kursi.Samarqand-2013.

3- mavzu.Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar

O'quv maqsadi. Iqtisodiy tahlilning metodi va metodologik asoslarini ifodalovchi kategoriyalar hamda iqtisodiy statistik usullarning mazmuni talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Mashg'ulot turi. Individual shaklda tashkil qilinadi**.**

Mashg'ulot metodi. Og'zaki va savol-javob tarzida

Mashg'ulotning mazmuni. Mashg'ulot seminar shaklida tashkil qilinadi

Seminar savollari:

1.Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslarini ifodalovchi kategoriyalar tavsifi.
3. Inluksiya va deduksiya kategoriyalarining mazmuni .
4.Zamon va makon kategoriyalarining tavsifi.
5.Sabab va oqibat kategoriyalarining mazmuni,iqtisodiy tahlilda ular qanday ataladi?
6. Ekstensiv va Intensiv omillarning mazmuni
7.Farqlash va zanjirli bog'lanish usullari
8.Iqtisodiy tahlilning metodi bo'yicha olimlarning fikrlari

Adabiyotlar: 1.Pardayev M. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. .Darslik. 2001.
2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma'rular kursi.Samarqand-2013.

4- mavzu. Iqtisodiy tahlil turlarlarining mazmuni va tavsifi

O'quv maqsadi. Iqtisodiy tahlil turlarlarining mazmun-mohiyatini hamda Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlil turlariga ajratish zarurligining mazmuni talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Mashg'ulot turi. Individual shaklda tashkil qilinadi**.**

Mashg'ulot metodi. Og'zaki va savol-javob shaklida

Mashg'ulotning mazmuni. Mashg'ulot seminar shaklida tashkil qilinadi

Seminar savollari:

1.Iqtisodiy tahlilning turlari to'g'risida tushuncha.
2. Iqtisodiy tahlil turlarining tasniflanish belgilari
3. . Iqtisodiy tahlilni mazmuniga, davriga, ob'yekti va sub'yektlariga ko'ra turlari va ularni tavsifi.
4.Tarmoqlar tamoyili va kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha turlari va ularni tavsifi.
5. Ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha va o'rganilayotgan ob'yektni qamrab olish darajasiga ko'ra turlari va ularni tavsifi.
6.Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlil turlariga ajratishning zarurligi

Adabiyotlar: 1.Pardayev M. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. .Darslik. 2001.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma’rular kursi.Samarqand-2013.

5- mavzu.Axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish

O’quv maqsadi. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarining turlari va ularni tekshirish usullari hamda iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish jarayonining mazmun-mohiyatini talabalarga o’rgatish hisoblanadi.

Mashg’ulot turi. Individual shaklda tashkil qilinadi**.**

Mashg’ulot metodi. Og’zaki va savol-javob shaklida

Mashg’ulotning mazmuni. Mashg’ulot seminar shaklida tashkil qilinadi

Seminar savollari:

1. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarining turlari.

2. Tahlilning iqtisodiy axborot manbalariga qo’yiladigan talablar.

3.Tahlilda foydalaniladigan iqtisodiy axborotlarning turlari va ularning tavsifi

4. Tahlilda foydalaniladigan iqtisodiy axborotlarni tekshirish usullari

5.Iiqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qiluvchilar

6. Iiqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari

7. iqtisodiy tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Adabiyotlar: 1.Pardayev M. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. .Darslik. 2001.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma’rular kursi.Samarqand-2013.

6- mavzu.Mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasini tahlil qilish uslubi

O’quv maqsadi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish larayonlarining natilalarini omilli tahlil qilish usullarini va ilmiy asoalangan xulosalar chiqarish tartibini talabalarga o’rgatish hisoblanadi

Mashg’ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg’ulot tashkil qilinadi.

Mashg’ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg’ulotning mazmuni. Amaliy mashg’ulotda paxta ishlab chiqarish va uni sotish dinamikasini omilli tahlili bilan bog’liq bolgan vazifalarni echish va xulosa yozish

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma’rular kursi.Samarqand-2013.

1-vazifa

Ishlab chiqarilgan va sotilgan paxta dinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar:

Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Paxta maydoni,ga	50	48
2. Paxta hosildorligi,s/ga	20	24
3.Yalpi hosili,s	?	?
4.1s.paxtani sotish bahosi,ming so’m	88.0	94.0

5. Sof pul tushumi,ming so’m	?	?

Eslatma. Etishtirilgan paxta shu yilda to’liq sotilgan.

Berilgan ma’lumotlar asosida:

1.Bazis va hisobot yillari uchun paxta yalpi hosilini;
2. Yalpi hosil miqdorining o’zgarishini;
3. Yalpi hosil miqdorining o’zgarishiga omillarning ta’sirini zanjirli bog’lanish usuli orqali aniqlang
4. Vazifa echimiga xulosa yozib,unda yalpi hosilni ya’nada oshirish imkoniyatini ko’rsating.

2--vazifa

1-vazifadagi ma’lumotlar asosida Farqlash usulini qo’llab paxta yalpi hosili dinamikasini omilli tahlil qiling.Tahlil natijalari 1-vazifa echimi natijalaridan farq qilmasligi kerak,shuni esdan chiqarmagan holda vazifani bajaring.

3--vazifa

1-vazifadagi ma’lumotlar asosida Farqlash usulini qo’llab paxtani sotishdan olingan sof pul tushumi dinamikasini tahlil qiling. Buning aniqlang**:**

1. Bazis va hisobot yillari uchun sof pul tushumi summasini.,
2. Sof pul tushumi hajmining o’zgarishini.,
3. Sof pul tushumi hajmining o’zgarishiga omillar ta’sirini
4. Sof pul tushumi hajmini oshirish imkoniyatlarini ko’rsatib, xulosa yozing

4-vazifa

Hisobot davrida baho indeksi 1,2 koeffisiyentnga va mahsulot miqdor indeksi esa 1,3 koeffisiyentnga teng bo’lgan bo’lsa, sotilgan mahsulot qiymati indeksi nechaga teng bo’ladi?Shuni aniqlab,pul tushumi o’zgarishiga baho bering.

7-mavzu. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligini tahlil qilish uslubi.

O’quv maqsadi. Mehnat unumdorligining bevosita va bilvosita ko’rsatkichlarini zanjirli bog’lanish va indeks usullaridan foydalanib,tahlil qilish usularini mazmunini talabalarga o’rgatish hisoblanadi

Mashg’ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg’lot tashkil qilinadi.

Mashg’ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg’ulotning mazmuni. Amaliy mashg’ulotda paxtachilikda mehnat unumdorligi korsatkichlari dinamikasini omilli tahlili bilan bog’liq bolgan vazifalarni echish va asosli xulosa yizish

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma’rular kursi.Samarqand-2013.

5-vazifa

Paxtachilikda mehnat unumdorligi korsatkichlarini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar

Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili

1.Paxta maydoni,ga	50	48
2.Yalpi hosil,s	1000	1152
3.Mehnat sarfi, soat hisobida	30000	31968

Berilgan ma'lumotlar asosida:

1.Bazis va hisobot yillari uchun 1 gektar maydonga sarf bo'lgan kishi –soat miqdorini;

2.Bazis va hisobot yillari uchun paxta hosildorligini;

3.Bazis va hisobot yillari uchun bir kishi –soat hisobiga etishtirilgan paxta miqdorini;

4. Mehnat unumdorligining yakka indekslarini va ular asosida mehnat unimdorligi darajasiga baho bering.

6-vazifa

5- vazifadagi ma'lumotlardan foydalanib, mehnat unumdorligining bevosita korsatkichi asosida uning o'zgarishini omilli tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1.Mehnat unumdorligining mutlaq va nisbiy o'zgarishlarini;

2.Shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini.,

3. Mehnat unumdorligining o'zgarishiga omillarning ta'sirini zanjirli bog'lanish usulidan foydalanib aniqlang.

4. Mehnat unumdorligining darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib, xulosa yozing

7-vazifa

5- vazifadagi ma'lumotlar va ularning echimidan foydalanib, mehnat unumdorligining bilvosita korsatkichi asosida , uning darajasi o'zgarishini (oshishini)omilli tahlil qiling va uni ya'nada oshirish imkoniyatini ko'rsatib xulosa yozing.Tahlilda indeks usulidan foydalaning.

8- mavzu. Yer-suv resurslari va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini nahlil qilish uslubi

O'quv maqsadi. Tabiiy resurslardan va asosiy fondlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini nahlil qilish uslubining mazmunini talabalarga o'rgatish hisoblanadi

Mashg'ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg'ulot tashkil qilinadi.

Mashg'ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg'ulotning mazmuni. Amaliy mashg'ulotda yer-suv resurslari korsatkichlari dinamikasini omilli tahlili bilan bog'liq bolgan vazifalarni echish va asoslangan xulosa yozih

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma'rular kursi.Samarqand-2013.

8-vazifa

Er-suvdan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1. Kadastr maydon,ga	180	182
2.Yalpi daromad,ming so'm	280800	303940

3. Foyda, ming so’m	50400	76440
4. Paxta maydoni,ga	50	48
5. Paxtaga sarf bo’lgan suv hajmi, ming M^3	450	408
6. Paxta yalpi hosili,s	1000	1152

Berilgan ma’lumotlar asosida aniqlang:

1.Bazis va hisobot yillari uchun 1 ga maydon hisobiga olingan daromad summasini;
2.Erdan foydalanish samaradorligining o’zgarishini;
3.Erdan foydalanish shartli samaradorlik ko’rsatkichini
4.Erdan foydalanish samaradorligining o’zgarishiga omillar ta’sirini zanjirli bog’lanish usulidan foydalanib aniqlang.
5. Erdan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatini ko’rsatib , xulosa yozing

9-vazifa

8- vazifadagi ma’lumotlar asosida paxta bo’yicha suvdan foydalanish samaradorligining o’zgarishini Zanjirli bog’lanish usulidan foydalanib omilli tahlil qiling va oshirish imkoniyatini ko’rsatib,xulosa yozing Buning uchun bazis va hisobot yillari uchun paxta hosildorligi va 1 gektarga sarf bo’lgan suv hajmini hisoblab oling.Shundan keyin tahlilni amalga oshiring.

9-mavzu.Mehnat buyumlaridan foydalanish samaradorligini nahlil qilish uslubi

O’quv maqsadi. Mehnat buyumlaridan **(**moddiy resurslardan) foydalanish samaradorlik ko’rsatkichlarini nahlil qilish usuдining mazmunini talabalarga o’rgatish hisoblanadi

Mashg’rlot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg’lot tashkil qilinadi.

Mashg’rlot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg’rlotning mazmuni. Amaliy mashg’ulotda moddiy resurslar samaradorligini ifodalovchi korsatkichlar dinamikasining omilli tahlili bilan bog’liq bolgan vazifalarni echish va asosli xulosalar yozish

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma’rular kursi.Samarqand-2013.

10-vazifa

Mehnat buyumlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar

Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Yalpi mahsulot, ming so’m	380800	395000
2.Moddiy xarajatlar, ming so’m	185400	186200
3.Sotishdan olingan yalpi poyda, ming so’m	19080	22005

Berilgan ma’lumotlar asosida aniqlang:

1.Moddiy resurslardan foydalanish samaradorlik ko’rsatkichlarini:
   а) Materiallar qaytimini;
   б) Materiallar sig’imini;
2.Shartli materiallar qaytimini.,

3. Materiallar qaytimi darajasining o'zgarishini.,
4. Materiallar qaytimini o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sirini:
   a) Moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishining .,
   b) Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining .
5. Vazifa echimiga xulosa yozing

11-vazifa

10-vazifadagi ma'lumotlar asosida aniqlang**:**

1.Bazis va hisobot yillari uchun moddiy resurslar rentabelligi darajasini va uning o'zgarishini.,
2.Shartli rentabellik darajasini.,
3.Rentabellik darajasining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sirini:
   a) Moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'sirini,
   b) Yalpi foyda hajmi o'zgarishining ta'sirini
4. Rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib, xulosa yozing

12-vazifa

10-vazifadagi ma'lumotlar asosida materiallar sig'imi darajasi bo'yicha moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi dinamikasini Indeks usulidan foydalanib, omilli tahlil qiling va xulosa yozing

10- mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari va'mahsulot tannarxini tahlil qilish uslubi

O'quv maqsadi. Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi va'mahsulot birligi tannarxini omilli tahlil qilish usulini talabalarga o'rgatish hisoblanadi

Mashg'ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg'lot tashkil qilinadi.

Mashg'ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg'ulotning mazmuni. Amaliy mashg'ulotda Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi va'mahsulot birligi tannarxini dinamikasini omilli tahlili bilan bog'liq bolgan vazifalarni echish va asosli xulosalar yozish

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.Ma'rular kursi.Samarqand-2013.

13- vazifa

Paxta tannarxi dinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Jami Ishlab chiqarish xarajati ,ming so'm	88000	99648
2.Paxta maydoni,ga	50	48
3. Yalpi hosil,s	1000	1152
4.1 s paxta tannarxi,co'm	88000	86500

Berilgan ma'lumotlar asosida:

1.Ishlab chiqarish xarajatlari hajmining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan o'zgarishini.,
2.Shartli ishlab chiqarish xarajatlari hajmini.,

3.Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o’zgarishiga omillarning ta’sirini zanjirli bog’lanish usulidan foydalanib aniqlang.,
4.Ishlab chiqarish xarajatlari hajmini kamaytirish imkoniyatini ko’rsatib xulosa yozing

14- vazifa

13-vazifadagi ma’lumotlardan foydalanib, 1s paxta tannarxi o’zgarishini tahlil qiling.Buning uchun aniqlang**:**
1.Bazis va hisobot yillari uchun 1ga paxta maydoniga sarf bo’lgan xarajat summasini;
2. Bazis va hisobot yillari uchun paxta hosildorligini,s/ga;
3. Bazis va hisobot yillari uchun 1 s. paxta tannarxini va uning o’zgarishini ;
.4. 1 s. paxta tannarxining o’zgarishiga omillarning ta’sirini zanjirli bog’lanish usulidan foydalanib,aniqlang.,
5.. Paxta tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini ko’rsatib, xulosa yozing

15- vazifa

1 ga xaralati 10 %ga oshdi ,paxta hosildorligi darajasi 15 %ga ko’paydi. Ushbu omillar ta’siri ostida 1 s paxta tannarxi necha foizga pasaydi yoki oshdi? Shuni aniqlab, tannarx darajasi o’zgarishiga baho bering va xulosa yozing.

11- mavzu. Xo’jalik moliyaviy ahvolini ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlarning tahlili

O’quv maqsadi. Xo’jalik moliyaviy ahvolini ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlardan bo’lgan moliyaviy barqarorlik va to’lovga qodirlik ko’rsatkichlarini omilli tahlil qilish usulini talabalarga o’rgatish hisoblanadi

Mashg’ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg’lot tashkil qilinadi.

Mashg’ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg’ulotning mazmuni. Amaliy mashg’ulotda xo’jalik moliyaviy ahvolini ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlarning omilli tahlili bilan bog’liq bolgan vazifalarni echish va asosli xulosalar yozish

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalari faoliyatimimg tahlili va nazorati. Darslik. Toshkent «Vori»s nashriyoti.2012.

16-vazifa

Xo’jalik moliyaviy ahvolini ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlar diinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar

Ko’rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
1.O’z aylanma mablaglari mabalari, ming so’m	6500	9100
2.Qisqa muddatli kreditkari va qarzlar, ming so’m	3000	350
3.Pul mablag’lari, ming so’m	1500	2520
5. Debitorlik qarzlari, ming so’m	6000	7500
6. Tovar-moddiy zaxiralar, ming so’m	10500	12000
7.Kreditorlik qarzlarI, ming so’m	10200	11400

8.Uzoq muddatli bank qarzlari, ming so‘m	2050	2050

Berilgan ma’lumotlar asosida aniqlang:

1.Yil boshi va yil oxiriga moliyaviy barqarorlik koeffisientlarini.,
2.Shartli moliyaviy barqarorlik koeffisientlarini.,
3. Moliyaviy barqarorlik koeffisientining o’zgarishini.,
4. Moliyaviy barqarorlik koeffisientining o’zgarishiga omillarning ta’sirini zanjirli bog’lanish usulidan foydalanib aniqlang.,
5Moliyaviy barqarorlik koeffisientini oshirish imkoniyatlarini ko’rsatib xulosa yozing

17-vazifa

16- vazifadagi ma’lumotlar asosida oraliq to’lovga qodirlik koeffisientining o’zgarishini omilli tahlil qiling.Buning uchun aniqlang:

1. Yil boshi va yil oxiriga oraliq to’lovga qodirlik koeffisienti va uning o’zgarishini;
2.To’lovga qodirlik koeffisientining o’zgarishiga omillar ta’sirini.,
3.Koeffisientni oshirish imkoniyatlarini ko’rsatib,xulosa yozing

12-Debitorlik-kreditorlik qarzlari va aylanma mablag’lari aylanish koeffisientining tahlili

O’quv maqsadi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisientlarini omilli tahlil qilish tartibini talabalarga o’rgatish hisoblanadi

Mashg’ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg’lot tashkil qilinadi.

Mashg’ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg’ulotning mazmuni. Amaliy mashg’ulotda debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisientlarini omilli tahlili bilan bog’liq bolgan vazifalarni echish va asosli xulosa yozish.

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalari fajliyatimimg tahlili va nazorati. Darslik. Toshkent «Voris» nashriyoti.2012.

18-vazifa

Debitorlik-kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentlarini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar

Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot ili
1.Debitorlik qarzlari,ming so’m	38300	36500
2.Kreditorlik qarzlari,ming so’m	42200	38500
3.Sotishdan olingan sof pul tushumi,ming so’m	160860	164250
4.Sotilgan mahsulotlar tannarxi,ming so’m	144000	146000

Berilgan ma’lumotlar asosida aniqlang:

1.Bazis va hisobot yillari uchun debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentlarini.,
2.Shartli debitorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffisiyentini.,
3.Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentining o’zgarishini.,
4. Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentining o’zgarishiga omillarning ta’sirini zanjirli bog’lanish usulidan foydalanib aniqlang.,

5. Koeffisiyent darajasini oshirish imkoniyatini ko’rsatib,xulosa qiling.

19-vazifa

18- vazifadagi ma’lumotlar asosida kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyenti o’zgarishini tahlil qiling.Buning uchun aniqlang:

1.Bazis va hisobot yillari uchun kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentlarini.,

2.Kreditorlik qarzlarining shartli aylanuvchanlik koeffisiyentini.,

3. Kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentlarining o’zgarishini.,

4.Kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffisiyentining o’zgarishiga omillarning ta’sirini zanjirli bog’lanish usulidan foydalanib aniqlang.,

5.Vazifa echimiga xulosa yozing.

13-- mavzu. Xo’jalikning moliyaviy natijalarining tahlili

O’quv maqsadi. Xo’jalikning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko’rsatkichlarni hisoblash va omilli tahlil qilish usullarini talabalarga o’rgatish hisoblanadi

Mashg’ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg’lot tashkil qilinadi.

Mashg’ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg’ulotning mazmuni. Amaliy mashg’ulotda mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda diinamikasini har xil usullar bilan omilli tahlil qilish bilan bog’liq bolgan vazifalarni echish va asosli xulosa yozish.

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalari fajliyatimimg tahlili va nazorati. Darslik. Toshkent «Voris» nashriyoti.2012.

20-vazifa

Paxtani sotishdan olingan yalpi aoyda va rentabellik diinamikasini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar

Ko’rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1.Sotilgan paxta miqdori,s	1000	1152
2.1 s. paxta bohasi,so’m	90500	94000
3. 1 s. paxta tannarxi, so’m	?	?
4. 1 s. paxta foydasi, so’m	2500	7500
5.Paxtani sotishdan olingan yalpi foyda, ming so’m	?	?

Berilgan ma’lumotlar asosida aniqlang:

1.Bazis va hisobot yillari uchun 1 s paxta tannarxini;

2. Bazis va hisobot yillari uchun paxtani sotishdan olingan yalpi foyda summasi va uning o’zgarishini ;

3. Yalpi foyda summasining o’zgarishiga omillarning ta’sirini ko’rsatkichlar farqi (farqlash) usulini qo’llab , aniqlang;

4. Yalpi foydani ko’paytirish imkoniyatlarini ko’rsatib, xulosa yozing

21- vazifa

20-vazifada keltirilgan ma’lumotlar va ularning echimi ko’rsatkichlaridan foydalanib,zanjirli bog’lanish usulini qo’llab, paxtani sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasi o’zgarishini tahlil qiling. Tahlilga o’tishdan oldin shartli yalpi foyda hajmini aniqlab oling. Tahlil natijalari farqlash usuli bilan aniqlangan natijalardan farq qilishi mumkin emas(bir xil bo’lishi kerak).Shuni esda saqlagan holda tahlilni amalga oshriring.

14-mavzu. Rentabellik ko’rsatkichlarini tahlil qilish uslubi

O’quv maqsadi. Sotilgan mahsulotlar rentabelligini hisoblash va uning ozgarishini omilli tahlil qilish uslublarini talabalarga o’rgatish hisoblanadi

Mashg’ulot shakli. Kichik guruhlarda vazifalarni echish shaklida mashg’lot tashkil qilinadi.

Mashg’ulot metodi. Vazifalarni mustaqil bajarish

Mashg’ulotning mazmuni. Amaliy mashg’ulotda sotilgan mahsulot rentabelligi darajasi diinamikasini omilli tahlili bilan bog’liq bolgan vazifalarni echish va har biriga aosli xulosa yozish

Adabiyotlar:1.Qudratov T.,Fayziyeva N. Qishloq xo’jalik korxonalari faoliyatimimg tahlili. Darslik. Samarqand-2010.

2.Qudratov T.,Fayziyeva N. Korxonalari fajliyatimimg tahlili va nazorati. Darslik. Toshkent «Voris» nashriyoti.2012.

22-vazifa

20- vazifada keltirilgan ma’lumotlar asosida zanjirli bog’lanish usulini qollab, paxta rentabelligi dinamikasi o’zgarishini omilli tahlil qiling. Buning uchun aniqlang:

1.Bazis va hisobot yillari uchun rentabellik darajasini;

2.Shartli rentabellik darajasini;

3.Rentabellik darajasining o’zgarishini;

4. Rentabellik darajasining o’zgarishiga omillarning ta’sirini;

5. Rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini ko’rsatib, xulosa yozing

23-vazifa

20- va 22- vazifalardagi ma’lumotlar asosida indeks usulini qo’llab paxta rentabelligi dinamikasi o’zgarishini tahlil qiling. Tahlil natijalari zanjirli bog’lanish usuli bilan aniqlangan nisbiy ko’rsatkichlardan farq qilmasligi kerak Shuni esda saqlagan holda tahlilni bajaring..

3.Amaliy mashg’ulotlrda bajariladigan vazifalarning echimlari bo’yicha javoblari

1-vazifa bo’yicha:
1.Yalpi hosil**:** bazis yili uchun 1000 s.,hisobot yili uchun 1152 s.
2. Yalpi hosil o’zgarishi +152 s.
3.Omillar ta’siri:-maydon o’zgarishi hisobiga minus 40 s.,hosildorlik hisobtga +192 s
3-vazifa bo’yicha:
1.Sof pul tushumi: bazis yili uchun 90500 ming so’m., hisobot yili uchun-108288.
2. Sof pul tushumi hajmi o’zgarishi +17788 ming so’m
3 Omillar ta’siri: -miqdor hisobiga +13756 ming so’m.,baho hisobiga +4032 .
4-vazifa bo’yicha: Mahsulot qiymati (hajmi) indeksi -1.56(156%)
5-vazifa bo’yicha:
1.bazis yili uchun 600 k/s., hisobot yili uchun -645 l/s.
2. bazis yili uchun 20 s., hisobot yili uchun -24 s.
3. bazis yili uchun 3.39 kg., hisobot yili uchun -3.72kg.
4. 1.117 (111.7%)
6-vazifa bo’yicha:
1.Mutlaq o’zgarishi +0.39 kg.,Nisbiy o’zgaoishi +11.7%
2. 3.1 kg
3. Omillar ta’siri: mehnat sarfi o’zgarishining hisobiga minus 0.23 kg., hosildorlik hisobiga +0.62 kg
7-vazifa bo’yicha:
1.Mehnat unimdorligining o’zgarishi +11.5%
2. Omillar ta’siri: -1 ga mehnat sarfi o’zgarishining ta’siri minus 7%., hosildorlik o’zgarishining ta’siri +19.9%

8-vazifa bo'yicha:
1.bazis yili uchun-1560 ming so'm., hisobot yili uchun-1670 ming so'm
2. +110 ming so'm., **3**. 1543 ming so'm.
4.Omillar ta'siri**:** -maydon o'zgarishining ta'siri minus 17 ming so'm., yalpi daromad o'zgarishining ta'siri +127 ming so'm
9-vazifa bo'yicha:
1.Paxta hosildorligi**:** bazis yili uchun-24.5 s., hisobot yili uchun-25.3 s.
2.1 ga suv hajmi: bazis yili uchun- 11 ming m^3.,hisobot yili uchun-10.5 ming m^3.,
3.Suvdan foydalanish samaradorligi: bazis yili uchun-2.23 s., hisobot yili uchun-2.41 s.,
4. Suvdan foydalanish samaradorligi o'zgarishi +0.18 s
5.Omillar ta'sri: -suv hajmi o'zgarishining ta'siri-+0.1 s.,hosildorlik ta'siri -0.08s.
10-vazifa bo'yicha:
1.Materiallar qaytimi: bazis yili -2.05so'm., hisobot yili-2.12 so'm.,
Materiallar qaytimi: bazis yili -0.487so'm., hisobot yili-0.471 so'm.,
2. 2.04 so'm., **3**.+0.07so'm., **4**.Omillar ta'siri:-xarajatlar ta'siri-minus 0.01 so'm.,yalpi mahsulot hajmining ta'siri +0.08 so'm
11-vazifa bo'yicha:
1. bazis yili -10.3%., hisobot yili-11.8%., o'zgarishi +1.5%
2. 10.2%., **3.** Omillar ta'siri:- xarajatlar ta'siri-minus 0. 1%.,sof foyda hajmining ta'siri +1.6%.

12-vazifa bo'yicha:
1.Samaradorlik o'zgarishi +3.4%.,**2**. Omillar ta'siri: -moddiy xarajatlar hajmining ta'siri minus 0.4%., yalpi mahsulot hajmining ta'siri +3.8%.
13-vazifa bo'yicha:
1. +11648 ming so'm., **2.** 101376 ming so'm.,**3.** Omillar ta'siri:-mahsulot imqdori o'zgarishining ta'siri +13376 ming so'm.,1 s mahsulot tannarxining ta'siri minus 1728 ming so'm.
14-vazifa bo'yicha:
1. bazis yili uchun 1760ming so'm., hisobot yili uchun 2076 ming so'm.
2. bazis yili uchun 20 s., hisobot yili uchun 24 s.
3. bazis yili uchun 88ming so'm., hisobot yili uchun 86.5 ming so'm.,o'zgarishi minus 1,5ming so'm.
4. Omillar ta'siri:- 1 ga xarajati hajmi o'zgarishining ta'sri +15.8 ming so'm., hosildorlik o'zgarishining ta'sri minus 17.3 ming so'm.

15-vazifa bo'yicha: tannarx 4.3% ga kamayadi.
16-vazifa bo'yicha:
1.yil boshida 90.5%., yil oxirida 100.8%., **2.** 100.8%., **3**.o'zgarishi+10.3%
4. Omillar ta'siri:-zaxiralar hajmi o'zgarishinin ta'siri minus 11.3%.,o'z aylanma mablag'lari hajmi o'zgarishinin ta'siri+21.6%.,qisqa muddatli kreditlar hajmi o'zgarishining ta'siri 0.
17-vazifa bo'yicha:

1.Yil boshi 0.568(56.8%).,yil oxiri 0.853(85.3%).,o'zgarishi +0.285 yoki 28.5%.
2.Omillar ta'siri:-kreditorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri minus- 4.7%.,bank kreditlari hajmi o'zgarishining ta'siri +11.7%.,pul mablag'larining ta'siri +8.7%.,debitorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri+12.8%.

18-vazifa bo'yicha:
1.bazis yili uchun 4.2., hisobot yili uchun 4.5., **2.** 4.4., **3.** +0.3.
4. Omillar ta'siri:- debitorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri+0.2., pul tushumi hajmi o'zgarishining ta'siri+0.1.

19-vazifa bo'yicha:
1.bazis yili uchun 3.4., hisobot yili uchun 3.8., **2.** 3.7., **3.** +0.4.
4.Omillar ta'siri:- kreditorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri+0.3., pul tushumi hajmi o'zgarishining ta'siri+0.1.

20-vazifa bo'yicha:
1.bazis yili uchun 88000 so'm., hisobot yili uchun 86500 so'm.
2.bazis yili uchun2500so'm., hisobot yili uchun 8640so'm., o'zgarishi +6140 ming so'm.
3.Omillar ta'siri: sotilgan pata miqdori o'zgarishining ta'siri +380.,baho o'zgarishining ta'siri+4032.,tannarx o'zgarishining ta'siri+1728 ming so'm.

21-vazifa bo'yicha:
1.Shartli yalpifoyda 2880 ming so'm

22-vazifa bo'yicha:
1.bazis yiliuchun 2.8%.,hisobot yili uchun 8.7%., **2.** 6.8%.,**3.** o'zgarishi +5.9%
4. Omillar ta'siri:-baho ta'siri +4.0%., tannarx ta'siri +1.9%

23-vazifa bo'yicha:
1.Rentabellik darajasi 3.1 martaga oshgan/
2.Omillar ta'siri**:** baho hisobiga 2.4 martaga,tannarx hisobiga 1.3 martaga oshgan**.**

4.Fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari

№	Mustaqil ish mavzulari	Berilgan tophiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi
1.	Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	28-hafta	4
2.	Iqtisodiy tahlilning predmeti va vazifalari	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	28-hafta	4
3.	Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar	Adabiyotlardan konspekt tqilis-referat yozish	29-30-hafta	8
4.	Tahlilning turlari, axborot manbalari va uni ishlarini tashkil etish	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	31-32-hafta	6

5.	Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish usullari	Konspekt qilis va topshiriqlarni bajarish	32—34-hafta	10
6.	Moliyaviy faoliyatini tahlil qilish usullari	konspekt qilisk va topshiriqlarni bajarish	35-37-hafta	9
7.	Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	37-38-hafta	4
8	Auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	38-39-hafta	4
9	Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	39-40-hafta	4
10	Auditorlik tekshirishni rejalashtirish	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	40-41-hafta	4
11	Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi	Adabiyotlardan konspekt qilis-referat yozish	41-42-hafta	4
	Jami:			61

5. Test reyting ballarning mezonlari

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari			
		maks	1-JN	2-JN	3-JN
1	Darslarga qatnashganligi, amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati.	6	0-2	0-2	0-2
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi.	6	0-2	0-2	0-2
3	Og'zaki,test yoki yozma ish savollariga berilgan javoblar va o'zlashtirish darajasi	18	0-6	0-6	0-6
Jami JN ballari		**30**	**0-10**	**0-10**	**0-10**

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	10	0-5	0-5
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish va o'zlashtirish.	10	0-5	0-5
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	20	0-10	0-10
Jami ON ballari		**40**	**0-20**	**0-20**

MUNDARIJA

1.Leksiyalar kursi 1

2.Amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan vazifalar to'plami 69

3. Amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan vazifalar echimlari bo'yicha javoblari 82

4.Mustaqil ish topshiriqlari 84

5.Test reyting ballarning mezonlari to'g'risidagi ma'lumotlar 85